4.	Haqiqiy x,y va z sonlar berilgan bo‘lsa, quyidagilar aniqlansin: a) $\max(x,y,z);$ b) $\max(x,y)+\min(y,z);$ d) $\max(x+y+z,x*y*z);$ e) $\min((x+y+z)/2,x*z+1).$

5.	Uchta x, y va z haqiqiy sonlar berilgan, agar ular monoton bo'lsa ularning qiymatlari ikkilantirilsin, aks holda har bir o'zgaruvchining ishorasi qarama-qarshisiga almashtirilsin.
6.	Butun n ($n > 0$) va n ta haqiqiy sonlar berilgan. Ular orasidan manfiylari nechталиги aniqlansin.
7.	OY va OX o'qlarida yotmaydigan nuqta koordinatalari bilan berilgan. Bu nuqta joylashgan koordinata choragi aniqlansin.
8.	Bo'sh bo'Imagan va oxiri 0 soni bilan tugaydigan musbat butun sonlar ketma-ketligi berilgan (0 soni ketma-ketlikka kirmaydi va uning tugaganligini bildiradi). Ketma-ketlikning o'rta geometrik qiymati hisoblansin.
9.	Haqiqiy x,y va z sonlari berilgan bo'lib, $x < y < z$ munosabat o'rinali bo'lsa bu sonlar ikkilantirilsin, aks holda bu sonlar absolyut qiymatlari bilan almashtirilsin.
10.	Uchta ixtiyoriy a,b va c son berilgan. Tomonlarining uzunliklari shu sonlarga teng bo'lgan uchburchak mavjudmi?
11.	Sonlar o'qida uchta A, B va C nuqtalar joylashgan. B va C nuqtalardan qaysi biri A nuqtaga yaqin masofada joylashgan bo'lsa, shu masofa chop etilsin.
12.	Berilgan uch xonali son raqamlari orasida bir xillari bor yoki yo'qligi aniqlansin?
13.	Berilgan x uchun quyidagi ifodalarning qiymatlari o'sish tartibida chop etilsin: chx , $1+ x $ va $(1+x^2)^x$.
14.	$a_1x + b_1y = c_1$ va $a_2x + b_2y = c_2$ tenglamalar bilan berilgan chiziqlarning kesishish nuqtasi koordinatalarini chop etadigan yoki bu chiziqlarning ustma-ust tushishligi, yoki paralleligi haqida ma'lumot beradigan dastur tuzilsin. Bu yerda a_1, b_1, c_1, a_2, b_2 va c_2 – berilgan sonlar.
15.	$ax^4 + bx^2 + c = 0$ tenglamaning haqiqiy ildizlarini topadigan yoki ildizi yo'qligi haqida ma'lumot beradigan dastur tuzilsin.
16.	Shaxmat taxtasidagi maydonlar sakkizdan katta bo'Imagan sonlar juftligi bilan aniqlanadi: birinchi son shaxmat taxtasi maydonining vertikal nomeri (chapdan o'nga), ikkinchisi – gorizontal nomeri (pastdan yuqoriga). Sakkizdan katta bo'Imagan k, l, m va n sonlari berilgan. Quyidagi masalalar echilsin: <ol style="list-style-type: none"> (k,l) maydonidagi ruh bir yurishda (m,n) maydoniga o'tishi mumkinmi? Agar mumkin bo'limasa, ikkita yurishda o'tish yo'llari ko'rsatilsin; (k,l) maydonidagi farzin bir yurishda (m,n) maydoniga o'tishi mumkinmi? Agar mumkin bo'limasa, ikkita yurishda o'tish yo'llari ko'rsatilsin.
17.	Uchburchak uchlarining koordinatalari $M_1(x_1, y_1)$, $M_2(x_2, y_2)$ va $M_3(x_3, y_3)$ berilgan. Berilgan M(x,y) nuqta uchburchak ichida yotish yoki yotmasligi aniqlansin.
18.	Berilgan a_1, a_2, a_3 va a_4 butun sonlar ichida uchtasi bir-biriga teng. Boshqalaridan farqli bo'lgan sonning tartib nomeri chop etilsin.
19.	Butun turdag'i a, b va s o'zgaruvchilar qiymati shunday almashtirilsinki, natijada $a \leq b \leq c$ munosabat o'rinali bo'lsin.
20.	Natural $n (n \leq 9999)$ soni berilgan. Sonni to'rt xonali deb hisobga olgan holda ushbu sonning palindrom ekanligi aniqlansin (chapdan va o'ngdan bir xil o'qiladigan sonlar, masalan, 1221, 5555, 440 sonlari palindrom sonlar hisoblanadi).

№	Ifoda	Argument qiymati
1.	$y = a \ln(1 + x^{1/5}) + \cos^2[x + 1]$	$x = \begin{cases} z^2; & z < 1; \\ z + 1; & z \geq 1. \end{cases}$
2.	$y = \frac{2ax + b \cos \sqrt{ x }}{x^2 + 5}$	$x = \begin{cases} 2 + z; & z < 1; \\ \sin^2 z; & z \geq 1. \end{cases}$
3.	$y = -\pi x + a \cos^2 x^3 + b \sin^3 x^2$	$x = \begin{cases} z; & z < 1; \\ \sqrt{z^3}; & z \geq 1. \end{cases}$
4.	$y = 2a \cos^3 x^2 + \sin^2 x^3 - bx$	$x = \begin{cases} z^3 + 0,2; & z < 1; \\ z + \ln z; & z \geq 1. \end{cases}$
5.	$y = acx - \ln(x + 2,5) + b(e^x - e^{-x})$	$x = \begin{cases} -z/3; & z < -1; \\ z ; & z \geq -1. \end{cases}$
6.	$y = \frac{2}{3}a \sin^2 x - \frac{3b}{4} \cos^2 x$	$x = \begin{cases} z; & z < 0; \\ \sin z; & z \geq 0. \end{cases}$
7.	$y = \sin^3(cx + d^2 + x^2)$	$x = \begin{cases} z^2 - z; & z < 0; \\ z^3; & z \geq 0. \end{cases}$
8.	$y = \sin^2 x + a \cos^5 x^3 + c \ln x^{2/5}$	$x = \begin{cases} 2z + 1; & z \geq 0; \\ \ln(z^2 - z); & z < 0. \end{cases}$
9.	$y = \frac{bx}{\operatorname{tg} x} + a \ln \left \operatorname{tg} \frac{x}{2} \right $	$x = \begin{cases} z^2/2; & z \leq 0; \\ \sqrt{z}; & z > 0. \end{cases}$
10.	$y = \frac{dxe^{\sin^3 x} + c \ln(x + 1)}{\sqrt{x}}$	$x = \begin{cases} z^2 + 1; & z < 1; \\ z - 1; & z \geq 1; \end{cases}$
11.	$y = 2a \sin^5 x^2 + \cos^2 x^3 - bx$	$x = \begin{cases} z^3 + 0,2; & z < 1; \\ z + \ln z; & z \geq 1. \end{cases}$
12.	$y = \frac{2,5ba \cdot e^{-3x} - 4bx^2}{\ln x + xa}$	$x = \begin{cases} \frac{1}{z^2 + 2z}; & z > 0; \\ 1 - z^3; & z \leq 0. \end{cases}$
13.	$y = a \sin^3(x^2 - 1) + c \ln x + e^x$	$x = \begin{cases} z^2 + 1; & z \leq 1; \\ 1/\sqrt{z - 1}; & z > 1. \end{cases}$
14.	$y = \sin(nx) + \cos kx + \ln mx$	$x = \begin{cases} z; & z > 1; \\ z^2 + 1; & z \leq 1. \end{cases}$
15.	$y = b \cos(ax) + \sin \frac{x}{5} + ae^x$	$x = \begin{cases} \sqrt{z}; & z > 0; \\ 3z + 1; & z \leq 0. \end{cases}$
16.	$y = 2x[a \sin x + d \cdot e^{-(x+3)}]$	$x = \begin{cases} -3z; & z > 0; \\ z^2; & z \leq 0. \end{cases}$
17.	$y = a \ln x + e^x + c \sin^3[\varphi(x)^2 - 1]$	$x = \begin{cases} z^2 + 1; & z \leq 1; \\ 1/\sqrt{z - 1}; & z > 1. \end{cases}$

18.	$y = \sin^2 x + a \cos^5 x^3 + c \ln x^{2/5}$	$x = \begin{cases} 2z + 1; & z \geq 0; \\ \ln(z^2 - z); & z < 0. \end{cases}$
19.	$y = \frac{5ba \cdot e^{-3x} - 4bx^3}{\sin x + xa}$	$x = \begin{cases} \frac{1}{z^2 + 2z}; & z > 0; \\ 1 - z^3; & z \leq 0. \end{cases}$
20.	$y = \frac{dbxe^{\sin^3 x} + c \ln(x+1)}{c \sqrt{x}}$	$x = \begin{cases} z^2 + 1; & z < 1; \\ z - 1; & z \geq 1; \end{cases}$

Switch case tanlash operatoriga doir topshiriqlar

Switch case tanlash operatoridan foydalanib, o‘zgaruvchilarning barcha qiymatlari uchun funkstiyani hisoblash dasturini tuzing.

Case1. 1-7 gacha bo‘lgan butun sonlar berilgan. Kiritilgan songa mos ravishda hafta kunlarini so‘zda ifodalovchi dastur tuzilsin. (1-Dushanba, 2-Seshanba, ... hk).

Case2. K butun soni berilgan. Baho natijalarini chiqaruvchi dastur tuzing. (1-yomon, 2-qoniqarsiz, 3-qoniqarli, 4-yaxshi, 5-a’lo). Agar K soni 1-5 oraliqqa tegishli bo‘lmasa “xato” degan xabar chiqarilsin.

Case3. Oy raqamini berilgan. Kiritilgan oy qaysi faslga tegishli ekanligini chiqaruvchi dastur tuzilsin. (Masalan, 2 chi oy “qish” va hk)

Case4. Oy raqami berilgan. Shu oyda nechta kun borligini aniqlovchi dastur tuzilsin.

Case5. A, B haqiqiy va amal butun son berilgan. A va B sonlari ustiga arifmetik amallar bajaruvchi dastur tuzilsin. Amal quyidagi qiymatlarni qabul qiladi: 1-ko‘shish, 2-ayirish, 3-bo‘lish, 4-ko‘paytirish.

Case6. Uzunlik birlklari quyidagi tartibda berilgan. 1-desimet, 2-kilometr, 3-metr, 4-millimetr, 5-santimetr. Uzunlik birligini bildiruvchi son berilgan (1-5 oraliqda) va shu birlikdagi kesma uzunligi berilgan (haqiqiy son). Kesmaning uzunligini metrlarda ifodalovchi dastur tuzilsin.

Case7. Og‘irlik birlklari quyidagi tartibda berilgan. 1-kilogramm, 2-milligramm, 3-gramm, 4-tonna, 5-sentner. Og‘irlik birligini bildiruvchi son berilgan (1-5 oraliqda) va shu birlikdagi og‘irlik qiymati berilgan (haqiqiy son). Og‘irlikni kilogrammda ifodalovchi dastur tuzilsin.

Case8. Sanani bildiruvchi ikkita butun son berilgan D (kun) va M (oy). (Kabisa bo‘lмаган yil sanasi kiritiladi). Berilgan sanani ifodalovchi dastur tuzilsin. Kabisa yilda 366 kun, kabisa bo‘lмаган yilda 365 kun bor bo‘ladi.

Case9. Ikkita butun son berilgan D (kun) va M (oy). (Kabisa bo‘lмаган yil sanasi kiritiladi). Berilgan sanadan keyingi sanani ifodalovchi dastur tuzilsin.

Case10. Robot faqat to‘rtta tomonga ko‘cha oladi(‘s’-shimol, ‘j’-janub, ‘q’-sharq, ‘g’-g‘arb) va uchta raqamlı kamanda: 0-harakatni davom ettir, 1-chapga buril, 2-o‘ngga buril. Y-robot yo‘nalishi va K-kamanda berilgan. Berilgan kamanda bajarildan keyingi robot holatini aniqlovchi dastur tuzilsin.

Case11. Lokatr dunyoning bir tomoniga qaratilgan (‘s’-shimol, ‘j’-janub, ‘q’-sharq, ‘g’-g‘arb) va uchta raqamlı kamanda: 0-o‘ngga buril, 1-chapga buril, 2-burilish 180° . C-lakatrning boshlang‘ich holati va K1, K2 – kamandalar berilgan. Berilgan kamanda bajarilgandan keyingi lokatr holatini aniqlovchi dastur tuzilsin.

Case12. Doiranining elementlari quyidagi tartibda nomerlangan. 1-radius R, 2-diametr $D=2R$, 3-uzunligi $L=2\pi R$, 4-doiranining yuzasi $S=\pi R^2$. Shu elementlardan bittasi berilganda qolganlarini topuvchi dastur tuzilsin. $\pi=3.14$

4. TAKRORLANISH OPERATORLARIDAN FOYDALANISH

Ishning maqsadi:

1. Darsning nazariy qismini mustahkamlash;
 2. C++ dasturlash tilining sikl operatorlari bilan tanishish.
 4. Takrorlanuvchi algoritmlar bo‘yich berilgan topshiriqlarga dasturlar tuzish va natijalar olish.

Nazariy qism.

Dastur kodining biror qismining ko‘p marta bajalishi sikl hisoblanadi. Dastur kodining qandaydir qismini qandaydir shart asosida birnecha marta bajartirish uchun dasturlashda sikldan foydalaniлади. Agar shart rost bo‘lsa sikl davom qiladi. Aks holda to‘xtatiladi. Agar shart hamisha rost bo‘lsa bunday sikl cheksiz sikl deb ataladi.

C++ da siklni tashkil qilish uchun while, do while va for operatorlari mayjud.

Siklni o‘rganish uchun eng oson misol bu 1 dan n gacha natural sonlarning yig‘indisini($1+2+3+\dots+n$) topish dasturini tuzish. Bu yig‘indini takrorlanish jarayoni orqali hisoblash uchun 1 dan n gacha sonlarni birma-bir qo‘sib chiqish lozim. Yig‘indining dastlabki qiymatini 0 ga tenglaymiz. Siklning har bir qadamida quyidagi amallar bajariladi:

s=0;

1-qadam. $s=s+1=0+1=1;$

2-qadam. $s=s+2=1+2=3$;

3-qadam. $s=s+3=3+3=6$;

4-qadam. $s=s+4=6+4=10$;

5-qadam. $s=s+5=10+5=15$;

i-qadam. s=s+i;
.....

n-qadam. $s=s+n;$

Har bir qadamda bir xil amal bajariladi, ya’ni yog‘indining yangi qiymatini hosil qilish uchun uning avvalgi qadamdagiga qiymatiga navbatdagি natural son qo’shiladi.

1) while sikli.

Bu siklda shart oldindan qo‘yiladi. Agar shart rost bo‘lsa sikl tanasi bajariladi. Aks holda sikl to‘xtab undan keyingi qadamga o‘tiladi.

while (shart)

{

sikl tanası

}

1 dan n gacha sonlar yig‘indisini topish uchun har bir qadamda navbatdagi sonni qo‘sib borish uchun i o‘zgaruvchi e’lon qilamiz.

```
#include <iostream>
```

using namespace std;

```
int main() {
```

int s = 0, i = 1, n;

```
cout<<"n="; cin>>n;
```

while (*i* \leq *n*) {

s += i; i++; }

```
cout<<"s="<<s; }
```

Dastur kodini bir boshdan qarab chiqamiz. Bizga uchta o‘zgaruvchi kerak. Birinchi o‘zgaruvchi n soni, ikkinchi o‘zgaruvchi sanab borish uchun ishlataladigan i o‘zgaruvchisi,

yig‘indining qiymatini nolga tenglaymiz, shunda unga qandaydir sonni birinchi marta qo‘shganimizda uning o‘zi hosil bo‘ladi. i o‘zgaruvchining dastlabki qiymatini 1 ga tenglaymiz, chunki 1 dan boshlab yig‘indiga qo‘shib borishimiz lozim. Agar i≤n shart bajarilsa u holda i ni yig‘indiga qo‘shamiz (s+=i bu s=s+i ning qisqacha yozilishi) va i ning qiymatini orqali birga oshiramiz(i++ bu inkrement).

Cheksiz sikl.

while yordamida cheksiz sikl hosil qilish uchun shart ifodaga hamisha rost qiymat qabul qiladigan mantiqiy ifoda, o‘zgaruvchi yoki rost konstanta qiymatini yozishimiz mumkin.

```
while (1) { cout<<"Cheksiz sikl\n"; }
```

2) do while sikli.

do while sikli while sikliga o‘xhash, farqi shart sikl oxirida tekshiriladi va shart bajarilsin yoki bajarilmasin kamida bir marta(1-sikl) sikl bajariladi.

1 dan n gacha sonlar yig‘indisi quyidagicha yoziladi:

```
#include <iostream>
using namespace std;
int main() { int s = 0, i = 1, n;
cout<<"n="; cin>>n;
do { s += i; i++; }
while (i <= n);
cout<<"s="<<s; }
```

Bu siklda i o‘zgaruvchinig qiymati qanday bo‘lishidan qat’iy nazar sikl bir marta aylanadi. Bu siklni sonni kiritishda unig tog‘riligini tekshirish va toki to‘g‘ri kiritilmaguncha kiritishni davom qildirish uchun foydalanishimiz mumkin. Masalan yuqoridagi masalamizda n soni natural bo‘lishi kerak, agar natural son kiritilmasa yana kiritishni so‘rash lozim:

```
do { cout<<"n="; cin>>n; }while (n < 1);
```

3) for sikli.

for sikli sintaksisi quyidagicha:

```
for(sikl boshlanishidan oldingi amallar; sikl davom etish sharti; siklning har bir iteratsiyasi oxiridagi amallar) { sikl tanasi; }
```

Iteratsiya deb siklning bir marta bajarilishiga aytildi. Agar ma’lum qadam bilan bitta o‘zgaruvchining qiymatini o‘zgartirib takrorlanuvchi jarayon amalgalashish bo‘lsa, u holda uni quyidagicha xususiy holda yozishimiz mumkin: for(<o‘zgaruvchi tipi> o‘zgaruvchi =boshlang‘ich qiymat; o‘zgaruvchi <=oxirgi qiymat; o‘zgaruvchi +=sikl qadami) { sikl tanasi; } 1 dan n gacha sonlar yig‘indisini topish uchun quyidagicha sikl amalgalashishimiz mumkin:

```
#include <iostream>
using namespace std;
int main() {
int s = 0, n;
cout<<"n="; cin>>n;
for (int i = 1; i <= n; i++)
{ s += i; } cout<<s; }
```

Bu siklda i ning qiymati sikl boshlanishidan avval 1 ga teng qiymatni qabul qiladi. Yana bitta iteratsiya qilish uchun bajarilishi kerak bo‘lgan shart i≤n, agar shart rost bo‘lsa, yana bitta iteratsiya bajariladi, iteratsiya oxirida i ning qiymati birga oshiriladi (i++). Keyingi har bir iteratsiyada for siklining ikkinchi va uchinchi qismlari bajariladi, 1-qismi

boshqa bajarilmaydi. Eng oxirgi iteratsiyadan oxirida i ning qiymati oshirilgach $n+1$ ga teng bo‘ladi va keyingi iteratsiyada shart yolg‘on qiymat qabul qilganligi sababli ($n+1 <= n$ yolg‘on qiymat qabul qiladi) sikl aylanishi tugaydi. Sikl o‘zgaruvchisi i haqiqiy son ham bo‘la oladi. Masalan 1 dan 10 gacha sonlarni 0.01 qadam bilan chiqarish uchun ya’ni 1, 1.01, 1.02, 1.03, ..., 10 sonlarini chiqarish uchun quyidagicha sikl yoziladi.

```
for (double x = 1;
x <= 10;
x += 0.01) { cout<<x<<" "; }
```

x sikl parametri bu safar haqiqiy qiymatni qabul qiladi va har bir iteratsiya oxirida qiymati 0.01 ga oshiriladi. for siklining uchta qismidan istalgan qismini yozmaslik mumkin:

```
double x = 1;
for (; x <= 10; x += 0.01) {
cout<<x<<" "; }
```

bu kod avvalgi yozilgani bilan bir xil, faqat $x=1$ dastlabki qiymatni o‘zlashtirish for ichida yozilmadi.

```
double x = 1;
for (; ; x += 0.01) { cout<<x<<" "; }
```

Bu kod qismida x ning qiymati 1 dan boshlab 0.01 qadam bilan oshirib boriladi, lekin to‘xtash sharti yozilmadi, shuning uchun cheksiz sikl hosil bo‘ladi.

```
double x = 1;
for (; ;) {
cout<<x<<" "; }
```

Bu holatda esa x ning qiymati iteratsiya oxirida o‘zgartirilmadi shuning uchun cheksiz ko‘p marta x ning dastlabki qiymati 1 chirariladi.

Ichma-ich joylashgan for takrorlanish operatori

Namunaviy misollar

Misol:

```
#include <iostream>
using namespace std;
int main() {
    int i=0;
    cout<<"***Birinchi takrorlanish*** "<<endl;
    for( i<10; i++) {
        cout<<"i - "<<i<<" - O'zgaruvchisi"<<endl; }
        cout<<endl;
        cout<<"***Ikkinchchi takrorlanish*** "<<endl;
        for ( i<20; i++) {
            cout<<"i - "<<i<<" - O'zgaruvchisi"<<endl; } }
```

Natija:

```
***Birinchi takrorlanish***
- 0 - O'zgaruvchisi
- 1 - O'zgaruvchisi
- 2 - O'zgaruvchisi
- 3 - O'zgaruvchisi
- 4 - O'zgaruvchisi
- 5 - O'zgaruvchisi
- 6 - O'zgaruvchisi
- 7 - O'zgaruvchisi
- 8 - O'zgaruvchisi
- 9 - O'zgaruvchisi

***Ikkinchchi takrorlanish***
- 10 - O'zgaruvchisi
- 11 - O'zgaruvchisi
- 12 - O'zgaruvchisi
- 13 - O'zgaruvchisi
- 14 - O'zgaruvchisi
- 15 - O'zgaruvchisi
- 16 - O'zgaruvchisi
- 17 - O'zgaruvchisi
- 18 - O'zgaruvchisi
- 19 - O'zgaruvchisi

-----
Process exited after 7.757 seconds with code 0
Для продолжения нажмите любую клавишу...
```

Misol.

```
#include <iostream>
using namespace std;
int main(){
    for (char c = 'a'; c <= 'e'; ++c) { // harflar bo'yicha tashqi
        takrorlanish
            cout << c << " ";
            for (int i = 0; i < 4; ++i) // ekranga birichi harflar chiqadi
                takrorlanish
                    cout << " " << i;
                    cout << '\n';
    }
    return 0;
}
```

Natija:

```
a 0 1 2 3
b 0 1 2 3
c 0 1 2 3
d 0 1 2 3
e 0 1 2 3

-----
Process exited after 7.859 seconds with return value 0
Для продолжения нажмите любую клавишу . . .
```

For va while, do-while takrorlash operatoriga doir topshiriqlar

Namunaviy masala

Fibonachchi sonlari qyidagicha aniqlanadi: $f_0 = f_1 = 1, f_n = f_{n-1} + f_{n-2}, n = 2, 3, \dots$

Fibonachchi sonlaridan hosil bo'lgan ketma-ketlikning 40 – hadi topilsin.

Yechish usuli

Fibonachchi sonlari ketma-ketligida har bir hadi (2-hadidan boshlab) o'zidan oldingi ikkita hadning yig'indisiga teng. Shu sababli, ketma-ketlikni hosil qilish uchun uchta o'zgaruvchi etarli: f_0, f_1, f_2 . Ketma-ketlikning 2-hadi $f_2 = f_0 + f_1$ ko'rinishda hisoblanadi, 3-hadni topish uchun esa $f_0 = f_1, f_1 = f_2$ amallari bajarilib, yana $f_2 = f_0 + f_1$ topiladi. Bu yerda garchi f_2 qiymat hosil bo'lsa ham, amalda u f_3 qiymatiga teng bo'ladi. Jarayon 39 marta takrirlannib, f_{40} - had topiladi.

Dastur matni

```
#include<iostream>
using namespace std;
int main(){
    const int n=40;
    int f0,f1,f2,i;
    f0=f1=1;
    for(i=2;i<=40;i++) {
        f2=f0+f1; f0=f1; f1=f2;
    }
    cout<< "Fibonachchi sonlari ketma-ketligining 40-hadi:"<<f2;
    return 0;
}
```

Amaliy topshiriqlar

1. Berilgan n ta haqiqiy sonlar orasida qo'shnilaridan (o'zidan oldingi va keyingi sonlardan) katta bo'lgan sonlar miqdori topilsin.
2. Berilgan 10 ta natural sonlarning eng katta umumiyligi bo'luvchisi topilsin.

3. Berilgan n va m natural sonlari uchun $s = \sum_{i=1}^n \prod_{j=5}^m (i+j)$ ifodaning qiymati hisoblansin.
4. Berilgan n na natural sonlardan iborat ketma-ketlikning tartib nomerlari Fibonachchi sonlari bo‘lgan hadlarining yig‘indisi hisoblansin.
5. Quyidagi satr chop etilsin: 1-a A , 2-b B, 3-c C, ..., 26-z Z.
6. 0 dan 15 gacha bo‘lgan sonlar ikkilik ko‘rinishida chop qilinsin.
7. Berilgan natural n va m uchun $s = \prod_{i=3}^n \sum_{j=2}^m (2^* i + j^* j)$ ifodaning qiymati hisoblansin.
8. Berilgan natural n, m va haqiqiy a sonlari uchun $s = \sum_{i=4}^n \sum_{j=2}^m (a^i + j)$ ifodaning qiymati hisoblansin.
9. 0 bilan tugaydigan sonlar ketma-ketligi berilgan (0 soni ketma-ketlikka kirmaydi). Ketma-ketlikdagi barcha musbat sonlar yig‘indisi topilsin.
10. Natural n soni va n ta haqiqiy sonlardan iborat ketma-ketlik berilgan. Toq o‘rinda turgan sonlar maximumi va juft o‘rindagilarning minimumi topilsin.
11. Berilgan n natural sondagi turli raqamlar miqdori aniqlansin.
12. Natural n soni va n ta sonlar juftligi berilgan - $x_1, y_1, x_2, y_2, \dots, x_n, y_n$. Har bir sonlar juftligi tekislikdagi nuqta koordinatasi deb hisoblab, berilgan nuqtalarni o‘z ichiga oluvchi, markazi koordinata boshida bo‘lgan eng kichik aylananing radiusi topilsin.
13. Raqamlari yig‘indisi n soniga teng ($1 \leq n \leq 27$) bo‘lgan uch xonali natural sonlar soni - k topilsin. Butun sonlarni bo‘lish amallaridan (/ , %) foydalanilmasin.
14. O‘nlik yozuvida bir xil raqamlari bo‘limgan uch xonali sonlar o‘sish tartibida chop etilsin (butun sonlarni bo‘lish amalidan foydalanilmasin).
15. Butun n ($n > 1$) soni va n ta haqiqiy sonlardan iborat ketma-ketlik berilgan. Ketma-ketlik o‘suvchi yoki yo‘qligi aniqlansin.
16. Butun n ($n > 1$) soni va n ta haqiqiy sonlardan iborat ketma-ketlik berilgan. Ketma-ketlikning manfiy elementlari orasidan eng kattasi topilsin.
17. Berilgan 80 ta haqiqiy sonlar orasidan biror butun songa eng yaqinining tartib nomeri topilsin.
18. Butun n ($n > 1$) soni va n ta butun sonlardan iborat ketma-ketlik berilgan. Ulardan nechtasi eng katta qiymat qabul qilishi aniqlansin.
19. 100 ta butun sonlardan iborat ketma-ketlik berilgan. Shu ketma-ketlikdagi faqat nollardan iborat eng katta ketma-ketlik ostisining uzunligi topilsin.
20. Berilgan, $a_i < b_i$ shartni qanoatlantiruvchi $a_1, b_1, a_2, b_2, \dots, a_n, b_n$, ($n > 2$) sonlarni bir chiziqda yotuvchi kesmalarining chap (a_i) va o‘ng (b_i) chegaralari deb qarab, barcha kesmalar kesishmasidan hosil bo‘lgan kesma uchlari - (a_k, b_k) topilsin, agar bunday kesma mavjud bo‘lmasa, bu haqda xabar berilsin.
21. Berilgan natural sonning mukammalligi, ya’ni o‘zidan boshqa musbat bo‘luvchilarining yig‘indisi shu sonning o‘ziga tengligi aniqlansin. (misol uchun, 6- mukammal, chunki $6=1+2+3$).
22. [2,n] ($n > 2$) oraligidagi barcha tub sonlar chop etilsin.
23. Berilgan natural sonning barcha tub bo‘luvchilari chop etilsin.
24. Hadlar soni ikkitadan kam bo‘limgan nol bilan tugaydigan natural sonlar ketma-ketligi berilgan. Tartib nomerlari tub sonlar bo‘lgan hadlar yig‘indisi hisoblansin.

25. Berilgan natural sonning raqamlarini teskari tartibda yozishdan hosil bo‘ladigan son hosil qilinsin.
26. Butun n ($n > 0$) soni va n ta haqiqiy sonlar ketma-ketligi berilgan. Ketma-ketlik monotonlikka tekshirilsin.
27. O‘nlik sanoq sistemasida berilgan son o‘n oltilik sanoq sistemasiga o‘tkazilsin.
28. Natural n soni va o‘zaro teng bo‘limgan n ta butun sonlar ketma-ketligi berilgan. Bu ketma - ketlikning eng katta elementidan kichik bo‘lgan sonlarning eng kattasi topilsin.
29. Berilgan ixtiyoriy n ta sonlar ichidan to‘la qvadratlar miqdori aniqlansin.
30. Haqiqiy turdagи n ta sonlar juftligi berilgan. $x_1, y_1, x_2, y_2, \dots, x_n, y_n$. Har bir sonlar juftini tekislikdagi nuqta koordinatalari deb qarab, berilgan nuqtalar ichidan o‘zaro maksimal masofadagi nuqtalar koordinatasini chop etilsin.

while, do-while takrorlash operatorlari

Namunaviy masala

Berilgan haqiqiy x va $\epsilon > 0$ uchun standart funksiyalardan foydalanmagan holda (fabs bundan mustasno) quyidagi ifoda hisoblansin.

$$s = e^x = 1 + \frac{x}{1!} + \frac{x^2}{2!} + \dots + \frac{x^n}{n!} + \dots$$

Yechish usuli

Ifoda $s = s + \frac{a}{b}$ ko‘rinishdagi yig‘indi masalasıdir. Yig‘indini hisoblash esa har qadamda s yig‘indiga $\frac{a}{b}$ qiymatini qo‘shishni amalga oshiradigan takrorlash jarayoni vositasida bajariladi. Bu yerda a va b parametrлarni hisoblash qadamiga bog‘liqligini topish kerak bo‘ladi. Jarayon boshlanishida ($i=0, s=1, a=1, b=1$) qiymatlarni qabul qilsin. Takrorlashning i-qadamida ($i>1$) a ning qiymati ($i-1$) chi qadamdagi a ni x ga ko‘paytirishdan, maxraj esa oldingi b ga i ni kopaytirishdan hosil bo‘ladi. Yig‘indini hisoblash jarayoni navbatdagi qo‘shiladigan hadning absolyut qiymati ϵ sonidan kichik bo‘lguncha davom etadi ($\left| \frac{a}{b} \right| < \epsilon$).

Dastur matni

```
#include<iostream>
using namespace std;
int main() {
    float eps,x,a=1.0,b=1.0,s=0.0;
    int i=0;
    cout<<" eps="; cin>>eps;
    cout<<"\n x="; cin>>x;
    do {
        s+=a/b;
        a*=x;
        b*=&+i;
    }
    while(abs(a/b)>=eps);
    cout<<"exp(x)="<<s;
    return 0;
}
```

Qo'shimcha topshiriqlar

1. Quyidagi belgilar ketma-ketligini ekranda namoyish etiring

* * * * *
* * * * *
* * * * *
* * * * *
* * * * *
* * * * * * *

2. Kiritilgan butun sonlar ketma-ketligi ichidan (0 - ketma-ketlikning oxiri), musbatlar orasida eng kichik va manfiy orasida eng kattasi o'rtasidagi farqni toping.

3. Kiritilgan n butun sonlar ketma-ketligi ichidan toq sonlar ko'paytmasi va manfiy sonlar orasidagi eng kattasi o'rtasidagi farqni toping.

4. Kiritilgan butun sonlar ketma-ketligi ichidan (0 - ketma-ketlikning oxiri). Tarkibida 3, 5 va 7 ga karrali kamida ikkita son borligini aniqlang.

5. N butun sonlarning ketma-ketligi kiritiladi. Ular orasida 11 ga karra bo'lган sonlar orasidan eng kattasini aniqlang.

6. Butun sonlar ketma-ketligi kiritiladi, 0 - ketma-ketlikning oxiri. Ketma-ketlikda uchta juft manfiy sonlar mavjudligini aniqlang.

7. N haqiqiy sonlar ketma-ketligi kiritiladi. 20 dan katta sonlar orasidagi eng kichigini aniqlang.

8. Butun sonlar ketma-ketligi kiritiladi, 0 - ketma-ketlikning oxiri. Ketma-ketlikdagi 7 ga karra va 5 ga karra bo'lмаган sonlar sonini va manfiy sonlar yig'indisini aniqlang.

9. N haqiqiy sonlar ketma-ketligi kiritiladi. 7 ga karra bo'lган sonlarning o'rtा arifmetikini aniqlang.

10. Raqamlar ketma-ketligi kiritiladi, 0 - ketma-ketlikning oxiri. Ketma-ketlik qat'iy ravishda kamayib borish tartibida ketganligini aniqlang.

11. Butun sonlar ketma-ketligi kiritiladi, 0 - ketma-ketlikning oxiri. Ketma-ketlikda kamida ikkita qo'shni musbat son borligini aniqlang.

12. N haqiqiy sonlar ketma-ketligi kiritiladi. Ketma-ketlik navbat o'zgaruvchanligini aniqlang.

13. N haqiqiy sonlar ketma-ketligi kiritiladi. Eng kichik musbat va tng katta manfiy elementlari orasidagi farqni aniqlang.

14. 1 dan N gacha bo'lган ketma-ketlikda to'rtga karra bo'lган sonlaring oxirgi uchtasining yig'indisini toping.

15. Quyidagi belgilar ketma-ketligini ekranda namoyish etiring

* * * * *
* * * * *
* * * * *
* * * * *
* * * * *

16. N1 dan N2 gacha bo'lган ketma-ketlikda beshga karra bo'lмаган sonlaring oxirgi uchtasining ko'paytmasini toping.

17. 1 dan K oralig'idagi ketma-ketlikdagi to'rtga karrali bo'lмаган juft sonlar yig'indisini aniqlang.

18. 20 dan 40 gacha 3 karrali bo'lган butun sonlarning kvadratlari yig'indisini hisoblang.

5. FUNSIYALAR YARATISH

Ishning maqsadi: C++ dasturlash tilida **funksiyalar** yaratish va uning dasturini yaratish ko‘nikmalarini egallash.

Masalaning qo‘yilishi: A va B sonlar ichida mukammal sonlar borligini aniqlang.

Masalani yechish g‘oyasi: Mukammal son-bo‘luvchilari yig‘indisi (o‘zidan tashqari) shu sonni o‘ziga teng bo‘lgan songa aytildi. Shu oradagi har bir son uchun bo‘luvchilarini yig‘indisi shu son bilan solishtirib chiqiladi. Funksiya yaratilib funksiya yordamida oraliqdagi sonlar tekshiriladi.

Nazariy qism

Funksiya bu – C++ tilida masala yechishdagi kalit elementlaridan biridir.

Funksiya parametrlari va argumentlari: Programmada ishlataladigan har qanday funksiya e’lon qilinishi kerak. Odatda funksiyalar e’loni sarlavha fayllarda e’lon qilinadi va #include direktivasi yordamida programma matniga qo‘shiladi. Funksiya e’lonini funksiya prototipi tavsiflaydi (ayrim hollarda signatura deyiladi). Funksiya prototipi quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi:

Bu yerda - funksiya ishlashi natijasida y tomonidan qaytaradigan qiymatning turi. Agar qaytariladigan qiymat turi ko‘rsatilmagan bo‘lsa, kelishuv bo‘yicha funksiya qaytaradigan qiymat turi int deb hisoblanadi, - vergul bilan ajratilgan funksiya parametrlarining turi va nomlari ro‘yxati. Parametr nomini yozmasa ham bo‘ladi. Ro‘yxat bo‘sh bo‘lishi ham mumkin. Funksiya prototiplariga misollar:

```
int almashsin(int,int);
double max(double x, double y);
void func();
void chop_etish(void);
```

Funksiya prototipi tushirib qoldirilishi mumkin, agar programma matnida funksiya aniqlanishi uni chaqiradigan funksiyalar matnidan oldin yozilgan bo‘lsa. Lekin bu holat yaxshi uslub hisoblanmaydi, ayniqsa o‘zaro bir-biriga murojaat qiluvchi funksiyalarini e’lon qilishda muammolar yuzaga kelishi mumkin.

Funksiya aniqlanishi – funksiya sarlavhasi va figurali qavsga (‘{,’}’) olingan qandaydir amaliy mazmunga ega tanadan iborat bo‘ladi. Agar funksiya qaytaruvchi turi void turidan farqli bo‘lsa, uning tanasida albatta mos turdag‘i parametrga ega return operatori bo‘lishi shart. Funksiya tanasida bittadan ortiq return operatori bo‘lishi mumkin. Ularning ixtiyoriy birortasini bajarish orqali funksiyadan chiqib ketiladi. Agar funksiyaning qiymati programmada ishlatilmaydigan bo‘lsa, funksiyadan chiqish uchun parametrsiz return operatori ishlatalishi mumkin yoki umuman return ishlatilmaydi. Oxirgi holda funksiyadan chiqish – oxirgi yopiluvchi qavsga yetib kelganda ro‘y beradi. Funksiya programmaning birorta modulida yagona ravishda aniqlanishi kerak, uning e’loni esa funksiyani ishlatajigan modullarda necha marta yozilishi mumkin. Funksiya aniqlanishida sarlavhadagi barcha parametrlar nomlari yozilishi shart.

Odatda programmada funksiya ma’lum bir ishni amalga oshirish uchun chaqiriladi. Funksiyaga murojaat qilganda, u qo‘yilgan masalani yechadi va o‘z ishini tugatishida qandaydir qiymatni natija sifatida qaytaradi

Funksiyani chaqirish uchun uning nomi va undan keyin qavs ichida argumentlar ro‘yxati beriladi: (, ,...,);

Bu yerda har bir - funksiya tanasiga uzatiladigan va keyinchalik hisoblash jarayonida ishlataladigan o‘zgaruvchi, ifoda yoki o‘zgarmasdir. Argumentlar ro‘yxati bo‘sh bo‘lishi mumkin.

Funksiyalar ham o‘z tanasida boshqa funksiyalarni, o‘zini ham chaqirishi mumkin. O‘z tanasida o‘zini chaqiradigan funksiyalarga rekursiv funksiyalar deyiladi.

Dastur kodi:

```
#include <iostream>
#include <math.h>
using namespace std;
bool mukammal (int s){ int s1=0;
    for(int i=1;i<=s/2;i++){
        if(s%i==0)
            s1=s1+i;
    }
    if(s==s1) return 1;
    else return 0;
}
int main() { int A,B;
cout<<"A:="; cin>>A;
cout<<"B:="; cin>>B;
cout<<"\nA va B sonlari orasida joylashgan mukammal sonlar quyidagilar ";
for(int i=A;i<=B;i++){
if(mukammal(i))
cout<<i<<" : ";
}
return 0;
}
```

Mashg‘ulotini bajarish bo‘yicha topshiriqlar

1) Topshiriqqa muvofiq funksiyaga doir bo‘lgan masalalarni yechish lozim.

13 – jadval

1	a) Berilgan sonni kubini topadigan funksiya yarating. Ushbu funksiya yordanida a,b,c,d sonlarini kubini hisoblang. b) Berilgan ikkita sonni “do‘st son” larga tekshiradigan funksiya yarating. Ushbu funksiya yordamida a va a1, b va b1, c va c1 sonlarini o‘zar do‘stlikka tekshiring. Izoh: do‘st sonlar deb birinchi sonning bo‘luvchilari yig‘indisi ikkinchi sonni, ikkinchi sonni bo‘luvchilari soni birinchi sonni tashkil qilgan sonlar juftiga aytildi.
2	a) Berilgan parametrlar asosida uchburchakning yuzasini topadigan funksiya yarating. Ushbu funksiya yordamida a1,b1,c1 va a,b,c parametrli uchburchaklarning yuzasini hisoblang. b) Berilgan a va b sonlar ichidan do‘st sonlarni ekranga chop qiladigan dastur yarating. Ushbu dastur uchun do‘st sonlar funksiyasidan foydalaning. Izoh: do‘st sonlar deb birinchi sonning bo‘luvchilari yig‘indisi ikkinchi sonni, ikkinchi sonni bo‘luvchilari soni birinchi sonni tashkil qilgan sonlar juftiga aytildi.
3	a) Berilgan sonni 4 darajasini topadigan funksiya yarating. Ushbu funksiya yordanida a,b,c,d sonlarini 4 darajasini hisoblang. b) Berilgan sonni tublikka tekshiradigan funksiya yarating. Bu funksiya yordamida a,b,c,d sonlarini tub songa tekshiring.
4	a) Berilgan k sonini q darajasini topuvchi funksiya yarating. Ushbu funksiya yordamida a ning b-darajasini va c ning d-darajasini toping. b) Berilgan a va b sonlari orasidagi tub sonlarni topuvchi dastur yarating. Ushbu dasturni yaratish uchun tub funksiyasini yaratib undan foydalaning.
5	a) Berilgan parametrlar asosida to‘g‘ri burchakli uchburchakning yuzasini va radiuslarni(ichki chizilgan va tashqi chizilgan aylana) topuvchi funksiya yarating. Ushbu funksiya yordamida a va b katetga, hamda c1 gipotenuza va b1 katetga ega bo‘lgan uchburchaklarni hisoblang. b) Berilgan a va b sonlar orasidagi tub sonlarning o‘rtalari arifmetik qiymatini hisoblang. Buning uchun tub sonlar funksiyasi hosil qiling.

6	a) To‘g‘ri to‘rtburchakning yuzasini topadigan funksiya yarating. Ushbu funksiya yordamida a va b, a1 va b1 tomonga ega bo‘lgan to‘g‘ri to‘rtburchakning yuzasini toping. b) Haqiqiy sonning ishorasini aniqlovchi ishora nomli funksiya hosil qiling. Funksiya argumenti noldan kichik bo‘lsa -1; noldan katta bo‘lsa 1; nolga teng bo‘lsa 0 qiymat qaytarsin. Haqiqiy a va b sonlari uchun ishora(a)+ishora(b) ifodasi hisoblang.
7	a) Kvadratning yuzini va perimetrini hisoblovchi funksiya yarating. Ushbu funksiya yordamida a,b,c,d tomonga ega bo‘lgan kvadratni hisoblang. b) Kvadrat tenglamaning izdizlar sonini va ildizlarini aniqlovchi funksiya hosil qiling.
8	a) Doiranining yuzini hisoblovchi funksiya hosil qiling. Bu funksiya yordamida 3 ta doira yuzini hisoblang. b) n va m natural soni berilgan. Shu sonlar EKUBini topuvchi funksiya yarating. Ushbu funksiya yordamida a va a1, b va b1 sonlari uchun EKUB ni toping.
9	a) n natural soni berilgan. 2 ning n chi darajasini hisoblovchi daraja nomli funksiya hosil qiling. Matematik funksiyalardan foydalanmang. Daraja funksiyasini 2 xil ko‘rinishda ishlab chiqing.Funksining prototipi quyidagicha bo‘lsin: void daraja(int , int *) int daraja(int) b) n va m natural soni berilgan. Shu sonlar EKUKini topuvchi funksiya yarating. Ushbu funksiya yordamida a va a1, b va b1 sonlari uchun EKUK ni toping.
10	a) 2 ta sonning o‘rta arifmetigi va geometrigini hisoblovchi funksiya hosil qiling. Ushbu funksiya orqali a,b,c,d sonlaridan (a,b),(a,c),(a,d) juftliklarining o‘rta arifmetigi va geometrigini hisoblang. b) Berilgan sekundni soat minut sekund ko‘rinishida chiqaradigan funksiya yarating. Ushbu funksiya yordamida t1,t2,t3 vaqtlarni hisoblang. M: 3723 sekund berilsa, natija 01:02:03
11	a) Berilgan sonni factorialini hisoblaydigan funksiya yarating. Ushbu funksiya yordamida a,b,c funksiyalarini factorialini hosil qiling. b) Palindrom funksiyasini hosil qiling. Ushbu funksiya yordamida a,b,c sonlarini palindromlikka tekshiring
12	a) x va y butun solari berilgan. x,y nuqta qaysi chorakda joylashganligini aniqlovchi funksiya hosil qiling. Ushbu funksiya yordamida x1 va y1, x2 va y2 nuqtalar joylashgan chorakni aniqlang. b) Arifmetik amallarni bajaruvchi hisoblash(int a,int b,char amal) funksiyasini hosil qiling. Ushbu funksiya yordamida a va b, a1 va b1 sonlari uchun arifmetik amallarni hisoblang.
13	a) Berilgan radiusdan foydalanib aylananing uzunligini va doiranining yuzasini hisoblovchi funksiya yarating.Ushbu funksiya asosida r,r1,r2 radiuslar asosida hisoblang. b) Berilgan sonning raqamlar yig‘indisini hisoblovchi funksiya hosil qiling. Bu funksiya yordamida a,b,c sonlarini raqamlar yig‘indisini hisoblang.
14	a) Berilgan sonning n –o‘rinda turgan raqamini qaytaradigan funksiya hosil qiling.Bunda agar berilgan son n ta xonadan iborat bo‘lmasa 0 qaytarsin. Ushbu funksiya yordamida a,a1,a2 sonlarining n xonadagi raqami aniqlansin. b) Dastlabki n ta fibonachchi sonlarini chiqaradigan funksiya hosil qiling.
15	a) Berilgan sanadan boshlab yangi yilga qadar qancha muddat qolganini topuvchi funksiya hosil qiling. Ushbu funksiya yordamida day1,day2 kundan yangi yilgacha qancha muddat qolganini hisoblang. b) Berilgan kundan keyingi kunni chiqaruvchi funksiya hosil qiling. Ushbu funksiya yordamida day1, day2,day3 larni hisoblang.
16	a) Berilgan kundan oldingi kunni chiqaruvchi funksiya hosil qiling. Ushbu funksiya yordamida day1, day2,day3 larni hisoblang. b) Kiritilgan yil kabisa yili yoki kabisa yili emasligini aniqlovchi funksiya hosil qiling. Izoh: Kabisa yilda 366kun mavjud, ya’ni 29-fevral bor bo‘ladi.

6. MASSIVLAR BILAN ISHLASH

Ishdan maqsad. C++ dasturlash Ko‘p o‘lchovli massivlar bilan ishlash. Ular ustida amallar bajarishni o‘rganish

Nazariy qism.

Massiv – bu bir toifali, chekli qiymatlarning tartiblangan to‘plamidir. Massivlarga misol qilib matematika kursidan ma`lum bo‘lgan vektorlar, matritsalarni ko‘rsatish mumkin.

Massivlar odatda bir o‘lchovli va ko‘p o‘lchovli turlarga bo‘linadi.

Massiv bir o‘lchamli deyiladi, agar uning elementiga bir indeks orqali murojat qilish mumkin bo‘lsa.

C\C++ dasturlash tillaridagi massiv elementlar indekislari har doim noldan boshlanadi (birdan emas). Bizga char tipidagi m nomli massiv berilgan bo‘lsin. U 3 ta elementdan tashkil topgan bo‘lsin.

m[0] → -9 ;

m[1] → 15;

m[2] → 3;

Demak, elementga murojat qilish uchun massiv nomi va [] qavslar ichida element indeksi yoziladi.

Bu yerda birinchi element qiymati -9, ikkinchi element – 1 nomerli indeksda -15 qiymati bor ekan. Oxirgi element indeksi n-1 bo‘ladi (n-massiv elementlari soni). [] qavs ichidagi indeks butun son yoki butun songa olib keluvchi ifoda bo‘lmog‘i lozim. Masalan:

int n=6, m=4;

L[n-m]=33; // L[2]=33;

Cout<<m[2]; // ekranda : 3;

Massiv elementlariga murojaat qilish oddiy o‘zgaruvchilarga murojat qilishdan biroz farq qiladi. Massiv elementiga murojat qilish indeksi orqali bo‘ladi.

a[1] = 5; Bunda a massivning indeksi 1 bo‘lgan elementi 5 qiymat o‘zlashtirilsin.

cin>>a[2]; Bunda a massivning elementi 2 bo‘lgan elementi kiritilsin;

cout<<a[3]; Bunda a massivning indeksi 3 bo‘lgan elementi ekranga chiqarilsin;

Bir o‘lchamli massivlarni e’lon quyidagicha bo‘ladi:

<Toifa> <massiv_nomi> [elementlar_soni] = { boshlang‘ich qiymatlar };

1)float a[5], 2) int b[6], 3) boll c[7];

1) a elementi haqiqiy sondan iborat bo‘lgan, 4 ta elementdan tashkil topgan massiv. Indekslari esa 0 dan 3 gacha bo‘lgan sonlar.

14-jadval

Float a[5]					
Massiv elementlari	a [0]	a [1]	a [2]	a [3]	a [4]
qiymati	4	11	-8	12	122

2) b elementi butun sondan iborat bo‘lgan, 6 ta elementdan tashkil topgan massiv. Indekslari esa 0 dan 5 gacha bo‘lgan sonlar.

15-jadval

int a[6]						
Massiv elementlari	a [0]	a [1]	a [2]	a [3]	a [4]	a [5]

qiymati	2	99	-5	28	112	54
---------	---	----	----	----	-----	----

3) c elementlari mantiqiy qiymatlardan (true, false) iborat bo‘lgan 7 ta elementdan tashkil topgan massiv. Indekslari esa 0 dan 6 gacha bo‘lgan sonlardir.

Massivni e`lon qilishda uning elementlariga boshlang‘ich qiymat berish mumkin va buning bir necha usuli mavjud.

1) O‘lchami ko‘ratilgan massivni to‘liq initsializatsiyalash. int k[5] = { 2, 15, -9, 45, 3, 7};

Bu yerda 5 ta elementdan iborat k massivi e`lon qilingan va massivning barcha elementlariga boshlang‘ich qiymat berilgan.

2) O‘lchami ko‘rsatilgan massivni to‘liqmas to‘liqmas initsializatsiyalash. int k[5] = { 2, 15, -9};

Bu yerda 5 ta elementdan iborat bo‘lgan k massivi e`lon qilingan va dastlabki 3 ta elementlariga boshlang‘ich qiymat berilgan.

3) O‘lchami ko‘rsatilmagan massivni to‘liq initsializatsiyalash. int k[] = { 2, 15, -9, 45, 3, 7};

Shuni takidlash lozimki, agar massiv o‘lchami ko‘rsatilmasa, uni to‘liq initsializatsiyalash shart. Bu xolda massiv o‘lchami kompilyatsiya jarayonida massiv elementlar soniga qarab aniqlanadi. Bu yerda massiv o‘lchami 5 ga teng.

4) O‘lchami ko‘rsatilgan massivning barcha elementlariga boshlang‘ich qiymat 0 berish. int k[5] = { 0 }; Masalan: 1-misol. O‘lchami ko‘rsatilgan massivning barcha elementlariga boshlang‘ich qiymat 0 berish.

```
#include<iostream.h>
int main (){
    int k[5]={0}; // massivning barcha elementlariga 0 qiymat berish.
    for (int i=0; i<5; i++)
        cout<<"k["<<i<<"]="<<k[i]<<endl;
    return 0;
}
```

Ekranga quyidagicha natija chiqadi:

```
C:\Users\Zahridin\Desktop\ddgdf.exe
k[0]=0
k[1]=0
k[2]=0
k[3]=0
k[4]=0
Для продолжения нажмите любую клавишу . . .
```

2-misol. O‘lchami ko‘rsatilgan massivni to‘liq initsializatsiyalash.

```
#include<iostream.h>
int main (){
    int k[5] = { 2, -9, 112, 3, 8 };
    for (int i=4; i>=0; i--) // indekslarini teskari tartibda chop etish.
        cout<<"k["<<i<<"]="<<k[i]<<endl;
    return 0;
}
```

Ekranga quyidagicha natija chiqadi:

```
k[4]=10
k[3]=3
k[2]=112
k[1]=-9
k[0]=2
Для продолжения нажмите любую клавишу . . .
```

3-misol. n o‘lchamli butun sonlardan iborat massiv berilgan. Bu massivning toq elementlarini indekslarini o‘sib borish tartibida chop etish va toq elementlar sonini hisoblash dasturi tuzilsin.

```
#include<iostream>
int main () {
    int k[100];
    int i,n,s;
    cout<<" sonini kiritинг="; cin>>n;
    for ( i=1; i<=n; i++)
        cin>>k[i]; s=0;
    for (i=1; i<=n; i+=2) {
        cout<<"k["<<i<<"]="<<k[i]<<endl;
        i++;
    }
    cout<<"soni"<<" "<<"->"<<" "<<s<<" "<<"ta"<<endl;
    system("pause");
    return 0;}
```

Ekranga quyidagicha natija chiqadi:

```
sonini kiritинг=5
4
89
56
-7
2
k[1]=4
k[3]=56
k[5]=2
soni -> 3 та
Для продолжения нажмите любую клавишу . . .
```

7. KO‘P O‘LCHOVLI MASSIVLAR BILAN ISHLASH

Ishdan maqsad. C++ dasturlash Ko‘p o‘lchovli massivlar bilan ishlash. Ular ustida amallar bajarishni o‘rganish

Nazariy qism. C++ tilida massivlar elementining turiga cheklovlari qo‘yilmaydi, lekin bu turlar chekli o‘lchamdagisi obyektlarning turi bo‘lishi kerak. Chunki kompliyator massivning hotiradan qancha joy (bayt) egallashini xisoblay olish kerak. Xususan, massiv komponentasi massiv bo‘lish mumkin (“vektorlar - vektori”), natijada matritsa deb nomlanuvchi ikki o‘lchamli massiv xosil bo‘ladi.

Agar matritsaning elementi xam vektor bo‘lsa, uch o‘lchamli massivlar - kub xosil bo‘ladi. Shu yo‘l bilan yechilayotgan masalaga bog‘liq ravishda ixtiyoriy o‘lchamdagisi massivlarni yaratish mumkin.

Ikki o‘lchamli massivda birinchi indeks satrlar sonini, ikkinchisi esa ustunlar sonini bildiradi.

Birinchi satrning dastlabki elementi a_{10} – a biri nol element deb o‘qiladi. a o‘n deyilmaydi. M ta satr n ta ustunga ega bo‘lgan massivga ($m \times n$) o‘lchamli massiv deyiladi. Agar $m=n$ (satrlar va ustunlar soni teng) bo‘lsa kvadrat massiv deyiladi. Ikki o‘lchamli massivning sintaksi quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi: <tur><nom>[<uzunlik>][<uzunlik>]

Masalan, 10×20 o‘lchamli xaqiqiy sonlar massivning e`loni: Float a[10][20]; E`lon qilingan a matritsa ko‘rinishi quyidagicha ko‘rinishda bo‘ladi.

J

a_[0]: (a_{[0][0]}, a_{[0][2]}, ..., ..., a_{[0][18]}, a_{[0][19]},)
a_[1]: (a_{[1][0]}, a_{[1][1]}, ..., ..., a_{[1][18]}, a_{[1][19]},)

i a_[i]: (... , ..., ..., a_{[i][j]} ..., ...,)

a_[9]: (a_{[9][0]}, a_{[9][1]}, ..., ..., a_{[9][18]}, a_{[9][19]},).

Ikki o‘lchamli massivning hotirada joylashuvi. Endi adres nuqtayi - nazaridan ko‘p o‘lchamli massiv elementlariga murojat qilishni ko‘raylik. Quyidagi elonlar berilgan bo‘lsin:

Int a[3][2];

Float b[2][2][2];

Birinchi elonda ikki o‘lchamli massiv, yani 2 ta satr va 3 ustundan iborat matritsa e`lon qilingan, ikkinchisida uch o‘lchamli - 3 ta 2x2 matritsadan iborat bo‘lgan massiv e`lon qilingan. Uning elementlariga murojat sxemasi:


Adres ko‘rsatkichlar massivi

16-jadval

b	→	a[0]	a[1]	a[2]			
		↖	↘	↘	qiymatlar		
		a[0][0]	a[0][1]	a[1][0]	a[1][1]	a[2][0]	a[2][1]

Ikki o‘lchamli massiv elementlariga murojat; Bu yerda a[i] ko‘rsatkichida i-chi satrning boshlang‘ich adresi joylashadi, massiv elementiga a[i][j] ko‘rinishidagi asosiy murojattidan tashqari vositali murojat qilish mumkin: *(*(a+i)+j) yoki *(a[i]+j).

Uch o‘lchamli massivning xotirada tashkil bo‘lishi:



Massiv elementlariga murojat qilish uchun nomdan keyin kvadrat qavsda har bir o'lcham uchun indeks yozilishi kerak, masalan $b[i][j][k]$. Bu elementga vositali murojat xam qilish mumkin va uning variantlari: $\ast(\ast(\ast(b+i)+j)+k)$ yoki $\ast(\ast(b[i]+j)+k)$ yoki $\ast(b[i][j]+k)$;

Ko'p o'lchovli massivlarni initsializatsiyalash

Int a[2][3] = {2, 6, 8, 7, 12, 5};

Int b[3][3] = {{2, 6, 8}, {7, 12, 5}, {20, 21, 22}};

Birinchi operatorda boshlang'ich qiymatlar ketma – ket yozilgan, Ikkinci operatorda qiymatlar guruhlangan. Misollar:

1-misol. M o'lchamli kvadrat matrisa berilgan. Bu massivning elementlarini spiral shaklida chop etish dasturi tuzilsin: avval oxirgi ustun, keyin oxirgi qator teskari tartibda, keyin birinchi ustun teskari tartibda, keyin birinchi qator. Ichki elementlar ham shu tartibda chop etiladi. Eng oxirida matrisaning markaziy elementi chop etiladi.


#include <iostream>
chiqadi:

```
using namespace std;
int main(){
    short k,i,j,m,x,y,z,w;
    float a[100][100];
    cin>>m;
    for(i=1;i<=m;i++)
        for(j=1;j<=m;j++)
            cin>>a[i][j];
    x=m; y=m; z=1; w=1;
    for(k=1;k<=m/2;k++){
        for(i=z;i<=x;i++) cout<<"a["<<i<<"]["<<x<<"]="<<a[i][x]<<endl;
        for(j=y-1;j>=w;j--) cout<<"a["<<y<<"]["<<j<<"]="<<a[y][j]<<endl;
        for(i=x-1;i>=z;i--) cout<<"a["<<i<<"]["<<z<<"]="<<a[i][z]<<endl;
        for(j=w+1;j<=y-1;j++) cout<<"a["<<w<<"]["<<j<<"]="<<a[w][j]<<endl;
        x--;y--;z++;w++; } // bu dastur toq sonlar uchun ham
```

o'rinni

```
if(m%2==1)
    cout<<"a["<<m/2+1<<"]["<<m/2+1<<"]="<<a[m/2+1][m/2+1]<<endl;
    system ("pause");
return 0; }
```

2-misol. Berilgan mxn o'lchamli matrisaning bosh diagonalni elementlarini nollarga aylantirish dasturi tuzilsin.



```

#include<iostream.h>
int main (){
int k[100][100];
int i,j,n,m;
cout<<" sonini kiritin= "; cin>>n>>m;
for ( i=1; i<=n; i++)
for ( j=1; j<=m; j++)
cin>>k[i][j];
for ( i=1; i<=n; i++)
for ( j=1; j<=m; j++){
if (i==j) k[i][j]=0;
cout<<"k["<<i<<"]["<<j<<"]="<<k[i][j]<<endl; }
return 0; }

```

Ekranga quyidagicha natija chiqadi:

Mashg‘ulotini bajarish bo‘yicha topshiriqlar

Topshiriqqa muvofiq massivlarga doir bo‘lgan masalalarini yechish lozim.

18 – jadval

1.	12 ta elementdan iborat $\{a_k\}: 2,5; 4,3; -1; 2,75; 3,55; 10,48; 11; 9,8; 12; 10,5; 15,6; 18$. “a” massiv berilgan. b- nomli massivning har bir elementini $b_k = e^{ak-k}$, ($k = 1, 2, \dots, 12$). formula yordamida hosil qiling va chop eting.
2.	Berilgan $\{a_j\}, j = 1, 2, \dots, 10$ massivda bitta bo‘lsa ham manfiy element bor. Birinchi manfiy elementgacha bo‘lgan sonlarning ko‘paytmasini hisoblang. Boshlang‘ich ma’lumotlar: 3,8,17,-10,-16,-1,5,8,9,10.
3.	$\{z_n\}: 0,1; 7,5; 1,1; 0,26; 0,13; 14; 2,5; 8; 0,75; 0,01; 3,4$. massiv berilgan. $\{y_n\}$, $y_n = \frac{z_n}{\lg z_n}$ ($n = 1, 2, \dots, 11$) formulaga binoan yangi massiv hosil qiling va chop eting.
4.	$a\{5,75; -6; 3,4; -2,5; 3,6; \}, b\{-3,4; -0,5; 8,45; 4,3; 5,6\}$ Sonli ikkita massiv berilgan. $c_i = \frac{a_i + b_i}{a_i^2 * \sqrt{b_i}}$ ($i = 1, 2, \dots, 5$) formulasiga asoslanib, yangi S-nomli massivni hosil qiling va massiv elementlari kvadratlarining yig‘indisini hisoblang. Natijani chop eting.
5.	Berilgan $\{x\}: -3,5; 7,4; 1,56; 81; 40; -0,15; 20; -4,75; 60; 37,5$. massivdan quyidagi formula asosida $y_i = \sqrt{ x_i }$ ($i = 1, 2, \dots, 10$) massiv hosil qiling va ustun ko‘rinishda chop eting.
6.	8 ta elementdan ibotat A –nomli massivning eng kichik elementi va uning indeksini aniqlash dasturini tuzing. Massivning boshlang‘ich qiymatlari: -3, -7, 8, 10, -75, 128, 7, 10.

7.	Berilgan $\{b_i\}: 3,5; -0,66; 4,3; 0,005; 0,6; -740; 73; 1; 2,5$ massivdan $z_i = \sqrt{b_i^2}$ ($i = 1, \dots, 9$) formulasi yordamida $\{z_i\}$, massivini hosil qiling va chop eting.
8.	$\{a_j\}, j = 1, \dots, 8$ massivda bitta bo'lsa ham manfiy element bor. Massivning birinchi manfiy elementigacha joylashgan elementlari yig'indisini hisoblash dasturini tuzing. Boshlang'ich ma'lumotlar: 3, 10, -8, 7, -6, 16, 13, 20.
9.	$\{c_i\}: 0,5; 3,14; 2,34; 75; 4,25; -7,6$. massiv radianlarda berilgan. Shu massiv asosida yangi y nomli massivini (har bir element $y_i = \sqrt{12 \sin c_i}$ formula yordamida hosil qilinadi) hisoblash va chop etish dasturini tuzing.
10.	$\{a_j\} (j = 0, \dots, 7)$ massivda bittagina bo'lsa ham nolga teng elementi mayjud. Ushbu massivning qiymati nolga teng bo'lgan birinchi elementgacha bo'lgan elementlarning yig'indisini hisoblash dasturini tuzing. Boshlang'ich ma'lumotlar: 1, 17, 2, 4, -5, 0, 7, 8.
11.	$\{a_k\}: 9,6; 3,24; -2; 1; 20; 50; 36,7$. massiv qiymatlari radianlarda berilgan. $\{y_k\}$ massivning har bir elementini $y_k = k * \cos a_k$ formulasi yordamida hisoblang. Ekranga $\{a_k\}$ va $\{y_k\}$, ($i = 0, 1, 2, \dots, 6$). massivlarni jadval ko'rinishda chop eting.
12.	O'nta butun sonlardan iborat $\mathbf{a} = \{1, 2, 3, 4, 5, 4, 9, 12, 8, 13, 17\}$ massivi berilgan. \mathbf{B} nomli massivni quyidagi formula yordamida hosil qiling va chop eting: $b_i = i * a_i$, ($i = 1, \dots, 10$).
13.	$\{z_j\} := \{0,5; 1,45; 7; 1; -2; -3; 4,5; -0,7\}$ massiv berilgan. Har bir element $b_i = tg(2^{z_i})$ formulasi yordamida topiladigan $\{b_i\}$, massivini hosil qiling va satr ko'rinishida chop eting.
14.	$\mathbf{a} = \{5; 9; -1; -8; 3; -6\}$, $\mathbf{b} = \{-3,4; 5; 7; 6,8; 9,3; 1,2\}$ ikkita massiv berilgan $c_i = (a_i - b_i) / (a_i * b_i)$ formula asosida s nomli massiv hosil qiling, uning eng katta elementini toping va chop eting.
15.	$\{y_i\} = \{2; -0,4; 3,14; -1,57; 11; 7,34; -2,6; 0; -1; 2\}$ massiv radianda berilgan. $c_i = 3^{\cos y_i} * i$, ($i = 0, 1, 2, \dots, 10$) formula asosida aniqlanadigan $\{c_i\}$, massivini tashkil eting va chop eting.
16.	Musbat va manfiy elementlardan tashkil topgan $\mathbf{z} = (10; -5; -8; -6; 17; 25; 31; 10; 12; 38)$, ($j = 1, \dots, 10$) massivi berilgan. Massivning musbat elementlari soni va ularning indekslarini chop etish dasturini tuzing.

Massivlarga doir masalalar

19- jadval.

1.	Berilgan $(1,5; -0,8; -3,1; 10; 7,34; 0,135; 12,8)$ massiv uchun $\mathbf{x} = \frac{1}{n} \sum_{i=1}^n \mathbf{x}_i$ ($i = 0, \dots, 6$) formula asosida x ning o'rta arifmetik qiymatini toping.
2.	$\mathbf{a} = \{-5,25; 17,18, 28\}$, $\mathbf{b} = \{-17, -8, 10, 12, 23\}$ nomli ikkita massiv berilgan. $c_i = a_i + b_i$ ($i = 0, 1, 2, \dots, 5$). Qoidasi asosida yangi s nomli massivni va uning eng kichik sonini toping. Massivni ekranga chiqaring.
3.	$\mathbf{a} = \{1,2; 1,7; 3,5; 1,6; 4,9; 2,1\}$, $\mathbf{b} = \{9,2; 7,8; 8,3; 3,5; 5,7; 7,3\}$ ($i = 1, \dots, 6$). ikkita massiv berilgan. $\mathbf{x}_i = \frac{a_i + b_i}{3} - \frac{1}{4} \sqrt{a_i b_i}$ formula asosida X massivini hosil qiling va chop eting.
4.	$\mathbf{X} = \{1; 0; 1,4; 2; 6; 8,4; 16,2; 9,1; -3,6; -2,8; -1,0; 0,6; -1,2\}$ vektor berilgan. $1,5 < X_i < 3,9$ shartni qanoatlantiruvchi vektor elementlarining ko'paytmasini hisoblang va chop eting.

5.	$Z = \{-0,75; 3,2; 45,8; -28; 4,7; 28,7; -0,5; 37\}$ massiv berilgan. $a_j = \sin^2(Z_i) + 1 (j=1, 2, \dots, 8)$ formulasi yordamida $\{a_i\}$ massivni hosil qiling va satr ko'inishida chop eting.
6.	Musbat va manfiy elementlарlardan iborat $Y = \{-5,1; 18; 75; 0,1; -17; 2,5; 6,35; 17,8\}$ massiv berilgan. Massivning manfiy elementlarining ko'paytmasini hisoblang va chop eting.
7.	d_k massiv elementlari radianlarda $d_k = \{13,8; -2,3; 45,17; -3,8; 12; 0,08; -8,3\}$ berilgan. Har bir elementi $h_k = 1 + \cos d_k, (k=1, 2, \dots, 10)$ formula yordamida aniqlanadigan h_k massivini hosil qiling va satr ko'inishida chop eting.
8.	$\{x_j\}, i = 1, \dots, 8$ massivida uchdan katta bo'lgan elementlarning sonini aniqlang. Boshlang'ich ma'lumotlar: $-5,1; 18,75; 0,1; -17,1; 2,5; 6,35; 17,8$.
9.	$p=1, \dots, 50; x = 0,3$ bo'lganda $u = \sin(px) - \cos(px)$ funksiyaning musbat elementlarini chop eting.
10.	Agar a_i massivining elementlari $a_i = (-3,5; 4,25; 3,1; -7,5; 8,3; -11,4; -13,5; 9,6)$ bo'lsa, $a_i = \begin{cases} a_i & , \text{если } a_i > 0 \\ 0 & , \text{если } a_i \leq 0 \end{cases}$, formulaga asosan ushbu massivni qayta hosil qiling va chop eting.
11.	$0 < y_i < 1$ shartni qoniqtiradigan $(-0,5; 3,4; 1,4; 0,35; -7,5; 1,2; 0,25)$ sonli massiv elementlarini va uning indeksini chop eting.
12.	$X(5,4; 2,3; -4,6; 7,8; -3,4; 25,6)$, massivining elementlarini Y massivida teskari tartibda qayta yozing.
13.	N massiviga $(4,5; -3,1; 7,8; -5,6; -2,3; 6,8)$ massivning musbat elementlarini yozing.
14.	$X_j = (-14,5; 3,2; 6,8; -4,3; 11,2; 5,6; -7,8)$ massivining juft indeksli elementlarini V massivga, toq indeksli elementlarini esa S massivga tartiblab yozing.

20- jadval.

1	$U(K)$ massivi berilgan. $[a, b]$, intervaliga tegishli bo'lgan elementlar sonini aniqlang.
2	$R(N)$ massivi berilgan. D massivga uning maksimal va minimaldan tashqari bo'lgan elementlarni yozing.
3	$X(N)$ massivining o'rta arifmetik va o'rta geometrik qiymatlarini aniqlang. X massivining o'rta arifmetik qiymatidan katta va o'rta geometrik qiymatdan kichik bo'lgan elementlar sonini aniqlang va chop eting.
4	$U(K)$ massivining musbat, toq indeksli elementlarining yig'indisini toping.
5	$Z(K)$ massivining manfiy, juft indeksli elementlarining ko'paytmasini toping.
6	$H(N)$ massivining o'rta arifmetik qiymatidan kichik bo'lgan elementlarining ko'paytmasini toping.
7	$H(N)$ massivining eng katta va eng kichik elementlarini toping va massivda ulardan qaysi biri avval joylashganini aniqlang.
8	Berilgan ikkita $X=(X_1, X_2, \dots, X_n)$ va $Y=(Y_1, Y_2, \dots, Y_n)$ vektorning skalyar ko'paytmasini toping.
9	$X(N)$ massiv berilgan. X massiv elementlarini kamayib borish tartibida joylang.
10	$X(N)$ massivining musbat elementlaridan Y massivini tashkil eting, so'ngra Y massiv elementlarini o'sib borish tartibida yozing.
11	$X(N)$ massivining $X_i > M$, shartini qanoatlantiruvchi elementlar yig'indisini hisoblang. (bunda $M=\max X - \min X$).
12	$Y(K)$ massivdan X massiviga manfiy elementlarni ko'chirib yozing. X massivdagi eng kichik elementni birinchi element bilan o'rnni almashting.
13	$X(N)$ va $Y(K)$ ikkita massiv berilgan. X va Y massivlarining musbat elementlaridan Z massivni tashkil eting. Z massivining maksimal elementini va uning indeksini aniqlang.
14	$X(N)$ massivi berilgan. Uning elementlarni teskari tartibda joylashtiring. Massivning toq indeksli elementlarining ko'paytmasini hisoblang.

15	$X(N)$ massiv berilgan. Uning juft indeksli elementlarni Z massivga ko‘chirib yozing. Z massivdagi maksimal va minimal elementlarining o‘rnini o‘zaro almashtiring.
16	$X(K)$ massiv berilgan. X massivdagi manfiy elementlarni Z massiviga ko‘chirib yozing. Hosil bo‘lgan Z massivini kamayib borish tartibida joylang.

21- jadval.

1	$Z(N)$ massivi berilgan. Y massivni shunday tashkil eting-ki, Y massividan avval musbat, keyin manfiy va nul elementlari joylashsin.
2	Z massividagi manfiy elementlar ko‘paytmasini, hamda yig‘indisini hisoblang.
3	$Z(K)$ massivining maksimal va minimal elementidan boshqa barcha elementlaridan X massivini hosil qiling. X massivining o‘rtalik geometrik qiymatidan kichik bo‘lgan elementlarining sonini toping.
4	$X(N)$ massividagi hamma musbat elementlaridan Z massivini hosil qiling va Z massiv elementlarini kamayib borish tartibida joylang.
5	$X(K)$ massivlari berilgan. X massividagi barcha musbat elementlari indeksidan L massivini hosil qiling.
6	$X(N)$ i $Y(N)$ massivlarining manfiy elementlaridan D massivini hosil qiling. D massiv elementlarini o‘sib borish tartibida joylang. 3 ta minimal elementlarni chop eting.
7	$X(N)$ va $Y(K)$ massivlari berilgan. D massivini shunday tashkil etingki, unda X massivining 3ta va U massivining 4 ta eng katta elementlari yozilgan bo‘lsin. D massivining elementlarining ko‘paytmasini hisoblang.
8	$X(N)$ massivning modul bo‘yicha eng katta elementini toping va uni birinchi elementi bilan o‘rnini almashtiring.
9	$X(N)$ va $Y(N)$ massivning musbat elementlarining yig‘indisini va manfiy elementlarining ko‘paytmasini hisoblang.
10	$X(N)$ va $Y(N)$ massivlari berilgan. $A_i=X_i+Y_i$ formulasi yordamida massiv tashkil eting. A massivning o‘rtalik arifmetik qiymatidan kichik bo‘lgan elementlar sonini, hamda eng katta va eng kichik elementlar orasidagi farqni hisoblang.
11	$X(N)$ biror to‘g‘ri chiziqqa tegishli bo‘lgan nuqtalar koordinatalar to‘plamidan iborat massiv bo‘lsin. Shu massivga tegishli bo‘lgan, qaysi ikki nuqta orasidagi masofa eng katta ekanligini aniqlang.
12	$X(N)$ massivi berilgan. $X(N)$ massivning o‘rtalik arifmetik qiymatini aniqlang va uni massivning birinchi elementi bilan o‘rnini almashtiring.
13	$X(N)$ massivi berilgan. Ularni kamayib borish tartibida $Y(N)$ massiviga joylang. $X(N)$, $Y(N)$ massivlarning modul bo‘yicha eng katta elementining indeksini aniqlang.
14	$Z(N)$ massivi berilgan. Uning elementlarining moduli bo‘yicha o‘sib borish tartibida joylang.

Ko‘p o‘lchovli massivlar

Ishning maqsadi: Darsning nazariy qismini mustahkamlash va ikki o‘lchov massivlar bilan ishslash ko‘nikmalarini hosil qilish.

Massivlar faqatgina bir o‘lchamli emas, balki ko‘p o‘lchamli ham bo‘lishi mumkin. Ko‘p o‘lchamli massivlarni ham ishlatalishdan avval ularni e’lon qilish kerak. Ularga murojaat qilish uchun indexlar ishlataliladi. Ikki o‘lchovli massivlar matematikada matritsa yoki jadval tushunchasiga mos keladi. Ikki o‘lchovli massivning elementlari massivlardan iborat bo‘lgan bir o‘chovli massiv ta’rifiga asoslangandir.


Masala: Kvadrat matritsa berilgan matritsani asosiy diogonal elementlarini yig‘indisini topadigan dastur tuzing.


Masalani yechish algoritmi: Avval matritsa uchun xotiradan joy ajratiladi va qiyomatlar ekranidan kiritiladi. Matritsani diagonal elementlarini topish uchun qonuniyatni topish kerak bo‘ladi.

$$\begin{array}{ccc} a_{00} & a_{01} & a_{02} \\ a_{10} & a_{11} & a_{12} \\ a_{20} & a_{21} & a_{22} \end{array}$$

Agar e’tibor berib qaralsa, asosiy diagonal elementlari (a_{00}, a_{11}, a_{22}) bir biriga tengligi ko‘rinib turibdi. Demak, ular bir biriga tengligi tekshirilishi kerak. Bundan masalaning yechimi kelib chiqadi.

22-jadval

1.	float B[n][n]; Qo‘sishimcha matrisadan foydalanmagan holda B matritsaning transponerlangan ko‘rinishi B^T hosil qilinsin.
2.	n natural soni va 5- tartibli haqiqiy turdag'i kvadrat matritsa berilgan. Bu matritsaning n- darajasi topilsin ($A^1=A$, $A^2=AA$, $A^3=A^2A$ va hokazo).
3.	float nuqta[n][2], d; Matritsaning satr elementlarini tekislikdagi nuqtalarining koordinatalari deb qarab, shu nuqtalar orasidagi eng katta masofa topilsin.
4.	float A[9][9], s; A matritsaning quyidagi rasmdagi bo‘yagan sohalardagi elementlari yig‘indisi s topilsin.
	 a) b) c) d) e)
5.	int A[10][10],B[9][9]; int n,k; // $0 \leq n \leq 10; 0 \leq k \leq 10$; Berilgan A matritsaning n- satri va k- ustunini o‘chirish orqali B matritsa hosil qilinsin.
6.	k, S[n][m]; S matritsaning ”maxsus” elementlar soni - k aniqlansin. Element ”maxsus” deyiladi, agar u o‘zi joylashgan ustundagi boshqa elementlar yig‘indisidan katta va o‘zi joylashgan satrda chapdagi elementlardan katta, o‘ngdagilaridan esa kichik bo‘lsa.
7.	int k; Berilgan C matritsadagi har xil belgilar soni - k aniqlansin (takrorlanuvchi belgilar bitta deb hisoblansin).
8.	5 ta satr va 7 ta ustundan iborat haqiqiy turdag'i matritsa berilgan. Uning satrlari kamaymaydigan ko‘rinishda tartiblansin.
9.	O‘lchami 10×5 bo‘lgan haqiqiy turdag'i matritsa berilgan. Matritsa satrlarining eng katta elementlari o‘sishi bo‘yicha tartiblansin.
10.	Matritsaning elementi egar nuqta deyiladi, agarda u bir vaqtning o‘zida shu element joylashgan satrdagi eng kichigi va ustundagi eng kattasi bo‘lsa yoki aksincha. 10×15 o‘lchamli butun turdag'i matritsaning egar nuqtasi indeksi chop etilsin.
11.	Elementlari bir-biriga teng bo‘lmagan haqiqiy turdag'i 7- tartibli kvadrat matritsa berilgan. Eng katta elementi joylashgan satrning eng kichik elementi joylashgan ustunga ko‘paytmasi topilsin.
12.	Butun turdag'i 10- tartibli kvadrat matritsa ortonormal yoki yo‘qligi aniqlansin. Matritsa ortonormal deyiladi, agar turli satrlari skalyar ko‘paytmasi 0 ga teng va satrni o‘z-o‘ziga ko‘paytmasi 1 ga teng bo‘lsa.
13.	Natural n soni va $n \times n$ o‘lchamli haqiqiy turdag'i A matritsa berilgan. Quyidagi formula yordamida A matritsaga teskari matritsasi topilsin: $A_k^{-1} = A_{k-1}^{-1} (2E - A * A_{k-1}^{-1})$, bu yerda A – berilgan matritsa; E – birlik matritsa; A_k^{-1} – teskari matritsaning k- yaqinlashishi, $A_0^{-1} = E$. Teskari matritsa berilgan $\varepsilon (\varepsilon > 0)$ aniqlikda hisoblansin.

14.	Natural n soni va butun turdag'i n-tartibli kvadrat matritsa berilgan. Matritsa elementlari monoton ketma-ketlik hosil qiluvchi (monoton kamayuvchi yoki o'suvchi) satrlari nomerlari topilsin.	
15.	Butun turdag'i n-tartibli kvadrat matritsaning absolyut qiymati bo'yicha eng katta elementlari toplisin. Shu elementlar joylashgan ustun va satrlarni o'chirish orqali yangi matritsa qurilsin.	
16.	Natural n soni va elementlari faqat 0, 1, 2 va 3 sonlaridan tashkil topgan n-tartibli A matritsa berilgan. Elementlari har xil sondan iborat barcha $a_{i,j}, a_{i,j+1}, a_{i+1,j}, a_{i+1,j+1}$ to'rtliklar miqdori topilsin.	
17.	Haqiqiy turdag'i 9-tartibli kvadrat matritsa berilgan. Shunday matritsa hosil qiling-ki, bunda boshlangich matritsadagi mos element o'z satridagi diagonal elementdan kichik bo'lmasa bir, aks holda nol qiymat qabul qilsin.	
18.	float A[n][n], b[n], c[n]; Simmetrik matritsa o'ng uchburchagi $(n+1)*n/2$ elementlari bilan berilgan. Matritsaning 1-satridan n-element, 2-satrdan n-1-element va oxirida n-satrdan 1-element b vektorga yuklanib, $c = A * b$ hisoblansin.	
19.	int A[n][n]; Butun turdag'i A matritsaga 1, 2, ..., 49 sonlarini spiral bo'yicha joylashtirilsin (rasmga qarang).	
20.	int S[n][n]; S matritsaning elementlarini markaz atrofida 90° ga soat millariga teskari yo'nalishda burish bilan qayta aniqlansin.	
21.	int S[n][m]; S matritsaning lokal minimumlari chop etilsin. Matisaning s_{ij} elementi lokal minimum deyiladi, agar u o'z atrofidagi barcha elementlardan kichik bo'lsa.	

8. KO‘RSATKICHLAR VA DINAMIK XOTIRA BILAN ISHLASH

Ishning maqsadi: C++ dasturlash tilida ko‘rsatkichlar va dinamik xotira bilan ishlash va uning dasturini yaratish ko‘nikmalarini egallash.

Nazariy qism

Ko‘rsatkich – bu kompyuter xotirasi yacheykasining adresi yozilgan o‘zgaruvchidir. Kompyuter xotirasi nomerlangan yacheykalar ketma-ketligidan iboratdir. Har bir o‘zgaruvchining qiymati uning adresi deb ataluvchi alohida xotira yacheykasida saqlanadi.

Ko‘rsatkichlar ko‘pincha **dinamik xotira** (boshqacha nomi «uyum» yoki «heap») bilan bog‘liq holda ishlatiladi. **Xotiraning dinamik deyilishiga sabab**, bu sohadagi bo‘sh xotira programma ishlash jarayonida, kerakli paytida ajratib olinadi va zarurat qolmaganida qaytariladi (bo‘shatiladi).

Dinamik xotiraga faqat ko‘rsatkichlar yordamida murojaat qilish mumkin. Bunday o‘zgaruvchilar *dinamik o‘zgaruvchilar* deyiladi va ularni yashash vaqtiga yaratilgan nuqtadan boshlab programma oxirigacha yoki oshkor ravishda yo‘qotilgan (bog‘langan xotira bo‘shatilgan) joygacha bo‘ladi.

Masalaning qo‘yilishi: O‘zgaruvchan sondagi parametrлarni tashkil qilish.

Masalani yechish g‘oyasi:

1-usul. Parametrlar ro‘yxati oxirida yana bir maxsus parametr yoziladi va uning qiymati parametrlar tugaganligini bildiradi. Kompilyator tomonidan funksiya tanasida parametrlar birma-bir aniqlashtiriladi. Barcha parametrlar turi oxirgi maxsus parametr turi bilan ustma-ust tushadi deb hisoblanadi;

2-usul. Birorta maxsus parametr sifatida noma’lum parametrlar soni kiritiladi va unga qarab parametrlar soni aniqlanadi. Ikkala usulda ham parametrlarga murojaat qilish uchun ko‘rsatkichlar ishlatiladi.

```
#include "iostream"
using namespace std;
float summa (int k,...)
{ float p=0;
  int *prt=&k;
  if(*prt==0.0) cout<<" 0 ";
  for( *prt; prt++) { p+=*prt;
  }
  return p;
}
int main()
{cout<<"\n "<<summa(10,20,30,40,0.0);
 cout<<"\n "<<summa(1,2,3,4,0.0);
}
```

Vazifa: Quyidagi masalalar uchun dasturlar tuzilsin:

23-jadval

N	Variantlar
1	a sonining 3-darajasini hisoblab, b o'zgaruvchiga uzatadigan $\text{PowerA3}(a,b)$ nomli void turidagi funksiya tasvirlansin (a -kiruvchi, b -chiquvchi parametrler bo'lib, ular haqiqiy turga tegishli). Bu funksiya yordamida berilgan 5 ta sonning 3-darajalari hisoblansin.
2	a sonining 2-, 3-, 4-darajalarini hisoblab, mos ravishda b,c,d parametrlerga uzatadigan $\text{PowerA234}(a,b,c,d)$ nomli void turidagi funksiya tasvirlansin (a -kiruvchi, b,c,d lar chiquvchi parametrler, barcha parametrler haqiqiy turga tegishli). Bu funksiya yordamida berilgan 5 ta sonning har biri uchun 2-, 3-, 4-darajalar hisoblansin.
3	ta x va y musbat sonlarning o'rta arifmetigi va o'rta geometrigini hisoblaydigan $\text{Mean}(x,y)$, Amean , Gmean nomli void turidagi funksiya tasvirlansin (x va y – kiruvchi, Amean va Gmean -chiquvchi parametrler bo'lib, ular haqiqiy turga tegishli). Bu funksiyadan foydalanib a, b, c, d sonlari berilganda $(a,b), (a,c), (a,d)$ juftliklarning o'rta arifmetiklari va o'rta geometriklari hisoblansin.
4	Tomoni a ga teng bo'lган teng tomonli uchburchakning perimetri va yuzasini hisoblovchi $\text{TrianglePS}(a,p,s)$ nomli void turidagi funksiya tasvirlansin (a -kiruvchi, p va s chiquvchi parametrler, barcha parametrler haqiqiy turga tegishli). Bu funksiyadan foydalanib, berilgan a_1, a_2, a_3 qiymatlarda 3 ta teng tomonli uchburchaklarning perimetrlari va yuzalari hisoblansin.
5	Tomonlari koordinata o'qlariga parallel bo'lган hamda qarama-qarshi uchlaringning $(x_1, y_1), (x_2, y_2)$ koordinatalari berilgan to'g'ri to'rtburchakning p perimetri va s yuzasini hisoblaydigan $\text{RectPS}(x_1, y_1, x_2, y_2, p, s)$ nomli void turidagi funksiya tasvirlansin. Bu funksiyadan foydalanib, qarama-qarshi uchlaringning koordinatalari ma'lum, tomonlari koordinata o'qlariga parallel bo'lган 3 ta to'g'ri to'rtburchakning perimetrlari va yuzalari hisoblansin.
6	Butun musbat k sonidagi raqamlar miqdorini va yig'indisini hisoblaydigan $\text{Digitcountsum}(k, n, s)$ nomli void turidagi funksiya tasvirlansin (k -kiruvchi, n va s – chiquvchi parametrler bo'lib, ular butun turga tegishli). Bu funksiyadan foydalanib, berilgan 5 ta butun musbat sonning har biri uchun raqamlari miqdori va raqamlar yig'indisi hisoblansin.
7	Berilgan k butun musbat sonining raqamlarini teskari tartibda joylashtiruvchi (123 -> 321) $\text{InvertDigits}(k)$ nomli void turidagi funksiya tasvirlansin (k butun turga tegishli parametr bo'lib, bir vaqtda kiruvchi va chiquvchi hisoblanadi). Bu funksiyadan foydalanib, berilgan 5 ta butun musbat sonlarning raqamlari teskari tartibda joylashtirilsin.
8	Berilgan butun musbat k sonining o'ng tomonidan "d" raqamni joylashtiradigan $\text{ADDRightDigit}(d, k)$ nomli void turidagi funksiya tasvirlansin (d - kiruvchi parametr, k - bir vaqtda kiruvchi va chiquvchi parametrler bo'lib, ular butun turga tegishli). Bu funksiyadan foydalanib, berilgan n musbat sonining oxiriga d_1 va d_2 raqamlari ketma-ket joylashtirilsin va har bir jarayon natijasi chop etilsin.
9	Berilgan butun musbat k sonining chap tomonidan "d" raqamini joylashtiradigan $\text{ADDLeftDigit}(d, k)$ nomli void turidagi funksiya tasvirlansin (d - kiruvchi parametr, k - bir vaqtda kiruvchi va chiquvchi parametrler bo'lib, ular butun turga tegishli). Bu funksiyadan foydalanib, berilgan k musbat sonining oldidan d_1 va d_2 raqamlari ketma-ket joylashtirilsin va har bir jarayon natijasi chop etilsin.
10	x va y o'zgaruvchilaridagi saqlanayotgan qiymatlarni o'zaro almashtiruvchi $\text{Swap}(x, y)$ nomli void turidagi funksiya tasvirlansin (x, y -haqiqiy turga tegishli parametrler bo'lib, bir vaqtning o'zida kiruvchi va chiquvchi hisoblanadi). Bu funksiyadan foydalanib, berilgan a, b, c, d

	haqiqiy turga tegishli o‘zgaruvchilar uchun $(a,b),(c,d)$ va (b,c) juftliklarning qiymatlari ketma-ket almashtirilsin hamda a, b, c, d larning yangi qiymatlari chiqarilsin.
11	Berilgan x va y o‘zgaruvchilardagi qiymatlarning kichigini x ga kattasini y ga yozadigan $Minmax(x,y)$ nomli void turidagi funksiya tasvirlansin(x, y - haqiqiy turga tegishli parametrlar bo‘lib bir vaqtning o‘zida kiruvchi va chiquvchi). Bu funksiya 4 marta chaqirilib, berilgan a, b, c, d sonlarining eng kattasi va eng kichigi aniqlansin.
12	Berilgan a, b, c o‘zgaruvchilarning qiymatlarini o‘sish tartibida joylashtiruvchi $SortInc3(a, b, c)$ nomli void turidagi funksiya tasvirlansin(a, b, c lar – haqiqiy turga tegishli parametrlar bo‘lib, bir vaqtning o‘zida kiruvchi va chiquvchi hisoblanadi). Bu funksiyadan foydalanib, berilgan 2 ta (a_1, b_1, c_1) va (a_2, b_2, c_2) sonlar ketma-ketliklarining har biri o‘sish tartibida tartiblansin.
13	Berilgan a, b, c o‘zgaruvchilarning qiymatlarini kamayish tartibida joylashtiruvchi $SortDec3(a,b,c)$ nomli void turidagi funksiya tasvirlansin(a, b, c lar – haqiqiy turga tegishli parametrlar bo‘lib, bir vaqtning o‘zida kiruvchi va chiquvchi hisoblanadi). Bu funksiyadan foydalanib, berilgan 2 ta (a_1, b_1, c_1) va (a_2, b_2, c_2) sonlar ketma - ketliklarining har biri kamayish tartibida tartiblansin.
14	Berilgan a, b, c o‘zgaruvchilardagi qiymatlarni quyidagicha siljituvchi $a \rightarrow b, b \rightarrow c, c \rightarrow a$ o‘ng siljish $Shift\ Right3(a,b,c)$ nomli void turidagi funksiya tasvirlansin(a, b, c lar haqiqiy turga tegishli parametrlar bo‘lib, bir vaqtning o‘zida kiruvchi va chiquvchi hisoblanadi). Bu funksiyadan foydalanib, berilgan 2 ta (a_1, b_1, c_1) va (a_2, b_2, c_2) sonlar ketma - ketligining har biri uchun o‘ng siljish amali bajarilsin.
15	Berilgan a, b, c o‘zgaruvchilardagi qiymatlarni quyidagicha siljituvchi $a \rightarrow c, c \rightarrow b, b \rightarrow a$ chap siljish $Shift\ Lift3(a,b,c)$ nomli void turidagi funksiya tasvirlansin (a, b, c lar haqiqiy turga tegishli parametrlar bo‘lib, bir vaqtning o‘zida kiruvchi va chiquvchi hisoblanadi). Bu funksiyadan foydalanib, berilgan 2 ta (a_1, b_1, c_1) va (a_2, b_2, c_2) sonlar ketma - ketligining har biri uchun chap siljish amali bajarilsin.

2.Topshiriq ushdan maqsad: Funksiyalarda ko‘rsatkichlar va murojaatlar.Dinamik massivlar bilan ishslash.

Vazifa: Ko‘rsatkichlar orqali o‘zgaruvchilarni e’lon qiling. Variantda ko‘rsatilgan misollar ustida bajariladigan amallarning dasturini tuzing.

24-jadval

Nº	Variantlar
1	n ta elementdan tashkil topgan massiv berilgan.Bu massivning juft o‘rinlarida turgan elementlari yig‘indisi hisoblansin.(Ko‘rsatkichlardan foydalanib hisoblansin).
2	n ta elementdan tashkil topgan massiv berilgan.Bu massivning juft elementlari yig‘indisi hisoblansin. (Ko‘rsatkichlardan foydalanib hisoblansin).
3	n ta elementdan tashkil topgan massiv berilgan.Bu massivning elementlarini teskari tartibda chiqaring. (Ko‘rsatkichlardan foydalaning).
4	n ta elementdan tashkil topgan massiv berilgan. Massivning eng katta elementi aniqlansin. (Ko‘rsatkichlardan foydalaning).
5	n ta elementdan tashkil topgan massiv berilgan.Bu massivning eng kichik elementi aniqlansin. (Ko‘rsatkichlardan foydalaning).
6	n ta elementdan tashkil topgan massiv berilgan.Bu massivning toq elementlari ko‘paytmasi hisoblansin. (Ko‘rsatkichlardan foydalaning)
7	n ta elementdan tashkil topgan massiv berilgan.Bu massivning juft o‘rinda turgan juft elementlari soni aniqlansin. (Ko‘rsatkichlardan foydalaning)

8	n ta elementdan tashkil topgan massiv berilgan. Eng katta 2 ta elementi aniqlansin. (Ko‘rsatkichlardan foydalaning)
9	n ta elementdan tashkil topgan massiv berilgan. Bu massivning 2 ta eng kichik elementi aniqlansin. (Ko‘rsatkichlardan foydalaning)
10	n ta elementdan tashkil topgan massiv berilgan. Bu massivning 3 ta eng katta elementi aniqlansin (Ko‘rsatkichlardan foydalaning)
11	n ta elementdan tashkil topgan massiv berilgan. Bu massivning eng kichik 3 ta elementi aniqlansin. (Ko‘rsatkichlardan foydalaning)
12	n ta elementdan tashkil topgan massiv berilgan. Bu massivning eng katta va eng kichik elementlari yig‘indisi hisoblansin. (Ko‘rsatkichlardan foydalaning)
13	n ta elementdan tashkil topgan massiv berilgan. Bu massivning eng katta va eng kichik elementlari ko‘paytmasi hisoblansin. (Ko‘rsatkichlardan foydalaning)
14	n ta elementdan tashkil topgan massiv berilgan. Bu massivning eng katta va eng kichik elementlari ayirmasi hisoblansin. (Ko‘rsatkichlardan foydalaning)
15	n ta elementdan tashkil topgan massiv berilgan. Bu massivning tub elementlari soni aniqlansin. (Ko‘rsatkichlardan foydalaning)

3. Topshiriq ishidan maqsad: Dinmik massivlar funksiya argumenti sifatida vazifa: Quyidagi masalalar uchun dasturlar tuzilsin:

25-jadval

N	Variant
1	int *s; Berilgan s vektor kattalikning indekslari quyidagilarga teng bo‘lgan elementlari chop qilinsin: a) ikkining darajalari: (1, 2, 4, 8, 16,...); b) to‘liq kvadratlar: (1, 4, 9, 16, 25,...); d) Fibonachchi sonlari: (1, 2, 3, 5, 8, 13,...);
2	float * x; Berilgan x vektor quyidagi qoida bo‘yicha hosil qilinsin (x_k hosil bo‘lgan vektor k-elementining qiymati): a) $x_k = \max x_i$ bunda $1 \leq i \leq k$; b) vektor elementlari teskari tartibda joylashtirilsin; d) $x_1 = x_1, x_n = x_n, x_k = (x_{k-1}+x_k+x_{k+1})/3, k=2,3,\dots,n-1$; e) vektor elementlari p ta pozitsiya chapga siklik ravishda surilsin.
3	float * x; Berilgan x vektorning barcha manfiy elementlarini uning boshiga, qolgan elementlari esa oxiriga o‘tkazilsin, bunda berilgan vektorning manfiy va qolgan elementlarining boshlang‘ich o‘zaro joylashuvi saqlansin (qo‘sishma vectordan foydalailmasin).
4	int * x, *y, *z; Berilgan x va y vektorlarning har birida elementlar kamaymaydigan tartibda joylashgan. Bu ikki vektorni birlashtirib, shunday z vektor hosil qilinsinki, uning elementlari ham kamaymaydigan tartibda bo‘lsin.
5	char *suz1, *suz2; bool teng; Massiv ko‘rinishida berilgan suz1 va suz2 so‘zlarning har birida belgilar takrorlanib kelmaydi deb hisoblagan holda, agarda x va y so‘zlar, ularda qatnashayotgan belgilarning tartibi bilan farq qilsa, teng o‘zgaruvchiga true qiymat berilsin, aks holda false qiymat berilsin.
6	float *x; Berilgan x vektor almashtirish usuli orqali kamaymaydigan ko‘rinishda tartiblash tartiblansin. Bu usulda qo‘sni elementlar x_k va x_{k+1} ($k=1,2,3,\dots,n-1$) ketma-ket solishtiriladi va agarda $x_k > x_{k+1}$ bo‘lsa, u holda bu elementlaring o‘rnini almashtiriladi; shu yo‘l bilan eng katta element vektorning oxirida joylashib qoladi; shundan so‘ng bu usul oxirgi elementdan tashqari hamma elementlarga qo‘llaniladi va h.k.

	Tartiblashning birorta qadamida elementlarni almashtirish ro'y bermasa tartiblash jarayoni to'xtatilsin.
7	float *x; Berilgan x vektor orasiga qo'yish usuli orqali kamaymaydigan ko'rinishda tartiblash. Bu usulda vektoring birinchi k ta elementi kamaymaydigan ko'rinishda tartiblangan deb hisoblanadi; k+1-chi elementi olinadi va u birinchi k ta element orasiga shunday joylashtiriladiki, hosil bo'lgan k+1 ta element tartiblangan bo'ladi; bu usul k o'zgaruvchining 0 dan n-2 gacha qiymatlari uchun takrorlanadi.
8	Nuqta bilan tugaydigan kichik lotin iborat matn berilgan. Shu matnga faqat bir martadan kiruvchi barcha harflar alfavitda chop qilinsin.
9	float *A, *B, *C; // n*n o'lchamli matritsalar float *x, *y; // n o'lchamli vector Berilgan natural n uchun quyidagilar hisoblansin: a) C=A+B; b) y=Ax; d) C=AB; e) B=B ^T .
10	10x20 o'lchamli haqiqiy turdag'i dinamik matritsa berilgan. Uning satrlari kamaymaydigan ko'rinishda tartiblansin: a) birinchi elementlar bo'yicha; b) elementlar yig'indisi bo'yicha; d) eng katta elementlari bo'yicha.
11	Biror bir shaxmat musobaqasida qatnashgan n ta shaxmat-chining natijalari T jadvalda berilgan (n>2): enum Uyin_Natijasi {Y,D,M,X}; Uyin_Natijasi turidagi n*n o'lchamli dinamik massiv aniqlasin (jadval). Jadval qiymatlari quyidagicha aniqlasin: jadval[i][j]=Y, agar i-chi ishtirokchi j-chi ishtirokchi ustidan g'alaba qozongan bo'lsa (bunda jadval[j][i]=M), jadval[i][j]=D va jadval[j][i]=D, agar i-chi va j-chi ishtirokchilar durang o'ynagan bo'lsa, hamda jadval[i][i]=X. Jadvalning ko'rinishi quyidagicha bo'lishi mumkin (n=3 uchun) $\begin{pmatrix} X & Y & M \\ Y & X & D \\ Y & D & X \end{pmatrix}$ <p>Yutuq uchun 3 ochko, durang uchun 1 ochko, mag'lubiyat uchun 0 ochko beriladi. Ishtirokchilar nomerlari ularning to'plagan ochkolari bo'yicha o'smaydigan tartibda chop qilinsin.</p>
12	Matritsaning elementi egar nuqta deyiladi, agarda u bir vaqtning o'zida shu element joylashgan satrdagi eng kichik va ustundagi eng katta bo'lsa yoki teskari, joylashgan satrdagi eng katta va ustundagi eng kichik bo'lsa. Berilgan n*m o'lchamli butun turdag'i dinamik hfdbilf zhfnbkufy jadvalning barcha egar nuqtalarining indekslari chop etilsin.
13	n o'lchovli chiziqli fazoda n ta vektor koordinatalari bilan berilgan. Bu vektorlar chiziqli erkli bo'ladimi?
14	Elementlari n ta haqiqiy sonlardan iborat x, y va z vektorlar berilgan. (a,a)-(b,c) kattalik hisoblansin, bu yerda a vektor berilgan vektorlar ichidan eng katta minimal elementga ega (bunday vektor yagona deb hisoblansin), b va c qolgan ikkita vektor, (p,q) - p va q vektorlarning skalyar ko'paytmasi.
15	9x4 o'lchamli uchta butun turdag'i matritsalar dinamik ravishda aniqlanib qiymatlari berilgan. Faqat nollardan iborat satrlari eng ko'p bo'lgan matritsa chop etilsin (agar bunday matritsalar bir nechta bo'lsa, barchasi chop etilsin).

4.Topshiriq Ishdan maqsad:Dinamik massivlar bilan ishlash.

Vazifa:Quyidagi masalalar uchun ko'rsatgichlardan foydalanib dasturlar tuzilsin:

26-jadval

N	variant
1	n o'lchamga ega($n > 0$), butun sonli a massiv sonlari orasidan eng kichik sonni topuvchi butun turga tegishli $\text{MinElem}(n, a)$ nomli funksiya tasvirlansin. Bu funksiya yordamida n_a, n_b, n_c o'lchamga ega a, b, c massivlardagi eng kichik sonlar topilsin.
2	n o'lchamga ega($n > 0$), butun sonli a massiv sonlari orasidan eng katta son joylashgan massiv indeksini topuvchi butun turga tegishli $\text{MaxNum}(n, a)$ nomli funksiya tasvirlansin. Bu funksiya yordamida n_a, n_b, n_c o'lchamga ega a, b, c massivlardagi eng katta sonlar joylashgan massiv indekslari topilsin.
3	n o'lchamga ega ($n > 0$), haqiqiy sonli a massivni quyidagi ko'rinishda sillqlashni bajaruvchi $\text{Smooth2}(n, a)$ nomli void turidagi funksiya tasvirlansin: Massivning a_k elementi dastlabki k ta elementlarning o'rta arifmetigi bilan almashtirilsin. Bu funksiya yordamida berilgan a massivda 7 karrali sillqlash bajarilsin va har bir sillqlash jarayoni chop etilsin.
4	n o'lchamga ega($n > 0$), haqiqiy sonli a massivning eng katta va eng kichik sonlari joylashgan massiv indekslarini topuvchi $\text{MinmaxNum}(n, a, n_{min}, n_{max})$ nomli void turidagi funksiya tasvirlansin. n_{min} va n_{max} lar butun turga tegishli chiquvchi parametrlar. Bu funksiyadan foydalanib, butun turga tegishli n_a, n_b, n_c o'lchamga ega a, b, c massivlarning eng katta va eng kichik sonlari joylashgan massiv indekslari topilsin.
5	n o'lchamga ega ($n > 0$), haqiqiy sonli a massiv sonlari ketma-ketligini teskari tartibga almashtiruvchi $\text{Invert}(n, a)$ nomli void turidagi funksiya tasvirlansin. a massiv kiruvchi va chiquvchi parametr hisoblanadi. n_a, n_b, n_c o'lchamga ega a, b, c massiv sonlari bu funksiya yordamida teskari tartibda tartiblansin.
6	n o'lchamga ega ($n > 0$), haqiqiy sonli a massivni quyidagi ko'rinishda sillqlashni bajaruvchi $\text{Smooth1}(n, a)$ nomli void turidagi funksiya tasvirlansin: Massivning a_k elementi dastlabki k ta elementlarning o'rta arifmetigi bilan almashtirilsin. Bu funksiya yordamida berilgan a massivda 5 karrali sillqlash bajarilsin va har bir sillqlash jarayoni chop etilsin.
7	n o'lchamga ega ($n > 0$), haqiqiy sonli a massivni quyidagi ko'rinishda sillqlashni bajaruvchi $\text{Smooth2}(n, a)$ nomli void turidagi funksiya tasvirlansin: Massivdagi a_k ($k=2, \dots, n$) element a_{k-1} va a_k elementlarining yarim yig'indisi bilan almashtirilsin. Bu funksiya yordamida berilgan a massivda 5 karrali sillqlash bajarilsin va har bir sillqlash jarayoni chop etilsin.
8	n o'lchamga ega ($n > 0$), butun sonli a massivning x ga teng bo'lgan sonini o'chiradigan $\text{RemoveX}(n, a, x)$ nomli void turidagi funksiya tasvirlansin. a massiv va n soni kiruvchi va chiquvchi parametrlar hisoblanadi. Bu funksiyadan foydalanib n_a, n_b, n_c o'lchamga ega a, b, c massivlarning x_a, x_b, x_c sonlari o'chirilsin, hosil qilingan massivlar va ularning o'lchami chiqarilsin.
9	n o'lchamga ega($n > 0$), butun sonli a massiv sonlari orasidan eng kichik sonni topuvchi butun turga tegishli $\text{MinElem1}(n, a)$ nomli funksiya tasvirlansin. Bu funksiya yordamida n_a, n_b, n_c o'lchamga ega a, b, c massivlardagi eng katta sonlar topilsin.
10	n o'lchamga ega ($n > 0$), haqiqiy turga tegishli a massivning o'suvchi tartibda bo'lishiga halaqit beradigan elementlarini o'chiradigan $\text{RemoveForInc}(n, a)$ nomli void turidagi funksiya tasvirlansin(n va a lar kiruvchi va chiquvchi parametrlar).
11	n o'lchamga ega ($n > 0$), butun sonli a massivning x ga teng bo'lgan sonlarini ikkilantiradigan $\text{DoubleX}(n, a, x)$ nomli void turidagi funksiya tasvirlansin. a massiv va n soni kiruvchi va chiquvchi parametrlar hisoblanadi. Bu funksiyadan foydalanib, n_a, n_b, n_c o'lchamga ega a, b, c massivlarning x_a, x_b, x_c sonlari ikkilantirilsin va hosil qilingan massivlar va ularning o'lchamlari chiqarilsin.
12	n o'lchamga ega ($n > 0$), haqiqiy turga tegishli a massivni o'sish tartibida tartiblovchi $\text{SortArray}(n, a)$ nomli void turidagi funksiya tasvirlansin. a massiv kiruvchi va chiquvchi parametr hisoblanadi. Bu funksiya yordamida n_a, n_b, n_c o'lchamga ega a, b, c massivlar tartiblansin.

13	n o‘lchamga ega ($n > 0$), butun sonli a massiv sonlari orasidan eng katta son joylashgan massiv indeksini topuvchi butun turga tegishli $\text{MaxNum}(n, a)$ nomli funksiya tasvirlansin. Bu funksiya yordamida n_a, n_b, n_c o‘lchamga ega a, b, c massivlardagi eng katta elementlari topilsin.
14	n o‘lchamga ega ($n > 0$), haqiqiy turga tegishli a massiv elementlarini quyidagi ko‘rinishda tartiblovchi $\text{Bell}(n, a)$ nomli void turidagi funksiya tasvirlansin: 1-songa hamma sonlarning eng kichigi, oxirgi songa qolgan hamma sonlarning eng kichigi, 2-songa qolgan sonlarning eng kichigi va oxiridan oldingi songa qolganlarini eng kichigi va hokazo joylashtiriladi. a massiv kiruvchi va chiquvchi parametr hisoblanadi. Bu funksiya yordamida n_a, n_b, n_c o‘lchamga ega a, b, c massivlar tartiblansin.
15	n o‘lchamga ega ($n > 0$), haqiqiy turga tegishli a massivning o‘suvchi tartibda bo‘lishiga halaqit beradigan elementlarini o‘chiradigan $\text{RemoveForInc}(n, a)$ nomli void turidagi funksiya tasvirlansin (n va a lar kiruvchi va chiquvchi parametrlar).

9. OBEKTGA YO‘NALTIRILGAN DASTURLASH IMKONIYATLARIDAN FOYDALANISH

Ishning maqsadi: C++ dasturlash tilida obyektga yo‘naltirilgan dasturlash tamoyilaridan foydalanib, Obyekt sinfning biror bir nusxasi hisoblash ko‘nikmalarini shakllantirish.

Masalaning qo‘yilishi:

C++ tilida toifalarga qiymat o’zlashtirilmaydi, balki o’zgaruvchiga o’zlashtiriladi. Shuning uchun to’g’ridan-to’g’ri int = 55 deb yozib bo’lmaganidek non.baho=1200 deb ham bo’lmaydi. O’zlashtirishda xatolikka yo’l qo’ymaslik uchun oldin non. sinfiga tegishli patir Obyektini hosil qilamiz keyin esa unga kerakli qiymatlarni beramiz..

Masala: Sinfning barcha usul va a’zolari boshlang’ich holda avtomatik ravishda yopiq bo’ladi. Yopiq a’zolarga esa faqat shu sinfning usullari orqaligina murojaat qilish mumkin. Obyektning ochiq a’zolariga esa dasturdagi barcha funksiyalar murojaat qilishi mumkin. Lekin sinf a’zolariga murojaat qilish ancha mushkul ish hisoblanadi.

Masalani yechish g‘oyasi: Agar to’g’ridan to’g’ri:

non patir;
patir.baho = 1200;
patir.og`irlilik = 500; deb yozsak xato bo’ladi.

A’zolarga murojaat qilishdan oldin uni ochiq deb e’lon qilish kerak:

Dastur matni:

```
# include <iostream.h >

class non

{ public :

    int baho;

    int ogirlilik;

    void yasash (); };

int main (){

    non patir;

    patir.baho = 1200; patir.ogirlilik = 500;

    cout <<“men olgan patir” <<patir.baho <<“so’m”<<endl;

    cout <<“uning og’irligi =”<<patir.og’irlilik <<endl ; }
```

Mashg‘ulotini bajarish bo‘yicha topshiriqlar

1. **Klavyatura va sichqoncha** class larini yarating va ularni bog‘lovchi metodlar yarating
2. **Kompyuter monitori** va **video kartasini** class larini yarating va ularni bog‘lovchi funksiyalar yarating
3. **Telefon** va **notebook** class larini yarating va ularni bog‘lovchi funksiyalar yarating
4. **Universitet** va **kollej** class larini yarating va ularni bog‘lovchi funksiyalar yarating
5. **Kollej** va **maktab** class larini yarating va ularni bog‘lovchi funksiyalar yarating
6. **Piyola** va **choynak** class larini yarating va ularni bog‘lovchi funksiyalar yarating
7. **Stol** va **stul** class larini yarating va ularni bog‘lovchi funksiyalar yarating
8. **Ruchka** va **qalam** class larini yarating va ularni bog‘lovchi funksiyalar yarating
9. **Kastyum** va **shim** class larini yarating va ularni bog‘lovchi funksiyalar yarating
10. **Kitob** va **daftар** class larini yarating va ularni bog‘lovchi funksiyalar yarating
11. **Eshik** va **deraza** class larini yarating va ularni bog‘lovchi funksiyalar yarating
12. **Chelak** va **tog‘ora** class larini yarating va ularni bog‘lovchi funksiyalar yarating
13. **Kalit** va **qulf** class larini yarating va ularni bog‘lovchi funksiyalar yarating
14. **Svet** va **sham** class larini yarating va ularni bog‘lovchi funksiyalar yarating
15. **Dom** va **hovli** class larini yarating va ularni bog‘lovchi funksiyalar yarating

10. OBYEKTGA YO‘NALTIRILGAN DASTURLARNI TASHKIL QILISH

Ishdan maqsad: C++ dasturlash tilida sinflarni yaratish va ularning maydonlarini yaratish. Obyektlar yaratish usullarini o‘rganish.

Nazariy qism.

Sinflarni eng soda holda qo‘yidagicha tasvirlash mumkin: Sinf-kaliti Sinf-soni {komponentalar ruyhati}. Sinf komponentalari sodda holda tiplangan ma'lumotlar va funktsiyalardan iborat bo‘ladi. Figurali qavslarga olingan komponentalar ro‘yhati inf tanasi deb ataladi. Sinfga tegishli funktsiyalar komponenta-funktsiyalar yoki inf funktsiyalari deb ataladi. Sinf kaliti sifatida Struct hizmatchi so‘zi ishlatalishi mumkin. Masalan qo‘yidagi konstruktsiya kompleks son sinfini kiritadi.

```
Struct complex {
    double real;
    double imag;
    void define (double re=0.0, double im=0.0){
        real=re; imag=im;}
    void display (void){
        cout<<"real="<<real;
        cout<<"imag="<<imag; } ;
```

Strukturadan bu sinfning farqi shuki komponenta ma'lumotlardan (real, imag) tashqari ikkita komponenta funktsiya (define() va display ()) kiritilgan. Bu kiritilgan inf o‘zgaruvchilar tipi deb qaralishi mumkin. Bu tiplar yordamida konkret ob'ektlarni qo‘yidagicha tasvirlash mumkin:

Misol uchun:

```
Complex x,y;
Complex dim[8];
Complex *p=1x;
```

Sinfga tegishli ob'ektlar qo‘yidagicha tasvirlanadi; Sinf-nomi . ob'ekt-nomi Dasturda ob'ekt komponentasiga quyidagicha murojaat qilish mumkin:

<Sinf-nomi.ob'ekt-nomi> :: <komponenta-nomi yoki soddarroq holda ob'ekt-nomi>. Element-nomi

Misol uchun:

```
x!=real=1.24;
x!=imag=0.0;
dim[3]. Real=0.25;
dim[3]. Imag=0.0;
```

Sinfga tegishli funktsiyalarga qo‘yidagicha murojaat qilinadi: funktsiya-nomi. Ob'ekt-nomi;

Misol uchun:

```
X. define.(Bu holda real=0.9 va imag=0.0)
X. define.(Bu holda kompleks son 4.3+i*20.0)
```

Display funktsiyasi ekranda kompleks son qiymatlarini tasvirlaydi. Sinfga tegishli ob'ektga ko‘rsatkich orqali komponentalarga quyidagicha murojat qilinadi: Ob'ektga-ko‘rsatkich>element-nomi Yuqorida ko‘rsatilgan P ko‘rsatkich orqali H ob'ekt elementlariga qo‘yidagicha qiymat berish mumkin:

P>real=2.3

P>imag=6.1

Huddi shu shaklda sinfga tegishli funktsiyalarga murojat qilinadi:

P>display;

P>define(2.3, 5.4);

Kompanenta o‘zgaruvchilar va kompanenta funktsiyalar. Sinf kompanenta o‘zgaruvchilari sifatida o‘zgaruvchilar, massivlar, ko‘rsatkichlar ishlatilishi mumkin . Elementlar ta’riflanganda initsializatsiya qilish mumkin emas . Buning sababi shuki sinf uchun hotiradan joy ajratilmaydi. Kompanenta elementlariga kompanenta funktsiyalar orqali murojat qilinganda faqat nomlari ishlatiladi. Sinfdan tashqarida sinf elementlariga emas ob‘ekt elementlariga murojaat qilish mumkin. Bu murojaat ikki hil bo‘lishi mumkindir.

Ob'ekt- nomi . Element - nomi.

Ob'ktga – korsatgich – element nomi.

Sinf elementlari sinfga tegishli funktsiyalarida ishlatilishidan oldin ta’riflangan bo‘lishi shart emas. Huddi shunday bir funktsiyadan hali ta’rifi berilmagan ikkinchi funktsiyaga murojaat qilish mumkin. Komponentalarga murojaat huquqlari. Komponentalarga murojaat huquqi murojaat spetsifikatorlari yordamida boshqariladi.

Bu spetsifikatorlar :

Protected – himoyalangan;

Private – hususiy;

Public – umumiy;

Himoyalangan komponentalardan sinflar ierarhiyasi qurilganda foydalaniladi. Oddiy holda Protected spetsifikatori Private spetsifikatoriga ekvivalentdir. Umumiy ya’ni Public tipidagi komponentalarga dasturning ihtiyyoriy joyida murojaat qilinishi mumkin. Hususiy ya’ni Private tipidagi komponentalarga sinf tashqarisidan murojaat qilish mumkin emas. Agar sinflar Struct hizmatchi so‘zi bilan kiritilgan bo‘lsa, uning hamma komponentalari umumiy Public bo‘ladi, lekin bu huquqni murojaat spetsifikatorlari yordamida o‘zgartirish mumkin. Agar sinf Class hizmatchi so‘zi orqali ta’riflangan bo‘lsa, uning hamma komponentalari hususiy bo‘ladi. Lekin bu huquqni murojaat spetsifikatorlari yordamida uzgartirish mumkindir. Bu spetsifikator yordamida Sinflar umumiy holda quyidagicha ta’riflanadi:

```
class class_name {  
    int data_member; // Ma'lumot-element  
    void show_member(int); } // Funktsiya-element;
```

Sinf ta’riflangandan so‘ng, shu sinf tipidagi o‘zgaruvchilarni(ob‘ektlarni) qo‘yidagicha ta’riflash mumkin:

```
class_name object_one, object_two, object_three;  
//Qo‘yidagi misolda employee, sinfi kiritilgandir:  
  
class employee {  
public:  
    char name[64] ;  
    long employee_id;  
    float salary;  
    void show_employee(void) {  
        cout << "Imya: " << name << endl;  
        cout << "Nomer slujathego: " << employee_id << endl;  
        cout << "Oklad: " << salary << endl; };};
```

Bu sinf uch o‘zgaruvchi va bitta funktsiya-elementga ega. Qo‘yidagi **EMPCLASS.CPP** dastur ikki employee ob‘ektini yaratadi. Nuqta operatordan foydalanib ma'lumot elementlarga qiymat beriladi so‘ngra show_employee elementidapn foydalanib hizmatchi haqidagi ma'lumot ekranga chiqariladi:

```

#include <iostream.h>
#include <string.h>
class employee {
public:
    char name [64];
    long employee_id;
    float salary;
    void show_employee(void) {
        cout << "Imya: " << name << endl;
        cout << "Nomer slujathego: " << employee_id << endl;
        cout << "Oklad: " << salary << endl; } };
int main(void){
    employee worker, boss;
    strcpy(worker.name, "John Doe");
    worker.employee_id = 12345;
    worker.salary = 25000;
    strcpy(boss.name, "Happy Jamsa");
    boss.employee_id = 101;
    boss.salary = 101101.00;
    worker.show_employee();
    boss.show_employee(); }

```

Konstruktorlar bu sınıf komponenta funktsiyalari bulib, ob'ektlarni avtomatik initializatsiya qilish uchun ishlataladi. Konstruktorlar ko'rinishi qo'yidagicha bo'lishi mumkin: **Sinf nomi (formal parametrler ruyhati) {konstruktor tanasi}**. Bu komponenta funktsiya nomi sınıf nomi bilan bir hil bulishi lozim. Misol uchun complex sınıf uchun konstruktorni qo'yidagicha kiritish mumkin :

Mplex (double re = 0.0; double im = 0.0) {real=re; imag=im;}

Tovarlar sınıfı uchun konstruktorni qo'yidagicha kiritish mumkin.

Goods(char* new _ name, float new _ price)

{name= new _ name; price= new _ price; }

Konstruktorlarda percent kabi statik elementlarning ham qiymatlarini o'zgartirish mumkindir. Konstruktorlar uchun qaytariluvchi tiplar, hatto void tipi ham ko'rsatilmaydi. Dasturchi tomonidan ko'rsatilmagan holda ham ob'ekt yaratilganda konstruktor avtomatik ravishda chaqiriladi. Masalan ss ob'ekt Copmlex cc; shaklida aniqlangan bo'lsa, konstruktor avtomatik chaqirilib real va imag parametrlari avtomatik ravishda 0.0 qiymatlariga ega bo'ladi. Ko'rsatilmagan holda parametrsiz konstruktor va qo'yidagi tipdagi nusha olish konstruktorlari yaratiladi: **T :: T (const T&)**

Misol uchun

Class F {.....

public : F(const T&)

..... }

Sinfda bir nechta konstruktorlar bo'lishi mumkin, lekin ularning faqat bittasida parametrlar qiymatlari oldindan ko'rsatilgan bo'lishi kerak. Konstruktor adresini hisoblash mumkin emas. Konstruktor parametri sifatida uz sinfining nomini ishlatish mumkin emas, lekin bu nomga ko'rsatkichdan foydalanish mumkin. Konstruktorni oddiy komponenta funktsiya sifatida chakirib bo'lmaydi. Konstruktorni ikki hil shaklda chaqirish mumkin:

Sinf_nomi, Ob'ekt_nomi (konstruktor_hakikiy_parametlari)

Sinf_nomi (konstruktor_hakikiy_parametlari).

Birinchi shakl ishlatalganda haqiqiy parametrlar ro'yhati bo'sh bo'lmasligi lozim. Bu shakldan yangi ob'ekt ta'riflanganda foydalaniladi:

Complex SS(10.3; 0.22); // real=10.3; SS.imag= 0.22

Complex EE (2.3); // EE . real= 2.3

EE.imag= 0.0;

Complex D(); // hato

Konstruktorni ikkinchi shaklda chaqirish nomsiz ob'ekt yaratilishiga olib keladi. Bu nomsiz ob'ektdan ifodalarda foydalanish mumkin. Misol uchun:

Complex ZZ= complex (4.0;5.0);

Bu ta'rif orqali **ZZ** ob'ekt yaratilib, unga nomsiz ob'ekt qiyamatlari(*real*= 4.0; *imag*= 5.0) beriladi; Konstruktorlar yordamida ob'ektlar qiyamatlarini initsializatsiya qilish uchun initsializatsiya ro'yhatidan foydalanish mumkin: *Sinf_nomi (parametrlar ro'yhati)*;

Komponenta_uzgaruvchilar_initsializatsiya ruyhati {konstruktor tanasi}

Initsializatsiya ruyhatining har bir elementi konkret komponentaga tegishli bo'lib, qo'yidagi ko'rinishga ega: Komponenta_uzgaruvchi_nomi (ifoda) Misol:

Class AZ { int ii ; float ee ; char cc ;

public:

AZ (int in ; float en ; char cn) : ii(5),

EE (ii+en+in) , CC(en) { }

..... } ;

AZ A(2,3.0,'d');

AZ X=AZ (0,2.0,'z');

Konstruktor nomi sinf nomi Bilan bir hil bo'lishi lozimdir. Misol uchun siz employee sinfdan foydalansangiz, konstruktor ham employee nomga ega bo'ladi. Agar dasturda konstruktor ta'rifi berilgan bo'lsa ob'ekt yaratilganda avtomatik chaqiriladi. Qo'yidagi CONSTRUC.CPP nomli dasturda employee nomli sinf kiritilgandir:

class employee{

public:

employee(char *, long, float); //Konstruktor

void show_employee(void);

int change_salary(float);

long get_id(void);

private:

char name [64];

long employee_id;

float salary; };

Konstruktor ta'rifi:

employee::employee(char *name, long employee_id, float salary) {

strcpy(employee::name, name) ;

employee::employee_id = employee_id;

if (salary < 50000.0)

employee::salary = salary;

else

// Nedopustimihy oklad

employee::salary = 0.0; }

CONSTRUC.CPP dasturi:

#include <iostream.h>

#include <string.h>

class employee{

```

public:
    employee(char *, long, float);
    void show_employee(void);
    int change_salary(float) ;
    long get_id(void);
private:
    char name [64] ;
    long employee_id;
    float salary; }
employee::employee(char *name, long employee_id, float salary) {
    strcpy(employee::name, name) ;
    employee::employee_id = employee_id;
    if (salary < 50000.0)
        employee::salary = salary;
    else
        // Nedopustimiy oklad
        employee::salary = 0.0; }

```

```

void employee::show_employee(void){
    cout << "Slujathi: " << name << endl;
    cout << "Nomer slujathego: " << employee_id << endl;
    cout << "Oklad: " << salary << endl; }
int main(void){
    employee worker("Happy Jamsa", 101, 10101.0);
    worker.show_employee(); }

```

Konstruktrdan foydalanilganda ob'ekt ta'riflanganda parametr uzatish mumkin:
employee worker("Happy Jamsa", 101, 10101.0);

Agar dasturda employee tipidagi ob'ektlar mavjud bo'lsa har birini qo'yidagicha initsializatsiya qilish mumkin

```

employee worker("Happy Jamsa", 101, 10101.0);
employee secretary("John Doe", 57, 20000.0);
employee manager("Jane Doe", 1022, 30000.0);

```

Konstruktorlarda kuzda tutilgan qiymatlardan ham foydalanish mumkindir. Misol uchun qo'yidagi konstruktor employee oklad qiymatini dasturda ko'rsatilmagan bo'lsa 10000.0 teng qilib oladi.:

```

employee::employee(char *name, long employee_id, float salary = 10000.00) {
    strcpy(employee::name, name);
    employee::employee_id = employee_id;
    if (salary < 50000.0)
        employee::salary = salary;
    else
        // Nedopustimiy oklad
        employee::salary = 0.0;

```

Destruktorlar. Sinfning biror ob'ekti uchun ajratilgan hotira ob'ekt yo'qotilgandan so'ng bo'shatilishi lozimdir. Sinfning mahsus komponentalari destruktur, bu vazifani avtomatik bajarish imkonini yaratadi.

Destruktorni standart shakli qo'yidagicha: ~ **sinf_nomi () {destruktur tanasi}**

Destruktor parametri yoki qaytariluvchi qiymatga ega bo'lishi mumkin emas. (hatto void tipidagi)

Nazorat savollari

- Quyidagi segment kodi nimani chop etadi?

```
CashRegister reg;
```

```
reg.clear();
```

```
reg.add_item(0.95);
```

```
reg.add_item(0.95);
```

```
cout << reg.get_count() << " " << reg.get_total() << endl;
```

- Quyidagi kod segmentining xatosi nimada?

```
CashRegister reg;
```

```
reg.clear();
```

```
reg.add_item(0.95);
```

```
cout << reg.get_amount_due() << endl;
```

3. CashRegister cinfining get_dollars komponentlik funksiyasini e'lon qiling, u savdoning umumiy miqdoridan dollarni ajratib ko'rsatsin.

4. **string** sinfi ikki aksessor komponentlik funksiyasini nomlang.

5. **ifstream** cinfining get komponentlik funksiyasi aksessormi yoki mutatormi?

Mashg'ulotini bajarish bo'yicha topshiriqlar sharti

1. Tatalaba sinfini yarating. Unda kamida 5 ta maydon va ularni ekranga chiqaruvchi, qayta ishlovchi usullarni yarating.

2. Avtomashina sinfini yarating. Unda kamida 5 ta maydon va ularni ekranga chiqaruvchi, qayta ishlovchi usullarni yarating.

3. Mijoz sinfini yarating. Unda kamida 5 ta maydon va ularni ekranga chiqaruvchi, qayta ishlovchi usullarni yarating.

4. Tovar sinfini yarating. Unda kamida 5 ta maydon va ularni ekranga chiqaruvchi, qayta ishlovchi usullarni yarating.

5. Avia reys sinfini yarating. Unda kamida 5 ta maydon va ularni ekranga chiqaruvchi, qayta ishlovchi usullarni yarating.

6. Dars sinfini yarating. Unda kamida 5 ta maydon va ularni ekranga chiqaruvchi, qayta ishlovchi usullarni yarating.

7. Kitob sinfini yarating. Unda kamida 5 ta maydon va ularni ekranga chiqaruvchi, qayta ishlovchi usullarni yarating.

8. Kompyuter sinfini yarating. Unda kamida 5 ta maydon va ularni ekranga chiqaruvchi, qayta ishlovchi usullarni yarating.

9. Odam sinfini yarating. Unda kamida 5 ta maydon va ularni ekranga chiqaruvchi, qayta ishlovchi usullarni yarating.

10. O'quv xonasi nomli sinfni yarating. Unda kamida 5 ta maydon va ularni ekranga chiqaruvchi, qayta ishlovchi usullarni yarating.

11. Olimlar sinfini yarating. Unda kamida 5 ta maydon va ularni ekranga chiqaruvchi, qayta ishlovchi usullarni yarating.

12. O'qituvchi sinfini yarating. Unda kamida 5 ta maydon va ularni ekranga chiqaruvchi, qayta ishlovchi usullarni yarating.

13. Telefon sinfini yarating. Unda kamida 5 ta maydon va ularni ekranga chiqaruvchi, qayta ishlovchi usullarni yarating.

14. Shahar sinfini yarating. Unda kamida 5 ta maydon va ularni ekranga chiqaruvchi, qayta ishlovchi usullarni yarating.

15. Metro sinfini yarating. Unda kamida 5 ta maydon va ularni ekranga chiqaruvchi, qayta ishlovchi usullarni yarating.
16. Nuqta sinfini yarating. Unda kamida 5 ta maydon va ularni ekranga chiqaruvchi, qayta ishlovchi usullarni yarating.
17. Uchburchak sinfini yarating. Unda kamida 5 ta maydon va ularni ekranga chiqaruvchi, qayta ishlovchi usullarni yarating.
18. To‘rburchak sinfini yarating. Unda kamida 5 ta maydon va ularni ekranga chiqaruvchi, qayta ishlovchi usullarni yarating.
19. Doira sinfini yarating. Unda kamida 5 ta maydon va ularni ekranga chiqaruvchi, qayta ishlovchi usullarni yarating.
20. Aylana sinfini yarating. Unda kamida 5 ta maydon va ularni ekranga chiqaruvchi, qayta ishlovchi usullarni yarating.
21. Kub sinfini yarating. Unda kamida 5 ta maydon va ularni ekranga chiqaruvchi, qayta ishlovchi usullarni yarating.
22. Ko‘pburchak sinfini yarating. Unda kamida 5 ta maydon va ularni ekranga chiqaruvchi, qayta ishlovchi usullarni yarating.
23. Matematika sinfini yarating. Unda kamida 5 ta maydon va ularni ekranga chiqaruvchi, qayta ishlovchi usullarni yarating.
24. Hayvonlar sinfini yarating. Unda kamida 5 ta maydon va ularni ekranga chiqaruvchi, qayta ishlovchi usullarni yarating.
25. Marketlar sinfini yarating. Unda kamida 5 ta maydon va ularni ekranga chiqaruvchi, qayta ishlovchi usullarni yarating.
26. Bekat sinfini yarating. Unda kamida 5 ta maydon va ularni ekranga chiqaruvchi, qayta ishlovchi usullarni yarating.
27. Geometriya sinfini yarating. Unda kamida 5 ta maydon va ularni ekranga chiqaruvchi, qayta ishlovchi usullarni yarating.
28. Printerlar sinfini yarating. Unda kamida 5 ta maydon va ularni ekranga chiqaruvchi, qayta ishlovchi usullarni yarating.
29. Modemlar sinfini yarating. Unda kamida 5 ta maydon va ularni ekranga chiqaruvchi, qayta ishlovchi usullarni yarating.
30. Kompleks sinfini yarating. Unda kamida 5 ta maydon va ularni ekranga chiqaruvchi, qayta ishlovchi usullarni yarating.

11. KENGAYTIRILGAN BELGILAR BILAN ISHLASH

Ishning maqsadi: Simvolli massiv elementlariga qayta ishlov beruvchi funksiyalar va ulsrningishlash usullari bilan tanishsish.

Nazaraiy qismi.

C++ tilida satrlar simvolli massivlar sifatida ta’riflanadi. Simvolli massivlar quyidagicha tasvirlanishi mumkin: **char pas[10];**. Ular quyidagicha initsializatsiya qilinadi:

```
char capital[]="TASHKENT";
```

Bu holda avtomatik ravishda massiv elementlari soni aniqlanadi va massiv oxiriga satr ko‘chirish ‘\n’ simvoli ko‘shiladi. Yukoridagi initsializatsiyani quyidagicha amalga oshirish mumkin:

```
char capital[]={‘T’,‘A’,‘S’,‘H’,‘K’,‘E’,‘N’,‘T’,‘\n’};
```

Bu holda so‘z oxirida ‘\n’ simvoli aniq ko‘rsatilishi shart.

Misol uchun palindrom so‘zni toppish masalasini ko‘rib chikamiz. Palindrom deb oldidan ham oxiridan ham bir xil o‘qiladigan so‘zlarga aytildi. Misol uchun non. Dasturda kiritilgan so‘z palindrom ekanligi aniqlanadi:

```
#include <iostream.h>
using namespace std;
int main(){
    gets(a);
    for( int j=0, a[j]!='\0';j++ );
    I=0;
    while(I<j)
        if (a[I++]!=a[j--]) break;
    if ((j-I)>1) cout<<("Polindrom emas") else cout<<("Polindrom");
```

Keyingi misolimizda kiritilgan so‘zdan berilgan harfni olib tashlash dasturi keltirilgan:

```
#include <iostream.h>
using namespace std;
int main()
{ char s[100];
int c; cin>>s; int i, j;
for ( i = j = 0; s[i] != '\0'; i++)
if ( s[i] != c ) s[j++] = s[i];
s[j] = '\0'; cout<<s; }
```

Har gal ‘s’ dan farqli simvol uchraganda, u **J** pozitsiyaga yoziladi va faqat shundan so‘ng **J** qiymati **1** ga oshadi. Bu quyidagi yozuvga ekvivalent:

```
if ( s[i] != c ) s[j] = s[i]; j++;
```

So‘zlar massivlari

C tilida so‘zlar massivlari ikki o‘lchovli simvolli massivlar sifatida ta’riflanadi. Misol uchun:

```
char Name[4][5].
```

Bu ta’rif yordamida har biri 5 ta harfdan iborat bo‘lgan 4 ta so‘zli massiv kiritiladi. So‘zlar massivlari quyidagicha initsializatsiya qilinishi mumkin:

```
char Name[3][8]={“Anvar”,“Mirkomil”,“Yusuf”}.
```

Bu ta’rifda har bir so‘z uchun xotiradan 8 bayt joy ajratiladi va har bir so‘z oxiriga ‘\0’ belgisi qo‘yiladi.

So‘zlar massivlari initsializatsiya qilinganda so‘zlar soni ko‘rsatilmasligi mumkin. Bu holda so‘zlar soni avtomatik aniqlanadi:

```
char comp[][9]={"kompyuter","printer","katridj"}.
```

Quyidagi dasturda berilgan harf bilan boshlanuvchi so‘zlar ro‘yxati ekranga chiqariladi:

```
#include <iostream.h>
using namespace std;
int main(){
char a[10][10];
char c;
for (int i=0;i<10;i++) cin>>a[i];
cin>>c;
for (i=0;i<10;i++) if (a[i][0]==c) cin>>a[i];}
```

Quyidagi dasturda fan nomi, talabalar ro‘yxati va ularning baholari kiritiladi. Dastur bajarilganda ikki olgan talabalar ro‘yxati bosib chikariladi:

```
#include <iostream.h>
using namespace std;
int main(){
char a[10][10];
char s[10];
int k[10];
cin>>s;
for (int i=0;i<10;i++) cin>>a[i];
for (i=0;i<10;i++) {cin>>k[i];}
for (int i=0;i<10;i++) if (k[i]==2) cout<<a[i];}
```

Satrlar va ular ustida amallar

Standart C++ tili ikki xildagi belgilar majmuasini qo‘llab - quvvatlaydi. Birinchi toifaga, an’anaviy, “tor” belgilar deb nomlanuvchi 8-bitli belgilar majmuasi kiradi, ikkinchisiga 16-bitli “keng” belgilar kiradi. Til kutubxonasida har bir guruh belgilari uchun maxsus funksiyalar to‘plami aniqlangan.

C++ tilida satr uchun maxsus tur aniqlanmagan. Satr **char** turidagi belgilar massivi sifatida qaraladi va bu belgilar ketma - ketligi satr terminatori deb nomlanuvchi nol kodli belgi bilan tugaydi ('\0'). Odatda, nol - terminator bilan tugaydigan satrlarni ASCIIIZ – satrlar deyiladi. Sart konstanta deb qo‘shtirnoqlar ichiga olingan belgilar ketma-ketligiga aytildi: “*Ushbu belgilar ketma-ketligiga satr deyiladi.*”

Quyidagi jadvalda C++ tilida belgi sifatida ishlatalishi mumkin bo‘lgan konstantalar to‘plami keltirilgan.

28-jadval

Belgilar sinflari	Belgi konstantalar
Katta harflar	‘A’ ... ‘Z’, ‘A’ ... ‘Ya’
Kichik harflar	‘a’ ... ‘z’, ‘a’... ‘ya’
Raqamlar	‘0’ ... ‘9’
Bo‘sh joy	gorizontal tabulyatsiya (ASCII kodi 9), satrni o‘tkazish (ASCII kodi 10), vertikal tabulyatsiya (ASCII kodi 11), formani o‘tkazish (ASCII kodi 12), karetkani qaytarish (ASCII kodi 13)

Punktuatsiya belgilari (ajratuvchilar)	! ” # \$ & ‘ () * + - , . / : ; < = > ? @ [\] ^ _ { } ~
Boshqaruv belgilari	ASCII kodi 0...1Fh oralig‘ida va 7Fh bo‘lgan belgilar
Probel	ASCII kodi 32 bo‘lgan belgi
O‘n oltilik raqamlar	‘0’...‘9’, ‘A’...‘F’, ‘a’...‘f’

Satr massivi e’lon qilinishida satr oxiriga terminator qo‘yilishini va natijada satrga qo‘shimcha bitta bayt qo‘shilishi inobatga olinishi kerak:

char satr[10];

Ushbu e’londa **satr** satri uchun jami 10 bayt ajratiladi, 9 satr hosil qiluvchi belgilar uchun va 1 bayt terminator uchun.

Satr o‘zgaruvchilari e’lon qilinishida boshlang‘ich qiymatlar qabul qilishi mumkin. Bu holda kompilyator avtomatik ravishda satr uzunligini hisoblaydi va satr oxiriga nol terminatori qo‘shib qo‘yadi:

char Hafta_kuni[]=”Juma”;

Ushbu e’lon quyidagi e’lon bilan ekvivalent:

char Hafta_kuni[]={‘J’,‘u’,‘m’,‘a’,‘\0’};

Satr qiymatini o‘qishda oqimli o‘qish operatori “>>” o‘rniga **getline()** funksiyasini ishltagan ma’qul hisoblanadi, chunki oqimli o‘qishda probellar inkor qilinadi (garchi ular satr belgisi hisoblansa ham) va o‘qilayotgan belgilar ketma - ketligi satrdan “oshib” ketganda ham belgilarni kiritish davom etishi mumkin. Natijada satr o‘ziga ajratilgan o‘lchamdan ortiq belgilarni qabul qilishi mumkin. Shu sababli, **getline()** funksiyasi ikkita parametriga ega bo‘lib, birinchi parametr o‘qish amalga oshirilayotgan satrga ko‘rsatgich, ikkinchi parametrda esa kiritilishi kerak bo‘lgan belgilar soni ko‘rsatiladi. Satrni **getline()** funksiyasi orqali o‘qishga misol ko‘raylik:

```
#include <iostream.h>
using namespace std;
int main(){
    char satr[6];
    cout<<"Satrni kriting: "<<'\n';
    cin.getline(satr,6);
    cout<<"Siz kiritgan satr: "<<satr;
    return 0;
}
```

Dasturda **satr** satri 5 ta belgini qabul qilishi mumkin, ortiqchalari tashlab yuboriladi. **getline()** funksiyasiga murojaatda ikkinchi parametr qiymati o‘qilayotgan satr uzunligidan katta bo‘lmasligi kerak.

Satr bilan ishlaydigan funksiyalarning aksariyati **string.h** kutubxonasida jamlangan. Nisbatan ko‘p ishlatiladigan funksiyalarning tavsifini keltiramiz.

Satr uzunligini aniqlash funksiyalari

Satrlar bilan ishlashda, aksariyat hollarda satr uzunligini bilish zarur bo‘ladi. Buning uchun **string.h** kutubxonasida **strlen()** funksiyasi aniqlangan bo‘lib, uning sintaksisi quyidagicha bo‘ladi:

size_t strlen (const char* string)

Bu funksiya uzunligi hisoblanishi kerak bo‘lgan satr boshiga ko‘rsatgich bo‘lgan yagona parametriga ega va u ishlash natijasi sifatida ishorasiz butun sonni qaytaradi. **strlen()** funksiyasi satrning real uzunligidan bitta kam qiymat qaytaradi, ya’ni nol-terminator o‘rni hisobga olinmaydi.

Xuddi shu maqsadda **sizeof()** funksiyasidan ham foydalanish mumkin va u **strlen()** funksiyasidan farqli ravishda satrning real uzunligini qaytaradi. Quyida keltirilgan misolda satr uzunligini hisoblashning har ikkita varianti keltirilgan:

```
#include <iostream.h>
#include <string.h>
using namespace std;
int main(){
char Str[]="1234567890";
cout <<"strlen(Str)="\<<strlen(Str)<<endl;
cout<<"sizeof(Str)="\<<sizeof(Str)<<endl;
return 0;
}
Dastur ishlashi natijasida ekranga
strlen(Str)=10
sizeof(Str)=11
xabarlari chiqadi.
```

Odatda **sizeof()** funksiyasidan **getline()** funksiyasining ikkinchi argumenti sifati ishlataladi va satr uzunligini yaqqol ko'rsatmaslik imkonini beradi:

```
cin.getline(Satr, sizeof(Satr));
```

Satrлarni nusxalash

Satr qiymatini biridan ikkinchisiga nusxalash mumkin. Buning uchun bir qator standart funksiyalar aniqlangan bo'lib, ularning tavsiflari quyida keltiramiz.

strcpy() funksiyasi prototipi

```
char* strcpy(char* str1, const char* str2)
```

ko'rinishga ega va bu funksiya str2 ko'rsatib turgan satrdagi belgilarni str1 ko'rsatib turgan satrga baytma-bayt nusxalaydi. Nusxalash str2 ko'rsatib turgan satrdagi nol-terminal uchraguncha davom etadi. Shu sababli, str2 satr uzunligi str1 satr uzunligidan katta emasligiga ishonch hosil qilish kerak, aks holda berilgan sohasida (segmentida) str1 satrдан keyin joylashgan berilganlar "ustiga" str2 satrning "ortiqcha" qismi yozilishi mumkin.

Navbatdagi dastur qismi "Satrni nusxalash!" satrini Str satrga nusxalaydi:

```
char Str[20];
strcpy(Str, "Satrni nusxalash!");
```

Zarur bo'lganda satrning qaysidir joyidan boshlab, oxirigacha nusxadash mumkin. Masalan, "Satrni nusxalash!" satrini 8 belgisidan boshlab nusxa olish zarur bo'lsa, uni quyidagicha yechish mumkin:

```
#include <iostream.h>
#include <string.h>
using namespace std;
int main(){
char Str1[20]={"Satrni nusxalash!"};
char Str2[20];
char* kursatgich=Str1;
kursatgich+=7;
strcpy(Str2, kursatgich);
cout<<Str2<<endl;
return 0; }
```

strncpy() funksiyasining strcpy() funksiyasidan farqli joyi shundaki, unda bir satrдан ikkinchisiga nusxalanadigan belgilar soni ko'rsatiladi. Uning sintaksisi quyidagi ko'rinishga ega:

```
char* strncpy(char* str1, const char* str2, size_t num)
```

Agar str1 satr uzunligi str2 satr uzunligidan kichik bo'lsa, ortiqcha belgilar "kesib" tashlanadi. strncpy() funksiyasi ishlatalishiga misol ko'raylik:

```
#include <iostream.h>
#include <string.h>
using namespace std;
int main(){
    char Uzun_str[]{"01234567890123456789"};
    char Qisqa_str[]{"ABCDEF"};
    strncpy(Qisqa_str,Uzun_str,4);
    cout <<"Uzun_str= "<<Uzun_str<<endl;
    cout<<"Qisqa_str= "<<Qisqa_str<<endl;
    return 0;}
```

Dasturda Uzun_str satri boshidan 4 belgi Qisqa_str satriga oldingi qiymatlar ustiga nusxalanadi va natijada ekranga

01234567890123456789

0123EF

xabarlar chop etiladi.

strdup() funksiyasiga yagona parametr sifatida satr-manbaga ko'rsatgich uzatiladi. Funksiya, satrga mos xotiradan joy ajratadi, unga satrni nusxalaydi va yuzaga kelgan satr-nusxa adresini qaytaradi. strdup() funksiya sintaksisi:

```
char* strdup(const char* source)
```

Quyidagi dastur bo'lagida satr1 satrining nusxasi xotiraning satr2 ko'rsatgan joyida paydo bo'ladi:

```
char* satr1="Satr nusxasini olish.:";
```

```
char* satr2;
```

```
satr2=strdup(satr1);
```

Satrlarni ulash

Satrlarni ulash (konkatenatsiya) amali yangi satrlarni hosil qilishda keng qo'llaniladi. Bu maqsadda string.h kutubxonasida strcat() va strncat() funksiyalari aniqlangan.

strcat() funksiyasi sintaksisi quyidagi ko'rinishga ega:

```
char* strcat(char* str1, const char* str2)
```

Funksiya ishlashi natijasida str2 ko'rsatayotgan satr, funksiya qaytaruvchi satr - str1 ko'rsatayotgan satr oxiriga ulanadi. Funksiyanı chaqirishdan oldin str1 satr uzunligi, unga str2 satr ulanishi uchun yetarli bo'lishi hisobga olingan bo'lishi kerak.

Quyida keltirilgan amallar ketma-ketligi bajarilishi natijasida satr satriga qo'shimcha satr ostilari ulanishi ko'rsatilgan:

```
char satr[80];
```

```
strcpy(satr,"Bu satrga ");
```

```
strcat(satr,"satr osti ulandi.");
```

Amallar ketma-ketligini bajarilishi natijasida satr satri "Bu satrga satr osti ulandi." qiymatiga ega bo'ladi.

strncat() funksiyasi strcat() funksiyadan farqli ravishda str1 satrga str2 satrning ko‘rsatilgan uzunligidagi satr ostini ulaydi. Ulanadigan satr osti uzunligi funksianing uchinchchi parametri sifatida beriladi. Funksiya sintaksisi

char* strncat(char* str1, const char* str2, size_t num)

Pastda keltirilgan dastur bo‘lagida str1 satrga str2 satrning boshlang‘ich 10 ta belgidan iborat satr ostini ulaydi:

```
char satr1[80] = "Programmalash tillariga misol bu-";
```

```
char satr2[80] = "C++, Pascal, Basic";
```

```
strncpy(satr1, satr2, 10);
```

```
cout << satr1;
```

Amallar bajarilishi natijasida ekranga “Programmalash tillariga misol bu-C++, Pascal” satri chop etiladi.

Satrlarni solishtirish

Satrlarni solishtirish ularning mos o‘rindagi belgilarini solishtirish (katta yoki qichikligi) bilan aniqlanadi. Buning uchun string.h kutubxonasida standart funksiyalar mavjud.

strcmp() funksiyasi sintaksisi

```
int strcmp(const char* str1, const char* str2)
```

ko‘rinishiga ega bo‘ltb, funksiya str1 va str2 solishtirish natijasi sifatida son qiymatlarni qaytaradi va ular quyidagicha izohlanadi:

- <0 – agar str1 satri str2 satridan kichik bo‘lsa;
- =0 – agar str1 satri str2 satriga teng bo‘lsa;
- >0 – agar str1 satri str2 satridan katta bo‘lsa.

Funksiya harflarning bosh va kichikligini farqlaydi. Buni misolda ko‘rishimiz mumkin:

```
char satr1[80] = "Programmalash tillariga bu- C++, pascal, Basic.;"
```

```
char satr2[80] = "Programmalash tillariga bu- C++, Pascal, Basic.;"
```

```
int i;
```

```
i = strcmp(satr1, satr2);
```

Natijada i o‘zgaruvchisi musbat qiymat qabul qiladi, chunki solishtirilayotgan satrlardagi “pascal” va “Pascal” satr ostilarida birinchi harflar farq qiladi. Keltirilgan misolda i qiymati 32 bo‘ladi – farqlanuvchi harflar satrning 32 elementi hisoblanadi. Agar funksiyaga

```
i = strcmp(satr2, satr1);
```

ko‘rinishida murojaat qilinsa i qiymati –32 bo‘ladi.

Agar satrlardagi bosh yoki kichik harflarni farqlamasdan solishtirish amalini bajarish zarur bo‘lsa, buning uchun strcmp() funksiyasidan foydalanish mumkin. Yuqorida keltirilgan misoldagi satrlar uchun

```
i = strcmp(satr2, satr1);
```

amali bajarilganda i qiymati 0 bo‘ladi.

strncmp() funksiyasi sintaksisi

```
int strncmp(const char* str1, const char* str2, size_t num)
```

ko‘rinishida bo‘lib, str1 str2 satrlarni boshlang‘ich num sonidagi belgilarini solishtiradi. Funksiya harflar registrini inobatga oladi. Yuqorida misolda aniqlangan satr1 va satr2 satrlar uchun

```
i = strncmp(satr1, satr2, 31);
```

amali bajarilishida i qiymati 0 bo‘ladi, chunki satrlar boshidagi 31 belgilar bir xil.

`strnicmp()` funksiyasi `strncmp()` funksiyasidek amal qiladi, farqli tomoni shundaki, solishtirishda harflarning registrini hisobga olinmaydi. Xuddi shu satrlar uchun

i=strcmp(satr1,satr2,32);

amali bajarilishi natijasida i o‘zgaruvchi qiymati 0 bo‘ladi.

Satrdagi harflar registrini almashtirish

Berilgan satrdagi kichik harflarni bosh harflarga yoki teskari almashtirishga mos ravishda `_strupr()` va `_strlwr()` funksiyalar yordamida amalga oshirish mumkin. Kompilyatorlarning ayrim variantlarida funksiyalar nomidagi tagchiziq (‘_’) bo‘lmasligi mumkin.

_strlwr() funksiyasi sintaksisi

char* _strlwr(char* str)

ko‘rinishida bo‘lib, argument sifatida berilgan satrdagi bosh harflarni kichik harflarga almashtiradi va hosil bo‘lgan satr adresini funksiya natijasida qaytaradi. Quyidagi dastur bo‘lagi `_strlwr()` funksiyasidan foydalanishga misol bo‘ladi.

char str[]="10 TA KATTA HARFLAR";

_strlwr(str);

cout<<str;

Natijada ekranga “10 ta katta harflar” satri chop etiladi.

`_strupr()` funksiyasi xuddi `_strlwr()` funksiyasidek amal qiladi, lekin satrdagi kichik harflarni bosh harflarga almashtiradi:

char str[]="10 ta katta harflar";

_strupr(str);

cout<<str;

Natijada ekranga ”10 TA KATTA HARFLAR” satri chop etiladi.

Dasturlash amaliyotida belgilarni qaysidir oraliqqa tegishli ekanligini bilish zarur bo‘ladi. Buni ctype.h sarlavha faylida e’lon qilingan funksiyalar yordamida bilsa bo‘ladi. Quyida ularning bir qismining tavsifi keltirilgan:

`isalnum()` – belgi raqam yoki harf (true) yoki yo‘qligini (false) aniqlaydi;

`isalpha()` – belgini harf (true) yoki yo‘qligini (false) aniqlaydi;

`isascii()` – belgini kodi 0..127 oralig‘ida (true) yoki yo‘qligini (false) aniqlaydi;

`isdigit()` – belgini raqamlar diapazoniga tegishli (true) yoki yo‘qligini (false) aniqlaydi.

Bu funksiyalardan foydalanishga misol keltiramiz.

```
#include <iostream.h>
```

```
#include <ctype.h>
```

```
#include <string.h>
```

```
int main(){
```

```
    char satr[5];
```

```
    do{
```

```
        cout<<"Tug'ilgan yilingizni kriting, marhamat...";
```

```
        cin.getline(satr,5);
```

```
        if(isalpha(satr[0])){
```

```
            cout<<"Siz harf kiritdingiz !";
```

```
            continue; }
```

```
        if(iscntrl(satr[0])) {
```

```
            cout<<"Siz boshqaruv belgilarini kiritdingiz !";
```

```
            continue; }
```

```
        if(ispunct(satr[0])) {
```

```

cout<<"Siz punctuatsiya belgilarini kiritdingiz !";
    continue; }
for (int i=0; i<=strlen(satr); i++){
    if (!isdigit(satr[i])) continue;
    else{
        cout << "Sizni tug'ilgan yilingiz: "<<satr;
        return 0; } } }
while (1); }

```

Programada foydalanuvchiga tug'ilgan yilini kiritish taklif etiladi. Kiritilgan sana satr o'zgaruvchisiga o'qiladi va agar satrning birinchi (satr[0]) belgisi harf yoki boshqaruv belgisi yoki punktuatsiya belgisi bo'lsa, shu haqda xabar beriladi va tug'ilgan yilni qayta kiritish taklif etiladi. Dastur tug'ilgan yil (to'rtta raqam) to'g'ri kiritilganda "Sizni tug'ilgan yilingiz: XXXX" satrini chop qilish bilan o'z ishini tugatadi.

Satrni teskari tartiblash

Satrni teskari tartiblashni uchun strrev() funksiyasidan foydalanish mumkin. Bu funksiya quyidagicha prototipga ega:

```

char* strrev(char* str)
Satr reversini hosil etishga misol:
char str[]="telefon";
cout <<strrev(str);

```

amallar bajarilishi natijasida ekranga “nofelet” satri chop etiladi.

Satrda belgini izlash funksiyalari

Satrlar bilan ishslashda satrda birorta belgini yoki satr ostini izlash masalasi nisbatan ko'p uchraydi. Bu turdag'i masalalar uchun string.h kutubxonasida bir qator standart funksiyalar mavjud.

Satrda belgi bor yoki yo'qligini aniqlab beruvchi strchr() funksiyasining prototipi
`char* strchr(const char* string, int c)`
ko'rinishida bo'lib, u s belginining satr string satrida izlaydi. Agar izlash muvofaqiyatlidir bo'lsa, funksiya shu belginining satrdagi o'rmini (adresini) funksiya natijasi sifatida qaytaradi, aks holda, ya'ni belgi satrda uchramasa funksiya NULL qiymatini qaytaradi. Belgini izlash satr boshidan boshlanadi.

Quyida keltirilgan dastur bo'lagi belgini satrdan izlash bilan bog'liq.

```

char satr[]="0123456789";
char* pSatr;
pSatr=strchr(satr,'6');

```

Dastur ishlashi natijasida pSatr ko'rsatgichi satr satrining '6' belgisi joylashgan o'rni adresini ko'rsatadi.

strchr() funksiyasi berilgan belgini (s) berilgan satr (string) oxiridan boshlab izlaydi. Agar izlash muvoffaqiyatlidir bo'lsa, belgini satrga oxirgi kirishining o'rmini qaytaradi, aks holda NULL.

Misol uchun

```

char satr[]="0123456789101112";
char* pSatr;
pSatr=strchr(satr,'0');

```

amallarini bajarilishida pSatr ko'rsatgichi satr satrining '01112' satr ostining boshlanishiga ko'rsatadi.

strspn() funksiyasi ikkita satrni belgilarni solishtiradi funksiya quyidagi ko'rinishdagi prototipga ega:

size_t strspn(const char* s1, const char* s2)

Funksiya s2 satrda uchramagan s1 satrdagi birinchi birinchi belgini indeksini beradi (registrni hisobga olgan holda):

```
char satr1[]="0123ab56789101112";
char satr2[]="01a23456789012345678";
int mos_belgilar;
mos_belgilar=strspn(satr1,satr2);
```

cout<<"Satrlardagi mos tushmagan belgini indexi= "<<mos_belgilar;

amallar bajarilishi natijasida ekranga "Satrlardagi mos tushmagan belgi indeksi= 5" satri chop etiladi.

strcspn() funksiyasi prototipi

size_t strcspn(const char* str1, const char* str2)

ko'rinishida bo'lib, u str2 satrdagi harkanday belgisi str1 satrda birinchi uchragan indeksini beradi. Masalan

```
char satr[]="Birinchi satr";
int index;
index=strcspn(satr,"sanoq tizimi");
```

amallar bajarilgandan keyin index o'zgaruvchisi 1 qiymatini qabul qiladi, chunki 1joydagi belgi ikkinchi satrning i belgisi bilan mos tushadi.

strupbrk() funksiyasi prototipi

char*strupbrk(const char* str1, const char* str2)

ko'rinishga ega bo'lib, u str1 satrdagi str2 satrga kiruvchi birorta belgini izlaydi va agar bunday element topilsa, uning adresi funksiya qiymati sifatida qaytariladi, aks holda funksiya NULL qiymati qaytaradi. Quyidagi misol funksiyani qanday ishlashini ko'rsatadi.

```
char satr1[]="0123456789ABCDEF";
char satr2[]="ZXYabcdefABC";
char* element;
element =strupbrk(satr1,satr2);
cout<<element<<'\n';
```

Dastur ishlashi natijasida ekranga str1 satrining "ABCDEF" satr ostisi chop etiladi.

Satr ostilarini izlash funksiyalari

Satrlar bilan ishlashda bir satrda ikkinchi bir satr ostining to'liq kirishini aniqlash bilan bog'liq masalalar uchraydi. Masalan, matn tahrirlaridagi satrdagi birorta satr ostini ikkinchi satr osti bilan almashtirish masalasi. Standart string.h kutubxonasi bu toifadagi masalalar uchun bir nechta funksiyalarni taklif etadi.

strstr() funksiyasi quyidagicha e'lon qilinadi:

char* strstr(const char* str, const char* substr)

Bu funksiya str satrini substr satr ostisi kirishi bo'yicha qarab chiqadi, agar substr satr ostisi str satriga to'liq kirishi mavjud bo'lsa, birinchi kirishdagi birinchi belgining adresi javob tariqasida qaytariladi, aks holda funksiya NULL qiymatini qaytaradi.

Quyidagi misol strstr() funksiyasini ishlatishni ko'rsatadi.

```
char satr1[]="Satrdan satr ostisi izlanmoqda, satr ostisi mavjud";
char satr2[]="satr ostisi";
char* satr_ostti;
satr_ostti = strstr(satr1,satr2);
cout<<satr_ostti<<'\n';
```

Dastur buyruqlari bajarilishi natijasida ekranga
"satr ostisi izlanmoqda, satr ostisi mavjud"

satri chop etiladi.

Keyingi dasturda bo‘lagida satr osti mavjud yoki yo‘qligini nazorat qilish holati ko‘rsatilagan:

```
char Ismlar[]="Alisher,Faxxod, Munisa, Erkin, Akmal, Nodira";
char Ism[10];
char* Satrdagi_ism;
cout<<"Ismni kriting: ";
cin>>Ism;
Satrdagi_ism = strstr(Ismlar,Ism);
cout<<"Bunaqa ism ru'yxatda ";
if(Satrdagi_ism==NULL) cout<<"yo'q ."<<'\n';
else cout<<"bor ."<<'\n';
```

Dasturda foydalanuvchidan satr osti sifatida birorta ismni kiritish talab qilinadi va bu qiymat Ism satriga o‘qiladi. Kiritilgan ism dasturda aniqlangan ro‘yxatda (Ismlar satri) bor yoki yo‘qligi aniqlanadi va xabar beriladi.

strtok() funksiyasi sintaksisi

char* strtok(char* str, const char* delim)

ko‘rinishda bo‘lib, u str satrida delim satr-ro‘yxatida berilgan ajratuvchilar oralig‘iga olingan satr ostilarni ajratib olish imkonini beradi. Funksiya bиринчи satrda иккинчи ro‘yxatdagi ajratuvchini uchratsa, undan keyin nol-terminatorni ('\0') qo‘yish orqali str satrni ikkiga ajratadi. Satrning qolgan qismidagi ajratuvchilar bilan “o‘rab olingan” satr ostilari topish uchun funksiyaga keyingi murojaatlarda bиринчи parametr o‘rniga NULL qiymatini qo‘yish kerak bo‘ladi. Quyidagi misolda satrni bo‘laklarga ajratish masalasi qaralgan:

```
#include <iostream.h>
#include <string.h>
using namespace std;
int main(){
char Ismlar[]="Alisher,Faxxod Munisa, Erkin? Akmal, Nodira";
    char Ajratuvchi[]=" ,!?.0123456789";
    char* Satrdagi_ism;
    Satrdagi_ism = strtok(Ismlar,Ajratuvchi);
    if(Satrdagi_ism) cout<<Satrdagi_ism<<'\n';
    while(Satrdagi_ism) {
        Satrdagi_ism= strtok(NULL,Ajratuvchi);
        if(Satrdagi_ism) cout<<Satrdagi_ism<<'\n'; }
    return 0; }
```

Dastur ishlashi natijasida ekranga Ismlar satridagi “ ” (probel), ‘,’ (vergul), ‘?’ (so‘roq belgisi) va ‘0’ (raqam) bilan ajratilgan satr ostilari – ismlar chop qilinadi:

Alisher
Faxxod
Munisa
Erkin
Akmal
Nodira

Mashg‘ulotini bajarish bo‘yicha topshiriqlar
Simvolli massivlarni va string turidagi o‘zgaruvchilarga doir masalalar

29-jadval

1.	Satrni juft o‘rinlarida nechta "u" harfi borligini aniqlaydigan dastur tuzing.
2.	Satrdagi i-o‘rinda joylashgan harfni o‘chiradigan dastur tuzing.
3.	Satrni teskarisini topadigan dastur tuzing.
4.	Matn berilgan. Matndagi so‘zlar sonini topadigan dastur tuzing. (So‘zlar probel bilan ajratilgan).
5.	Berilgan satrdan, berilgan belgini o‘chiradigan dastur tuzing.
6.	Berilgan satrda, berilgan so‘zni satr boshiga qo‘shadigan dastur tuzing.
7.	Satrdagi turli xil belgilar sonini topadigan dastur tuzing.
8.	Satrdagi eng uzun simmetrik qismini topadigan dastur tuzing.
9.	Satrdagi unli harflar sonini topadigan dastur tuzing.
10.	Ikkilik sanoq sistemasida berilgan sonni o‘nlik sanoq sistemasida o‘tkazadigan dastur tuzing. Ikkilikdagi son satrda beriladi, natija esa sonli bo‘ladi.
11.	Satrda eng ko‘p qatnashgan belgini topadigan dastur tuzing.
12.	Berilgan satrdagi birinchi harf satrda necha marta qatnashganligini topadigan dastur tuzing.
13.	Satrdagi katta harflar sonini topadigan dastur tuzing.
14.	Berilgan natural sondagi tartibda joylashgan ASCII jadvalidagi belgini topadigan dastur tuzing. (Masalan: N=65 Natija=>’A’).
15.	Satrdagi kichik harflarni katta harflarga almashtiradigan dastur tuzing. (Masalan: S=’Ali_akam_bormidi’ Natija=>’ALI_AKAM_BORMIDI’).
16.	Berilgan satrdan, berilgan so‘zni o‘chiradigan dastur tuzing.
17.	Berilgan ikkita satrdagi bir xil belgilar sonini aniqlaydigan dastur tuzing.
18.	Berilgan belgini ASCII jadvalida joylashgan o‘rinini topadigan dastur tuzing. (Masalan: A=’A’ Natija=>65).
19.	Berilgan satrdagi katta harflar sonini topadigan dastur tuzing.
20.	Berilgan satr simmetrik ekanligini aniqlaydigan dastur tuzing.
21.	Berilgan belgi harf, son, yoki oddiy belgiligini aniqlaydigan dastur tuzing.

22.	char turidagi A satrdagi so‘zlarni teskari tartibda B satrning har bir so‘zidan keyin qo‘shuvchi dastur tuzing.
23.	char turidagi A satrni juft o‘rinda turgan gaplaridan keyin B satrni toq o‘rinda turgan gaplarini qo‘shadigan dastur tuzing.
24.	char turidagi A satrni toq o‘rinda turgan so‘zlaridan keyin, shu so‘zlarning katta harlardagi nusxasini joylashtiruvchi dastur tuzing.
25.	char turidagi A satrni har N ta so‘zdan keyin kelgan so‘zlarni o‘chiruvchi va ushbu so‘zlarni teskarisiga chiqaruvchi qo‘shadigan dastur tuzing.
26.	char turidagi A satrni har-bir so‘zining N ta harfidan keyin kelgan harfni o‘chiruvchi va ushbu harfni o‘rniga “o‘chirilgan” so‘zini qo‘shadigan dastur tuzing.
27.	char turidagi A satrni har N- so‘zini katta harfga o‘zgartiruvchi va ushbu so‘zlarni teskari holatga o‘zagrtiruvchi dastur tuzing.
28.	char turidagi A satrda B sarning harflari uchrasa, ularni o‘chiradigan va o‘chirilgan harflardan B satrni tashkil qiladigan dastur tuzing.
29.	char turidagi A satrdagi har bir so‘zni teng yarmini o‘chiradigan dastur tuzing.

30.	char turidagi A satrdagi har bir so‘zni teng yarmini B satrdagi har bir so‘zning yarmiga qo‘sib S tarni hosil qiluvchi dastur tuzing.
31.	char turidagi A satrdagi har bir so‘zni 2- harfini B satrdagi har bir so‘zning 3- harfi bilan almashtirish natijasida S satrini hosil qiluvchi dastur tuzing.
32.	char turidagi A satrdagi har bir iboraning 2- so‘zini B satrdagi har bir iboraning 3- so‘zi bilan almashtirish natijasida S satrini hosil qiluvchi dastur tuzing.
33.	char turidagi A satrdagi har bir verguldan keyin, B satrdagi har bir verguldan oldingi 2- so‘zi joylashtirish natijasida S satrini hosil qiluvchi dastur tuzing.
34.	char turidagi A satrdagi har bir verguldan oldin, B satrdagi o‘zlarni joylashtirish natijasida S satrini hosil qiluvchi dastur tuzing.
35.	char turidagi satrdan raqamli simvollarni o‘chiradigan dastur tuzing.
36.	char turidagi satrdan juft uzunlikdagi so‘zlarni o‘chiradigan dastur tuzing.
37.	char turidagi satrdan tub uzunlikdagi so‘zlarni o‘chiradigan dastur tuzing.
38.	char turidagi satrdan juft uzunlikdagi so‘zlarni toq uzunlkdagisi so‘zlar bilan almashtiradigan dastur tuzing.
39.	char turidagi satrdan Unli harflarni o‘chiradigan va ushbu o‘chirilgan harflardan S tarini tashkil qiladigan dastur tuzing.
40.	char turidagi satrdan Unli harflari bor so‘zlarni o‘chiradigan dastur tuzing.
41.	char turidagi satrdan Undosh harflari bor so‘zlarni o‘chiradigan dastur tuzing.
42.	char turidagi satrdan tub uzunlikdagi so‘zlarni juft uzunlkdagisi so‘zlar bilan almashtiradigan dastur tuzing.
43.	char turidagi satrdan N uzunlikdagi va M uzunlkdagisi so‘zlardan yangi satr hosil qiluvchi dastur tuzing.

12. KENGAYTIRILGAN BELGILARDAN FOYDALANISH USULLARI

Ishning maqsadi: Simvolli massiv elementlariga qayta ishlov beruvchi funksiyalar va ularningishlash usullari bilan tanishsish.

Nazaraiy qismi.

String turidagi satrlar bilan ishlash

Bu tur ko'shimcha bulib kirilgan va string klassi deb elon qilingan, bu tur AnsiString berilganlarni elon qilish uchun ishlataladi, va bunday satrlar “\0” belgichi bilan tugallanmaydi, string turi bilan ishlash ancha kulayliklar yaratadi chunki ularni uzunligi dinamik ravishda amallar natijasida o'zgaradi.

String turini kuyidagicha elon qilish mumkin:

```
String s1,s2,s3;
```

Bunday satrlar uchun amallar va usullar(fuksiyalar) kiritilgan.

String satrga boshlang'ich qiymatlar xar xil usullar orqali berish mumkin:

```
String s1="birinchi usul";
```

```
String s2("ikkinchi usul");
```

```
String s3(s2);
```

```
String s4=s2;
```

Bu tur uchun qiymat berish amali bir nechta:

```
String s1,s2,s3; char *str="misol";
```

```
s1="kiymat berish 1 usul"; // satrli konstanta yuklanyabdi;
```

```
s2=str; // char turidagi satr yuklanyabdi
```

```
s3='A'; // bitta belgi yuklanyabdi
```

```
s3=s3+s1+s2+"0123abc"; // satrli ifoda.
```

String turidagi satrlar ustidan bir nechta amallar mavjud:

30-jadval

Amal	Amaliyot	Misol
=, +=	Qiymat berish amali	s=""satr01234" s+="2satr000"
+	Satrlarni ulash (konkantenatsiya)	s1+s2
==, !=, <, <=, >, >=	Satrlarni solishtirish amallari	S1==s2 s1>s2 && S1!=s2
[]	Indeks berish	S[4]
<<	Chiqarish	Cout << s
>>	Kiritish	Cin>>s (probegacha)

Satr elementiga yana boshka usullar bilan murojaat qilish mumkin:

```
string s1=" satr misoli ";
cout << s.at(3) // natijada "r" belgisi ekranga chiqadi.
```

Bu amallar butun satr ustidan ishlash uchun yetarlidir, birok satr qismi bilan ishlamoqchi bo‘lsangiz bir to‘plam usullar bilan foydalanishingiz mumkin.

Chuni aytib o‘tish kerakki bu tur bilan ishlaydigan fuksiyalar usullar orqali chaqiriladi va albatta biror elon qilingan o‘zgaruvchi(obekt) satrga tegishli bo‘ladi, bunday satr chaqiruvchi deyiladi va u usulni ismini boshida nukta bilan ajratib yoziladi.

Satr qismini boshqa satrga berish fuksiyasi

Bir satr qismini boshka satrga yuklash uchun kuyidagi fuksiyalarni ishlatish mumkin, ularni prototipi kuyidagicha:

```
assign (const string &str);  
assign(const string & str,unsigned int pos,unsigned int n);  
assign(const char *str, int n).
```

Birinchi fuksiya qiymat berish amal bilan ekvivalentdir: str string turidagi satr o‘zgaruvchi yoki satr konstantani chaqiruvchi satrga beradi:

```
string s1,s2;  
s1=”birinchi satr”;  
s2.assign(s1); // s2=s1 amalga ekvivalent
```

Ikkinci fuksiya chaqiruvchi satrga pos o‘rnidan n ta belgidan iborat bo‘lgan str satr qismini beradi. Agarda pos str satrni uzunligada katta bo‘lsa xato deb ogxlantiradi, agar pos+n str satr uzunligidan katta bo‘lsa, pos dan boshlab satrni oxirigacha bo‘lgan belgilarni beriladi bunday koyda barcha usullar uchun ishlatiladi. Misol:

```
string s1,s2,s3;  
s1=”0123456789”;  
s2.assign(s1,4,5); // s2=”45678”  
s3.assign(s1,2,20); // s3=”23456789”
```

Uchinchi shakl eski turdagini str satrni yangi turdagini chaqiruvchi satrga beradi:

```
char * strold;  
cin.getline (strold,100); // strold=”0123456789”; satr kiritiladi  
string s1,s2;  
s2.assign(strold,6); // s2=”012345”  
s3.assign(strold,20); // s3=”0123456789”
```

Satr qismini boshqa satrga qo‘shish funksiyasi

Satr qismini boshka satrga qo‘shish funktsiyalari kuyidagicha:

```
append (const string &str);  
append(const string & str,unsigned int pos,unsigned int n);  
append (const char *str, int n).
```

Bu funktsiyalarni yuqorida ko‘rsatilga mos funktsiyalardan farqi - chaqiruvchi satrni oxiriga str sarni o‘zini yoki qismini ulab ketadi.

```
char * sc;  
cin.getline (sc,100); // ss=”0123456789” satr kiritiladi  
string s1,s2;  
s2=sc; s1=”misol”; s=”aaa” // s2=”0123456789”  
s2.append(“abcdef”); // s2+=”abcdef” va s2=”0123456789abcdef”  
s1.append(s2,4,5); // s1=”misol45678”  
s.append(ss,5); // s=”aaa012345”
```

Satr qismini boshqa satrga joylashtirish funksiyasi

Bir satrga ikkinchi satrni qismini joylashtirish uchun kuyidagi funktsiyalarni ishlatiladi:

```

insert (unsigned int pos1, const string &str);
insert (unsigned int pos1, const string & str,unsigned int pos2,unsigned int n);
insert (unsigned int pos1, const char *str, int n).

```

Bu fuksiyalar append kabi ishlaydi , faqat ko‘rsatilgan o‘rnidan str satr qismini chaqiruvchi satrga qo‘shib qo‘yadi. Misol

```

char * sc;
cin.getline (sc,100);           // sc="0123456789" satr kiritiladi
unsigned int i=3;
string s1,s2,s;
s2=sc; s1="misollar"; s="xyz"; // s2="0123456789"
s2.insert(i,"abcdef");         // s2="012abcdef3456789"
s1.insert(i-1,s2,4,5);          // s1="mi45678sollar"
s.insert(i-2,sc,5);             // s="x01234yz"

```

Satr qismini o‘chirish funksiyasi.

Satrni ma’lum qismini o‘chirish uchun kuyidagi funktsiyani ishlatish mumkin:

```
erase ( unsigned int pos=0, unsigned int n=npos)
```

Bu funktsiya chaqiruvchi sartdan pos o‘rnidan boshlab n ta belgin o‘chirib tashlaydi , agarda pos qo‘rsatilmasa boshidan boshlab o‘chiradi, agar n ko‘rsatilmasa satrni oxirigacha bo‘lgan belgilar o‘chiriladi:

```

string s1,s2,s3;
s1="0123456789"; s2=s1;s3=s1;
s1.erase(4,5);           // s1= "01239"
s2.erase(3);             // s2= "012"
s3.erase();               // s3= ""
void clear() funktsiyasi chakiruvchi satrni to‘liq tozalaydi masalan
s1.clear(); shunda s1 ni qiymati bo‘sh bo‘ladi.

```

Satr qismini alishtirish funksiyasi.

aqiruvchi satrni qismini o‘rniga boshqa sartning qismini qo‘yish uchun kuyidagi funktsiyalar bilan foydlanish mumkin:

```
replace (unsigned int pos1, unsigned int n1, const string &str);
```

```
replace (unsigned int pos1, unsigned int n1, const string & str,unsigned int pos2,unsigned int n2);
```

```
replace (unsigned int pos1, unsigned int n1,const char *str, int n).
```

Bu fuksiyalar insert kabi ishlaydi , faqat chaqiruvchi satrda ko‘rsatilgan o‘rnidan n belgini o‘rniga str satr qismini qo‘yadi. Misol

```

char * sc="0123456789"; // sc="0123456789" satr kiritiladi
unsigned int i=3, j=2;
string s1,s2;
s2=sc; s1="misollar"; s="xyz"; // s2="0123456789"
s2.replace(i,j,"abcdef");      // s2="012abcdef 56789"
s1.replace(i-1,j+1,s2,4,5);    // s1="mi45678lar"
s.replace(i-2,j+2,sc,5);       // s="x012345"

```

Ikki satrni qiymatlarini to‘liq almashtirish uchun swap(string &str); funktsiya ishlatiladi. Masalan

```

string s1,s,s2;
s1="01234";

```

```
s2="98765432";
s1.swap(s2) ; // s2="01234" s1="98765432" ~ s=s1;s1=s2;s2=s1
```

Satrni qismini ajratish funksiyasi

Funktsiya prototipi kuyidagicha:

```
string substr( unsigned int pos=0, unsigned int n=npos ) const;
```

Bu funktsiya chaqiruvchi sartdan pos o‘rnidan boshlab n ta belgin natija sifatida qaytaradi, agarda pos qo‘rsatilmasa boshidan boshlab ajratadi, agar n ko‘rsatilmasa satrni oxirigacha bo‘lgan belgilarni qaytariladi:

```
string s1,s2,s3;
s1="0123456789"; s2=s1;s3=s1;
s2= s1.substr(4,5); // s2="45678"
s3=s1.substr(3); // s3="3456789"
cout << s1.substr(1,3)+s1.substr() ; // "1230123456789" satr ekranga chiqadi.
```

Satrni eski turga o‘tkazish.

String turidagi satrni eski char turiga o‘tkazish uchun **const char * c_str()** const funksiyani ishlatalish kerak bu funksiya char turdagiga \0 belgisi bilan tugaydigan satrga konstantali ko‘rsatkichni kaytaradi:

```
Char *s1; string s2="0123456789";
s1=s2.c_str();
```

Xuddi shunday eski turga

Const char * data() const funksiya xam o‘tkazadi lekin satr oxiriga \0 belgisi qo‘shilmaydi.

Satrni qismini qidirish funksiya lari.

Satr qismini qidirish uchun ko‘p funksiya lar bor, biz asosiy funksiya larni qiskacha keltiramiz:

```
unsigned int find(const string &str, unsigned int pos=0) const;
```

bu funksiya ko‘rsatilgan joydan boshlab str satrni chaqiruvchi satrda qidiradi va eng chap uchragan joyni ost indeksini qaytaradi aks xolda maksimal musbat butun npos sonni qaytaradi (npos=4294967295), agar izlash o‘rni berilmasa boshidan boshlab izlaydi;

```
unsigned int find(char c,unsigned int pos=0) const;
```

bu funksiya oldingidan farqi u s belgisini izlaydi;

```
unsigned int rfind(const string &str, unsigned int pos=npos) const;
```

bu funksiya ko‘rsatilgan o‘rnigacha eng o‘ng uchragan joyini indeksini qaytaradi, agar topaolmasa npos qaytaradi, agar pos ko‘rsatilmasa satr oxirigacha izlaydi;

```
unsigned int rfind(char c,unsigned int pos=npos) const;
```

bu funksiya oldingidan farqi u s belgisini izlaydi;

```
unsigned int find _first_of (const string &str, unsigned int pos=0) const;
```

bu funksiya ko‘rsatilgan joydan boshlab str satrni xar qanday belgisi chaqiruvchi satrda qidiradi va eng chap uchragan joyni ost indeksini qaytaradi aks xolda npos sonni qaytaradi.

```
unsigned int find _first_of (char c, unsigned int pos=0) const;
bu funksiya oldingidan farqi u s belgisini izlaydi;
```

```
unsigned int find _last_of (const string &str, unsigned int pos=npos) const;
```

bu funksiya ko‘rsatilgan joydan boshlab str satrni xar qanday belgisi chaqiruvchi satrda qidiradi va eng o‘ng uchragan joyni ost indeksini qaytaradi aks xolda npos sonni qaytaradi.

```
unsigned int find _last_of (char c, unsigned int pos=npos) const;
```

bu funksiya oldingidan farqi u s belgisini izlaydi;

unsigned int find _first_not_of (const string &str, unsigned int pos=0) const;
bu funksiya ko'rsatilgan joydan boshlab str satrni barcha beligilariga o'xshamagan belgini chaqiruvchi satrda qidiradi va eng chap uchragan joyni ost indeksini qaytaradi aks xolda npos sonni qaytaradi.

unsigned int find _first_not_of (char c, unsigned int pos=0) const;
bu funksiya oldingidan farqi u s belgisiga o'xshamagan belgini izlaydi;
unsigned int find _last_not_of (const string &str, unsigned int pos=npos) const;
bu funksiya ko'rsatilgan joydan boshlab str satrni barcha beligilariga o'xshamagan belgini chaqiruvchi satrda qidiradi va eng o'ng uchragan joyni ost indeksini qaytaradi aks xolda npos sonni qaytaradi.

unsigned int find _last_not_of (char c, unsigned int pos=npos) const;
bu funksiya oldingidan farqi u s belgisiga o'xshamagan belgini izlaydi;
Har bir funksiya eski turdag'i satrni izlash uchun varianti mavjud.
Qidirish funksiyalarga oyid misol:

```
#include <iostream.h>
#include <conio.h>
using namespace std;
int main(){
    string s1="01234567893456ab2csef",s2 ="456",s3="ghk2";
    int i, j;      i=s1.find(s2);          j=s1.rfind(s2);
    cout << i;                // 4
    cout << j;                // 11
    cout << s1.find('3') << endl;        // 3
    cout << s1.rfind('3') << endl;        // 10
    cout << s1.find_first_of (s3) << endl;    // 2
    cout << s1.find_last_of (s3) << endl;    // 16
    cout << s1.find_first_not_of (s2) << endl; // 14
    cout << s1.find_last_not_of (s2) << endl; // 20
    getch(); }
```

Satrni qismini solishtirish

Satrlarni to'liq solishtirish uchun solishtirish amallari ishlatiladi, qismini solishtirish uchun compare funksiyasi ishlatiladi:

```
int compare ( const string &str) const;
int compare (unsigned int pos1, unsigned int n1, const string & str) const;
int compare (unsigned int pos1, unsigned int n1, const string & str, unsigned
int pos2, unsigned int n2) const;
```

Funksiya ni birinchi shakli ikki satrni butunlay solishtiradi va manfiy son qaytaradi chaqiruvchi satr str dan kichik bo'lsa, 0 qaytaradi agar ular teng bo'lsa va musbat son qaytaradi chaqiruvchi satr katta bo'lsa.

Ikkinci shaklda xudii oldingiday amallar bajariladi faqat chaqiruvchi satrni pos1 o'rnidan boshlab n1 ta belgili satr str satr bilan solishtiriladi.

Uchinchi shaklda chaqiruvchi satrdan pos1 o'rnidan boshlab n1 ta belgi va str satrdan ros2 o'rnidan boshlab n2 ta belgi o'zaro solishtiriladi.

Yangi va eski turdag'i satrlarni solishtirish yuqorida ko'rsatilganday funksiyalar mavjud. Misol:

```
#include <iostream.h>
#include <conio.h>
```

```

using namespace std;
int main(){
    string s1="01234567893456ab2csef",s2 ="456",s3="ghk";
    cout << "s1=" << s1 << endl;
    cout << "s2=" << s2 << endl;
    cout << "s3=" << s3 << endl;
    if (s2.compare(s3)>0) cout << "s2>s3" << endl;
    if (s2.compare(s3)==0) cout << "s2=s3" << endl;
    if (s2.compare(s3)<0) cout << "s2<s3" << endl;
    if (s1.compare(4,6,s2)>0) cout << "s1[4-9]>s2" << endl;
    if (s1.compare(5,2,s2,1,2)==0) cout << "s1[5-6]=s2[1-2]" << endl;
    getch(); }

```

Satrni xususiyatlarini aniqlash funksiyalari

String sinfida satrini uzunligi, bo'shligi va xotira xajmini aniqlaydigan funksiyalar bor.

unsigned int size() const;	// chaqiruvchi satrni xotiradagi xajmi
unsigned int length() const;	// chaqiruvchi satrni elementlar soni
unsigned int max_size() const;	// satrni max uzunligi
unsigned int capacity() const;	// satr egallagan xotira xajmi
bool empty() const;	// Rost agar satr bo'sh bo'lsa

Mashg'ulotini bajarish bo'yicha topshiriqlar Satrli massivlar (String).

31-jadval

1	String turidagi Satr berilgan. Undagi unli harflarni char turidagi A massivga, undoshlarini B massivga o'zlashtiruvchi dastur tuzing.
2	String turidagi Satr berilgan. Undagi ketma-ket kelgan unli harflarni char turidagi A massivga, undoshlarini B massivga o'zlashtiruvchi dastur tuzing.
3	String turidagi Satr berilgan. Undagi elementlarni byte turidagi A massivga joylashtirib, o'sish tartibida saralovchi, B massivga kamayuvchi tartibida saralovchi dastur tuzing.
4	String turidagi Satr berilgan. Undagi elementlarni byte turidagi A massivga joylashtirib, ixtiyoriy elementdan keyingi elementlarni chiqaruvchi dastur tuzing.
5	String turidagi Satr berilgan. Undagi elementlarni byte turidagi A massivga joylashtirib, yangi metodning 2 ta parametrлари о'rtasidagi elementlarni chiqaruvchi dastur tuzing. Agar bunday element mavjud bo'lmasa "Bunday element mavjud emas" yozuvi chiqsin.
6	String turidagi Satr berilgan. Undagi elementlarni byte turidagi A massivga joylashtirib, toq elementlarini B massivga, juftlarni C massivga joylashtiruvchi dastur tuzing.
7	String turidagi Satr berilgan. Undagi elementlarni byte turidagi A massivga joylashtirib, tub elementlarini B massivga joylashtiruvchi dastur tuzing.
8	String turidagi Satr berilgan. Undagi elementlarni byte turidagi A massivga joylashtirib, eng katta tub elementni topuvchi dastur tuzing.
9	String turidagi Satr berilgan. Undagi elementlarni char turidagi A massivga joylashtirib, so'zlar, gaplar sonini aniqlovchi dastur tuzing.
10	String turidagi Satr berilgan. Undagi elementlarni char turidagi A massivga alfavit bo'yicha, byte turidagi B massivga o'sish tartibida joylashtiruvchi dastur tuzing.

11	String turidagi Satr berilgan. Undagi elementlarni char turidagi A massivga joylashtirib, ixtiyoriy satr mavjudligini aniqlovchi dastur tuzing.
12	String turidagi Satr berilgan. Undagi elementlarni char turidagi A massivga joylashtirib, toq uzunlikdagi va juft uzunlikdagi so‘zlar sonini aniqlovchi dastur tuzing.
13	String turidagi Satr berilgan. Undagi elementlarni char turidagi A massivga joylashtirib, tub uznlikdagi so‘zlar sonini aniqlovchi dastur tuzing.
14	String turidagi Satr berilgan. Undagi elementlarni char turidagi A massivga joylashtirib, polindrom so‘zlar sonini aniqlovchi dastur tuzing.
15	String turidagi Satr berilgan. Undagi elementlarni byte turidagi A massivga joylashtirib, do‘s t sonlar mavjudligini aniqlovchi dastur tuzing.
16	String turidagi Satr berilgan. Undagi elementlarni char turidagi A massivga joylashtirib, eng ko‘p takrorlangan harfni va sonini aniqlovchi dastur tuzing.
17	String turidagi Satr berilgan. Undagi elementlarni char turidagi A massivga joylashtirib, eng kam takrorlangan harfni va uni sonini aniqlovchi dastur tuzing.
18	String turidagi Satr berilgan. Undagi elementlarni char turidagi A massivga joylashtirib, eng ko‘p takrorlangan harflarni olib tashlovchi dastur tuzing.
19	String turidagi Satr berilgan. Undagi elementlarni char turidagi A massivga joylashtirib, H – O harflari oralig‘idagi harflarni olib tashovchi dastur tuzing.
20	String turidagi Satr berilgan. Undagi elementlarni char turidagi A massivga joylashtirib, so‘zlar uzunligi yig‘indisini aniqlovchi dastur tuzing.
21	String turidagi Satr berilgan. Undagi elementlarni char turidagi A massivga joylashtirib, bir xil uzunlikdagi so‘zlar sonini aniqlovchi dastur tuzing.
22	String turidagi Satr berilgan. Undagi elementlarni char turidagi A massivga joylashtirib, har - xil uzunlikdagi so‘zlar sonini aniqlovchi dastur tuzing.

32-jadval

1	Talabalar haqida, String turida ma’lumotlar berilgan(class Talaba). Ixtiyoriy talabani (FIO) si bo‘yicha qidirib topuvchi dastur tuzing.
2	Kitoblar haqida, String turida ma’lumotlar berilgan(class Kitob). Ixtiyoriy kitobni nomi, avtori va yili bo‘yicha qidirib topuvchi dastur tuzing.
3	Stol va stullar haqida, String turida ma’lumotlar berilgan(class Sto_stul). Ixtiyoriy stol va stulni 6 ta parametri bo‘yicha qidirib topuvchi dastur tuzing.
4	Sinf xonalari haqida, String turida ma’lumotlar berilgan(class Classroom). Ixtiyoriy sinf-xonani nomeri va band yoki band emasligi bo‘yicha qidirib topuvchi dastur tuzing.
5	Avtomobillar haqida, String turida ma’lumotlar berilgan(class Avto). Ixtiyoriy avtomobilni 6 ta parametri bo‘yicha qidirib topuvchi dastur tuzing.
6	Muzeylar haqida, String turida ma’lumotlar berilgan(class Museum). Ixtiyoriy muzeyni 6 ta parametri bo‘yicha qidirib topuvchi dastur tuzing.
7	Sport komplekslari haqida, String turida ma’lumotlar berilgan(class Sppt_compleks). Ixtiyoriy sport kompleksini 6 ta parametri bo‘yicha qidirib topuvchi dastur tuzing.
8	Mashxur insonlar haqida, String turida ma’lumotlar berilgan(class Famous_person). Yaratilgan kashfiyotlarning nomi bo‘yicha Mashxur insonlarni qidirib topuvchi dastur tuzing.

9	Universitetlar haqida, String turida ma'lumotlar berilgan(class University). Ixtiyoriy universitetni 6 ta parametri bo'yicha qidirib topuvchi dastur tuzing.
10	Litseylar haqida, String turida ma'lumotlar berilgan(class Lyceums). Ixtiyoriy Litseyni 6 ta parametri bo'yicha qidirib topuvchi dastur tuzing.
11	Mashxur futbolistlar haqida, String turida ma'lumotlar berilgan(class Famous_futballer). Eng ko'p urilgan gollar, sariq va qizil kartochkalar, chiroyli va muhim gollari bo'yicha mashxur futbalistni qidirib topuvchi dastur tuzing.
12	Kompyuterlar haqida, String turida ma'lumotlar berilgan(class Computers). Ushbu kompyuterlarning qaiysi birlari kompyuter o'yinlarini qo'llab quvvatlashishini va ularning sonini aniqlovchi dastur tuzing.
13	Telefonlar haqida, String turida ma'lumotlar berilgan(class Telephone). Ixtiyoriy telefonni 6 ta parametri bo'yicha qidirib topuvchi dastur tuzing.
14	Restoranlar haqida, String turida ma'lumotlar berilgan(class Restaurants). Ixtiyoriy restoranni 6 ta parametri bo'yicha qidirib topuvchi dastur tuzing.
15	Taomlar haqida, String turida ma'lumotlar berilgan(class Meal). Ixtiyoriy taomni 6 ta parametri bo'yicha qidirib topuvchi dastur tuzing.
16	Hayvonlar haqida, String turida ma'lumotlar berilgan(class Hayvon). Ixtiyoriy hayvonni 6 ta parametri bo'yicha qidirib topuvchi dastur tuzing.
17	Parrandalar haqida, String turida ma'lumotlar berilgan(class Parranda). Ixtiyoriy parrandani 6 ta parametri bo'yicha qidirib topuvchi dastur tuzing.
18	A'lochi talabalar haqida, String turida ma'lumotlar berilgan(class Alocilar). Ixtiyoriy a'lochi talabani 6 ta parametri bo'yicha qidirib topuvchi dastur tuzing.
19	Uy hayvonlari haqida, String turida ma'lumotlar berilgan(class Yu_hayvon). Ixtiyoriy hayvoni 6 ta parametri bo'yicha qidirib topuvchi dastur tuzing.
20	Kompyuter o'yin dasturlari haqida, String turida ma'lumotlar berilgan(class Games). Ixtiyoriy kompyuter o'yinini 6 ta parametri bo'yicha qidirib topuvchi dastur tuzing.
21	Past o'zlashtiruvchi talabalar haqida, String turida ma'lumotlar berilgan(class Passiv). Eng past o'zlashtiruvchi talabani 6 ta parametri bo'yicha qidirib topuvchi dastur tuzing.
22	Viloyatlar haqida, String turida ma'lumotlar berilgan(class Viloyatlar). Ixtiyoriy viloyatni 6 ta parametri bo'yicha qidirib topuvchi dastur tuzing.

13. FAYLLAR VA FAYLLAR BILAN ISHLASH

Ishning maqsadi: C++ dasturlash tilida matnli fayllar yaratishni va ularni qayta ishlashni o‘rganish. Fayllar bilan ishlash ko‘nikmalarini oshirish.

Masalaning qo‘yilishi. Har bir talaba guruh ro‘yxatidagi tartib raqami bo‘yicha quyidagi jadvallarda berilgan topshiriqlarni bajaradi. Dastur matni va dastur natijasini hisobot shaklida topshiradi.

Masala: Berilgan nomdagi matnli faylni yaratish va unga ixtiyoriy so‘z kiritish dasturini tuzing. So‘zdagи harflarni alifbo tartibida saralang.

Masalani yechish g‘oyasi: Xotiradan char tipli fayl nomi uchun sig‘imi 50ta simvol bo‘lgan fayl_nomi nomli o‘zgaruvchi e’lon qilamiz. String tipli 2 ta suz va suz1 o‘zgaruvchilarini e’lon qilamiz, bular so‘z kiritishimiz va kiritgan so‘zimizni alifbo bo‘yicha tartiblashimiz uchun zarur bo‘ladi. Scanf operatori yordamida fayl_nomi nomli o‘zgaruvchiga qiymat biriktiramiz. Keyingi qadamda ofstream oqim klasidan fayl nomli obyekt e’lon qilinadi. Yaratilgan fayl nomli obyekt yordamida standart open() funksiyasiga murojaat qilinadi. Bunda open() funksiyasiga parametr sifatida faylni nomi va kengaytmasini o‘zida saqlagan fayl_nomi o‘zgaruvchisini beramiz. Keyingi qadamda avvaldan e’lon qilingan suz o‘zgaruvchisiga cin operatori yordamida ixtiyoriy biror so‘zni qiymat qilib kiritiladi. suz1 o‘zgaruvchiga uni nusxalab qo‘yamiz. Int tipida biror o‘zgaruvchi olamiz, masalan k. Unga suz1 ni uzunligini length() funksiyasi yordamida qiymat sifatida olamiz. Shundan so‘ng kiritilgan so‘zni alifbo bo‘yicha saralaymiz. Bunda harflarning ASCII kodida turgan o‘rni bo‘yicha saralash bajariladi. Saralash tugatilgandan so‘ng if shart operatori bilan is_open() funksiyasini qo‘llab fayl ochilganligini tekshirib olinadi. Agar fayl ochilgan bo‘lsa avval saralanmagan so‘z va keyin saralangan so‘z faylga yoziladi, aks holda “Fayl yaratishda xatolik sodir bo‘ldi” yozuvini ekranda chop qilinadi. Keyingi qadam close() funksiyasini qo‘llab faylni yopamiz. Oxirida shunchaki xabar sifatida “Dastur muvoffaqiyatlari bajarildi” xabarini ekranda chop qilamiz.

Dastur matni:

```
#include<iostream>
#include<fstream>
#include<string.h>
using namespace std;
int main(){
    char fayl_nomi[50];
    string suz, suz1;
    printf("Matnli fayl nomini kriting:");
    scanf("%s",&fayl_nomi);
    ofstream fayl;
    fayl.open(fayl_nomi);
    cout<<"Ixtiyoriy so‘z kriting:";  cin>>suz;
    suz1=suz;
    int k=suz1.length();
    for (int i = 0; i < k; i++)
        for (int j = 0; j < k; j++) {
            if (suz1[i] < suz1[j]) {
                char buf = suz1[j];
                suz1[j] = suz1[i];
                suz1[i] = buf;      }      }
    if (fayl.is_open()){


```

```

fayl<<suz<<endl;
fayl<<suz1;
} else cout<<"Fayl yaratishda xatolik sodir bo'ldi\n";
fayl.close();
cout<<"\nDastur o'z ishini tugatdi!"; }

```

Dastur natijasi:

Mashg'ulotini bajarish bo'yicha topshiriqlar

33-jadval

Nº	Masalaning sharti
1	Berilgan nomdagi matnli faylni yaratish va unga o'nta belidan iborat satr kiritish dasturini tuzing. Unda 'a' belgisi necha marta uchrashini aniqlang.
2	Berilgan nomdagi matnli faylni yaratish va unga 20 ta belidan iborat satr kiritish dasturini tuzing. Satrdagi raqamlar miqdorini aniqlang.
3	Berilgan nomdagi matnli faylni yaratish va unga ixtiyoriy so'z kiritish dasturini tuzing. Uni palindromlikka tekshiring
4	Berilgan nomdagi matnli faylni yaratish va unga satr kiritish dasturini tuzing. Satrdagi barcha '*' belgilarni o'chiring
```

```

poly_phone = (phone *) &city_phone;
poly_phone->dial("212-555-1212"); }

```

Dastur bajarilishi natijasida ekranga kuyidagi ma'lumotlar hosil buladi:
S:> POLYMORP <ENTER>

Nabor nomera 818-555-1212
Pik pik Nabor nomera 303-555-1212
Pojaluysta, oplatite 25 tsentov
Nabor nomera 212-555-1212

Mashg'ulotini bajarish bo'yicha topshiriqlar

37-jadval

№	Topshiriq
1.	<p>"Avtomobil" klassini yarating. Maydonlari: <i>Nomi, maksimal tezligi(km/s)</i>, narx. Konstruktor orqali faqat nomi va maksimal tezligini kriting. Ikkita virtual metod yarating: "Narx" metodi – mashina narxini quyidagi formula bilan hisoblaydi: maksimal tezlik * 100 \$(AQSH dollari hisobida) va "Modelni yangilash" metodi maksimal tezlikni 10 km/s ga oshiradi. Bundan tashqari, obyekt haqida ma'lumotlarni chop qiluvchi "Axborot" metodini yarating: Nomi, maksimal tezlik va narx.</p> <p>Bundan tashqari, "Zamonaviy avtomobil" nomli avlod klass yarating. Maydonlarini ajdod klass dan qabul qilsin. Qayta yuklangan 2 ta metodi mavjud: "Narx" metodi – mashina narxini quyidagi formula bilan hisoblaydi: maksimal tezlik * 250 \$(AQSH dollari hisobida) va "Modelni yangilash" metodi maksimal tezlikni 25 km/s ga oshiradi.</p> <p>Asosiy dasturda Avtomobil klassidan 140 km/s maksimal tezlikka ega va Zamonaviy avtomobil avlod klassidan 160 km/s maksimal tezlikka ega bo'lgan obyektlar yarating. Avtomobillar haqida ma'lumotlarni ekranga chiqaring. Avtomobillarni modellarini yangilang va qayta ma'lumotlarni chop qiling.</p>
2.	<p>"Uchburchak" klassini yarating. Maydonlari: <i>uchta tomoni(a,b,c)</i>, P va S. Ikkita virtual metodi "Perimetr" va "Yuza". Shuningdek, obyekt haqida ma'lumotlarni chop qiluvchi "Axborot" metodini yarating: uchta tomoni, perimetri va yuzasi.</p> <p>Bundan tashqari, "To'g'ri to'rtburchak" nomli avlod klassini yarating. Qo'shimcha parametrlari - to'rtinchchi tomon uzunligi (d), diagonal uzunliklar (e, f). Qayta yuklangan "Perimetr" va "Yuza" nomli metodlar yarating(to'rtburchak uchun). Shuningdek, obyekt haqida ma'lumotlarni chop qiluvchi "Axborot" metodini yarating: to'rtta tomoni, perimetri va yuzasi.</p> <p>Asosiy dasturda (yoki tugmani bosish) uchburchak klassining obyektini hamda to'rtburchak klassining obyektini yarating va ular haqida ma'lumotni ko'rsating. Sinov jarayonini soddalashtirish uchun to'rtburchak sifatida to'g'ri to'rtburchak qabul qilish tavsiya etiladi.</p>
3.	<p>"Kompyuter" klassini yarating. Maydonlari: <i>Protsessor chastotasi (MGts), yadro soni, operativ xotira hajmi (MB), qattiq disk hajmi (GB)</i>, narxi. Ikkita virtual metod yarating: "Narx" metodida quyidagi formula orqali taxminiy narxni hisoblang: protsessor chastotasi 2000 MGts, yadro soni 2 dan kam bo'lmasan operativ xotira hajmi kamida 2048 Mb va qattiq disk hajmi 320 Gb bo'lsa, Protsessor chastotasi * yadro soni / 100 + xotira miqdori / 80 + qattiq disk hajmi / 20 formula orqali narxni(\$ dollar hisobida) hisoblasin. Mantiqiy tur qaytaruvchi "Yaroqlilik" nomli metod yarating. Ushbu metod Protsessor chastotasi 2000 MGts, yadro soni 2 dan kam bo'lmasa, operativ xotirasini 2048 MB dan kam bo'lmasa va qattiq disk hajmi kamida 320 GB bo'lsa rost(true), aks holda yolg'on(false) qiymat qaytarsin. Bundan tashqari, kompyuterlar haqida ma'lumotlarni</p>

	<p>chop etuvchi “Print” metodini yarating: protsessor chastotasi, yadro soni, operativ xotira hajmi, qattiq disk hajmi, narxi va ehtiyojlarimiz uchun yaroqliligi.</p> <p>Shuningdek, “Noutbuk” nomli avlod klassini yarating. Qo’shimcha parametri – batareyaning ishlash muddati (daqiqada). Qayta yuklangan ikkita metod: “Narx” metodi oddiy kompyuterning narxiga teng miqdorga + batareya ishlash muddati daqiqalari soni * 10 (\$ dollar hisobida) ga teng bo’ladi va “Yaroqlilik” metodi oddiy kompyuter shartlarini bajarganda va batareya ishlash muddati 240 daqiqadan kam bo’lmaganda rost(true), aks holda yolg’on(false) qiymat qaytarsin. Bundan tashqari, kompyuterlar haqida ma'lumotlarni chop etuvchi “Print” metodini yarating: protsessor chastotasi, yadro soni, operativ xotira hajmi, qattiq disk hajmi, narxi va ehtiyojlarimiz uchun yaroqliligi.</p> <p>Asosiy dasturda kompyuter va noutbuk klasslarining obyektlarini yarating va ular haqidagi ma'lumotlarni namoyish qiling.</p>
4.	<p>“To‘g‘ri to‘rtburchak” klassini yarating. Maydonlari: <i>ikkita tomoni (a va b)</i>, ikkita virtual metod yarating: "Perimet" va "Yuza". Shuningdek, “Ikki marta oshirish” nomli virtual metod yozing, unda tomonlarini ikki martaga oshirish bajarilsin. “Nashrga” nomli metodda klass obyektlari haqida barcha ma'lumotlar chop etilsin: tomon uzunliklari, perimetr va yuzasi.</p> <p>Bundan tashqari, “Trapetsiya” nomli avlod klassini yarating. Qo’shimcha parametrlari – yon tomonlari. Qayta yuklangan ikkita metod: "Perimet" va "Yuza" (Teng yonli trapetsiya uchun). “Nashrga” nomli metodda klass obyektlari haqida barcha ma'lumotlar chop etilsin: tomon uzunliklari, perimetr va yuzasi.</p> <p>Shundan so’ng, ikkita to‘rtburchak haqida ma'lumotlarni kriting va ma'lumotlarni chop qiling. To‘g‘ri to‘rtburchak obyektini qayta ishlab va yangilangan ma'lumotlarni taqdim eting.</p>
5.	<p>“Fotoapparat” klassini yarating. Maydonlari: <i>Modeli, Optik yaqinlashtirishi (Zoom, 1 dan 35 gacha haqiqiy son) va materiali (metall yoki plastmassa)</i>. Virtual metod yozing: “Narx” metodi – fotoapparat narxini (\$ hisobida) qaytaradi, narx quyidagicha hisoblanadi: agar material plastmassa bo’lsa (Zoom + 2) • 10, agar metall bo’lsa (Zoom + 2) • 15. “Qimmat” nomli mantiqiy metod yozing, fotoapparat narxi 200\$ dan oshsa rost(true) qiymat aks holda yolg’on(false) qiymat qaytarsin. Bundan tashqari, obyekt haqida ma'lumotni ekranga chiqaruvchi “Print” nomli metod yozing: Model, Zoom, Narx va fotoapparat qimmat yoki yo‘qligi haqida habar chiqarsin.</p> <p>Bundan tashqari, “Sifrovoy” nomli avlod klass yarating. Qo’shimcha parametrlari – butun turli o’zgaruvchi megapiksellar soni. Qayta yuklangan “Narx” metodi odatiy fotoapparat narxidek hisoblanadi lekin unga megapiksellar sonini ko‘paytirish kerak bo’ladi. Yangi “Modelni yangilash” nomli metod yozing, unda megapiksellar soni 2 ga oshirilsin. Bundan tashqari, obyekt haqida ma'lumotni ekranga chiqaruvchi “Print” nomli metod yozing: Model, Zoom, Megapiksellar soni, Narx va fotoapparat qimmat yoki yo‘qligi haqida habar chiqarsin.</p> <p>Asosiy dasturda Fotoapparat klassidan 4x optik zoomli (Zoom = 4) va plastik meterialli, shuningdek, Sifrovoy fotoapparat klassidan metall meterialli 8 megapikselli va 3x optik zoomli obyektlarni yarating. Fotoapparatlar haqida ma'lumotlarni ekranga chiqarng. Sifrovoy fotoapparatni modelini yangilab qaytadan ma'lumotlarni ekranga chiqaring.</p>
6.	<p>“Talaba” klassini yarating. Maydonlari: <i>FIO, fakultet, kurs, sessiya, baholari [] (5 ballik tizimda)</i>, stipendiya. Virtual metodlarni yozing: “Keyingi kursga o’tish” metodi, sessiya qishki bo’lsa baholari 3 dan kam bo’lmagan holatda keyingi semestrga o’tkazilgani haqida aks holda qayta o‘qishga qolgani haqida habar chiqarsin. Sessiya</p>

yozgi bo'lsa baholari 3 dan kam bo'lmagan holatda keyingi kursga o'tkazadi, aks holda qayta o'qishga qolgani haqida habar chiqarsin, agar kurs 4 ga teng bo'lsa "Dimlom himoyasiga tayyorlaning" degan habar chiqarsin. "Stipendiya" metodi, baholariga qarab stipendiya summasini 2 lik(0 so'm), 3 lik(350000 so'm), 4 lik(500000), 5 lik(650000) qaytarsin. Shuningdek, talaba haqidagi ma'lumotlarni ekranga chiqaruvchu "Ma'lumot" metodini yozing: FIO, fakultet, kurs, stipendiyasi va sessiyadan o'tgan yoki o'tmaganligini chiqaring.

"Talaba-kontrakt" nomli avlod klass yarating. Qo'shimcha parametrleri – shartnoma pulini to'laganligi. Qayta yuklangan "Keyingi kursga o'tish" metodi Student klassidek tekshiriladi hamda kontrakt to'lagan bo'lsa kursdan kursga o'tkaziladi. "Stipendiya" metodi ham kontrakt to'lagan bo'lsa stipendiya chiqarsin aks holda (0 so'm) chiqarsin. Shuningdek, talaba haqidagi ma'lumotlarni ekranga chiqaruvchu "Ma'lumot" metodini yozing: FIO, fakultet, kurs, stipendiyasi, kontrakt to'laganligi va sessiyadan o'tgan yoki o'tmaganligini chiqaring.

Asosiy dasturda **Talaba** klassning va 2 ta **Talaba-kontrakt** klassini obyektlarini yarating(biri kontraktini to'lagan, biri to'lamagan). Talabalar ma'lumotlarini kiriting, so'ngra ularga "Keyingi kursga o'tish" metodini qo'llang va ular haqidagi barcha ma'lumotlarni chiqaring.

7. Odamlar suhbatini dasturiy jihatdan taqsimlash. **"Inson"** klassini yarating. Hammasi bo'lib jami 5 kishi bor. Har bir insonda ism (string) va yosh (raqam) mavjud. Har bir insonning yoshini - 20 dan 40 gacha bo'lgan tasodifiy son bilan belgilang va ismini quyidagi ro'yhatdan tasodifiy tanlang: "Aleksandr", "Andrey", "Anastasiya", "Irina", "Nataliya", "Pavel", "Roman", "Svetlana", "Sergey", "Tatiana". Har bir inson ikki ishni bajarishi mumkin:
- boshqa odamga salom berish;
 - o'zi haqida gapirishi mumkin.

Odamlar 3 turga (turli meros klasslarga) bo'lingan: 1 - ("Rasmiy insonlar") Hamma bilan shunday ko'rishadi: "Assalomu alaykum, <ism>", bu yerda <ism> - salomlashadigan shaxsning ismi. 2 - ("Norasmiy insonlar") Hamma bilan shunday ko'rishadi: "Salom, <ism>!". 3 - ("Realistlar") Agar suhbatdoshining yoshi kichik yoki teng yoki 5 yoshdan katta bo'masa, "Salom, <ism>!", aks holda "Assalomu alaykum, <ism>".

Dasturiy ta'minotda "Salomlashish" metodi qayta yuklanuvchi bo'lib, parametri Inson va satr qaytaruvchi bo'lsin. "O'zi haqida" metodi "Meni ismim <ism>, meni yoshim <yoshi> da, men rasmiy so'zlashmayman"(Norasmiy inson uchun) kabi satrni chiqarsin, hamda qolgan ikkita meros klass uchun o'zingiz gap yasashingiz mumkin.

Asosiy dasturda 5 ta inson yarating: 2 ta Rasmiy, 2 ta Norasmiy va 1 ta Realist inson. Dasturda dastlab barcha odamlar "O'zi haqida" ma'lumot berilishi kerak. Keyin hamma odamlar bir-birlarini ushbu tartibda ko'rishishlari kerak: birinchi ikkinchi bilan ko'rishadi, keyin ikkinchi birinchi bilan, keyin birinchi uchinchi bilan, uchinchi birinchi bilan, va hk. Birinchi hamma bilan hamma birinchi bilan. Keyin ikkinchi uchinchi bilan, uchinchi ikkinchi bilan, ikkinchi to'rtinchi bilan, to'rtinchi ikkinchi bilan va hk. Salomlashayotgan va salomga alik olayotgan odamlarni alohida satrlarda chiqaring.

Pavel: Salom, Andrey!

Andrey: Salom, Pavel!

Pavel: Salom, Irina!

Irina: Assalomu alaykum, Pavel.

8.	<p>“Doira” klassini yarating. Maydoni: aylana radiusi (R). Virtual metod yozing: “Yuza” metodi doira yuzini qaytaradi, shuningdek, “Kattalashtirish” metodi bitta haqiqiy tipli necha marta kattalashtirishligini anglatuvchi parameter va radiusni shuncha marta kattalashtirsin. “Ma’lumot” metodi doira haqida ma’lumotlarni ekranga chiqaradi: radius va yuzasi.</p> <p>Bundan tashqari, “doira2” nomli avlod klass yarating. Qo’shimcha parametr - ichki radius (r_i), ajdod klassdagi radius tashqi radiusni ifodalaydi. Qayta yuklangan “Yuza” metodi tashqi doira yuzi va ichki doira yuzi orasidagi yuzani hisoblaydi. Bundan tashqari, “Kattalashtirish” metodini ichki radius uchun amalga oshiring. “Ma’lumot” metodi doira2 haqida ma’lumotlarni ekranga chiqaradi: radius va yuzasi.</p> <p>Asosiy dasturda doira va doira2 shakllarni yarating va ular haqida ma’lumotlarni chiqaring. Shundan so‘ng ikkala obyektni bir yarim marta oshiring va yangilangan ma’lumotlarni taqdim eting.</p>
9.	<p>Bir guruh odamlarning nishonga olish musobaqasining dasturiy ta’minoti sifatida “Ovchi” klassini yarating. Har bir ovchining o‘z ismi, yoshi (yillar) va yillik tajribasi (yillar) mavjud. Ovchilar “Yangi”, “Tajribali” va “Faxriylar” (Ovchi klassining avlodlari) ga bo‘lingan. Har bir ovchi uchun qayta yuklanuvchi metod yozing: “O‘q uzish” parametrlarsiz boolean qiymatni qaytaruvchi (tegsa - true, tegmasa - false). Nishonga tegish ehtimolligi quyidagicha aniqlanadi: yangilar uchun zarba ehtimoli = $0.01 * \text{yillik tajribasi}$; tajribali = $0.05 * \text{yillik tajribasi}$; faxriylar uchun = $0.9-0.01 * \text{yosh}$.</p> <p>Asosiy dasturda ovchilar birinchisidan boshlab ketma-ket o‘q uzishni boshlashadi. Hamma bittadan otib bo‘lgach o‘q otish to‘xtalib natijalar e’lon qilinadi. Natijalar har safar e’lon qilinib boriladi. Ehtimolligi eng kam bo‘lgan ovchi musobaqadan chiqariladi. Musobaqa biror kishining zarbasi aniq nishonga tekkanda to‘xtatiladi, natijalar yana e’lon qilinadi va g‘olib katta yozuvlar bilan e’lon qilinadi.</p> <p>Asosiy dasturda 7 kishidan iborat maasiv yarating: 2 ta yangi, 3 ta tajribali, 2 ta faxriy. Barcha ovchilar haqida ma’lumotlar chiqarilgandan keyin musobaqani boshlang.</p>
10.	<p>“Taburetka” klassini yarating. Maydonlari: balandligi (h, sm), mahsulot sifati (past, o‘rta, yuqori). Ikkita virtual metodni belgilang: “Yog‘och miqdori” metodi, taburetkaga ketgan yog‘och miqdorini aniqlaydi: $4 \cdot h + 12$ ga teng agar mahsulot sifati past bo‘lsa, agar sifat o‘rtacha yoki yuqori bo‘lsa $5 \cdot h + 14$ ga teng bo‘ladi. “Narx” metodi, past sifatli bo‘lsa $d \cdot 2$ ga, o‘rta sifatli bo‘lsa $d \cdot 3$ ga, yuqori sifatli bo‘lsa, $d \cdot 4$ ga teng, bu yerda d - bu obyektga talab qilinadigan yog‘och miqdori. Shuningdek, obyekt haqida ma’lumotni chop qiluvchi “Axborot” metodini yozing: Balandligi, materiallarning sifati, yog‘och miqdori va narx.</p> <p>Shuningdek, “Stul” meros klassini yarating. Qo’shimcha maydoni: orqa balandligi (h_2, sm). Qayta yuklangan “Yog‘och miqdori” metodida yog‘ochlar miqdori $d + 2 \cdot h_2 + 5$ formulasidan foydalanib hisoblanadi, d – Taburetka klassidagi “Yog‘och miqdori” metodidan olinadigan qiymat. “Narx” metodi qayta yuklanmaydi. Shuningdek, obyekt haqida ma’lumotni chop qiluvchi “Axborot” metodini yozing: Balandligi, orqa balandligi, materiallarning sifati, yog‘och miqdori va narx.</p> <p>Asosiy dasturda Taburetka va Stul klasslaridan obyekt yarating, ular uchun “Yog‘och miqdori” va “Narx” metodlarini ishlating. So‘ngra ular haqida axborotlarni nashr eting.</p>
11.	<p>“Talaba” nomli kridetniy fandan yakuniya kirish yoki kirmasligini aniqlovchi klass yarating. Maydonlari: FIO, qatnashgan mashg‘ulotlar soni, yig‘gan bali. Shuningdek, fan bo‘yicha umumiyligi yig‘ish kerak bo‘lgan ball = 200 ball va umumiyligi mashg‘ulotlar soni = 20 ta (O‘zgarmas final). Talabalar oddiy, aqli va daholarga (Talaba klassining</p>

	<p>avlodlari) bo‘linadi. Har bir talaba uchun “Yakuniya kirish” parametrsiz qayta yuklanadigan mantiqiy qiymat qaytaradigan ($o'tdi$ – true, $o'tmadi$ – false) metod yozing. Oddiy talaba aniq $o'tadi$, qachonki hamma mashg‘ulotlarga kelgan bo‘lsa, bali 60% ga yetarli bo‘lsa, aks holda $o'tmiydi$. Aqli talaba aniq $o'tadi$, qachonki <i>nb</i> lari soni 3 tadan kam bo‘lsa va bali 70% dan kam bo‘lmasa, aks holda $o'tmiydi$. Daho talabalar $o'tadi$, qachonki <i>nb</i> lari soni 5 tadan kam bo‘lsa va bali 85% dan kam bo‘lmasa, aks holda $o'tmiydi$. Shuningdek, talabalar haqida batafsil ma’lumotni ekranga chiqaruvchi “Axborot” qayta yuklanuvchi metodini yozing: FIO, Yig‘gan bali, yakuniya kirish yoki kirmasligi.</p> <p>Asosiy dasturda 10 ta talabalar massivini yarating (5 ta oddiy, 4 ta aqli va 1 daho). Obyektlar ma’lumotlarini konstruktur yordamida kiritting, barcha talabalar haqida ma’lumotlarni ekranga chiqaring.</p>										
12.	<p>“Kinofilm” klassini yarating. Maydonlari: Nomlanishi, Rejissor, davomiyligi (minut da), aktyorlar soni. “Narx” nomli virtual metod yozing, kinofilm narxi quyidagi formula orqali hisoblanadi: davomiyligi * 20 + aktyorlarning soni * 30, lekin agar rejissori = “Stiven Spilberg” yoki “Djeyms Kemerон” bo‘lsa narxi ikki barobarga qimmat bo‘ladi. Shuningdek, film haqidagi ma’lumotlarni ekranga chiqaruvchi “Axborot” metodini yozing: Nomlanishi, rejissori, davomiyligi, aktyorlar soni va narxi.</p> <p>Bundan tashqari, “Multifilm” avlod klassini yarating. Qayta yuklangan “Narx” metodi formulasi quyidagicha: davomiyligi * 25 + aktyorlarning soni * 10 (rejissyoridan qat'i nazar).</p> <p>Asosiy dasturda 2 ta film yarating rejissori “Stiven Spilberg” va “Jorj Gofman” filmlari, multifilm yarating va ular haqida ma’lumotni chiqaring.</p>										
13.	<p>“Po‘lat plita” klassini yarating. Maydonlari: Plita qatlaming qalinligi (mm) va po‘lat zichligi (kg / m^3) bilan ifodalanadi. Plitalar “Kvadrat” (shakli, kengligi va uzunligi bir xil beriladi, mm da), “To‘rtburchak” (shakli, kengligi va uzunligi beriladi, mm da) va “Uchburchak” (shakli, to‘g‘ri burchakli uchburchak ko‘rinishida ikkita kateti beriladi, mm da). Har bir plita uchun “Yuzasi” nomli virtual metod yozing. Shuningdek, “Og‘irlilik” metodini yozing, unda plitani og‘irligi plita yuzasini * qalinligi * zichligi formula orqali hisoblanadi. “Ma’lumot” nomli virtual metod plitalar haqida ma’lumotni jadval ko‘rinishida chop qiling.</p> <p>Asosiy dasturda 15 ta po‘lat plitani yaratib, 5 tasi kvadrat, 7 tasi burchakli va 3 ta uchburchak shaklli bo‘lib o‘lchamlari tasodifiy o‘lchamlar orqali yaratasisiz. Plitalar haqida ma’lumotni jadval ko‘rinishida chop eting.</p> <table border="1" style="margin-left: auto; margin-right: auto;"> <tr> <td style="padding: 2px;"> Shakli </td> <td style="padding: 2px;"> Kengligi </td> <td style="padding: 2px;"> Uzunligi </td> <td style="padding: 2px;"> Yuzasi </td> <td style="padding: 2px;"> Og‘irligi </td> </tr> <tr> <td style="padding: 2px;"> Uchburchak </td> <td style="padding: 2px;"> 4 </td> <td style="padding: 2px;"> 3 </td> <td style="padding: 2px;"> 6 </td> <td style="padding: 2px;"> $9kg/m^3$ </td> </tr> </table>	Shakli	Kengligi	Uzunligi	Yuzasi	Og‘irligi	Uchburchak	4	3	6	$9kg/m^3$
Shakli	Kengligi	Uzunligi	Yuzasi	Og‘irligi							
Uchburchak	4	3	6	$9kg/m^3$							
14.	<p>“Samalyot” klassini yarating. Maydonlari: Marka, Model, Maksimal tezlik (km / s), Maksimal balandligi (metrda). “Narx” virtual metodini yozing – samolyot narxi quyidagicha hisoblanadi Maksimal tezlik * 1000+Maksimal balandlik * 100. Shuningdek, obyekt haqida ma’lumot beruvchi “Ma’lumot” metodini yozing: Marka, Model, Maksimal tezlik, Maksimal balandlik va Narx.</p> <p>Bundan tashqari, “Qiruvchi” nomli avlod klass yarating. Qayta yuklangan “Narx” metodi oddiy samolyot narxidan ikki barobar qimmat hisoblanadi. Yana, “Uchar” nomli ikkinchi avlod klassini yarating. Qayta yuklangan “Narx” metodi oddiy samolyot narxidan uch barobar qimmat hisoblanadi.</p> <p>Asosiy dasturda Samalyot, Qiruvchi va Uchar klasslaridan obyekt yarating. Samolyotlar haqida ma’lumotlarni ekranda chiqaring.</p>										

15.	<p>“Inson” klassini yarating. Maydonlari: FIO, tug‘ilgan yili, passport ma’lumotlari. “Nafaqaxo‘r” virtual metodini yarating. Unda yoshi 55 yoshdan kattalarga siz yosh bo‘yicha nafaqaga chiqdiz degan xabar berilsin. “Ma’lumot” nomli metodda har bir inson haqida ma’lumot berilsin: FIO, tug‘ilgan yili, passport ma’lumotlari va nafaqaga chiqqanligi.</p> <p>“Xodim” nomli avlod klassini yarating. Qo‘sishimcha maydonlari: staji, maoshi, nafaqasi. Qayta yuklangan “Nafaqaxo‘r” metodida, agar ishchini yoshi 55 yoshdan oshgan bo‘lsa yuqoridagidek xabar chiqarilsin, hamda nafaqasi hisoblansin = $staji*maoshi/100*3$, agar Yoshi 55 dan kam bo‘lsa, nafaqaga chiqmasligi va nafaqagacha nechchi yil borligini chiqarsin. “Ma’lumot” nomli metodda har bir inson haqida ma’lumot berilsin: FIO, tug‘ilgan yili, passport ma’lumotlari, nafaqaga chiqqanligi va nafaqasi.</p> <p>Asosiy dasturda Inson klassida 3 ta va Xodim klassidan 5 ta obyekt yarating. Ular uchun Nafaqaxo‘r metodini qo‘llang va ma’lumotlarni chiqaring.</p>
16.	<p>“Fotoapparat” klassini yarating. Maydonlari: <i>Modeli, Optik yaqinlashtirishi (Zoom, 1 dan 35 gacha haqiqiy son) va materiali (metall yoki plastmassa)</i>. Virtual metod yozing: “Narx” metodi – fotoapparat narxini (\$ hisobida) qaytaradi, narx quyidagicha hisoblanadi: agar material plastmassa bo‘lsa ($Zoom + 2 \cdot 10$), agar metall bo‘lsa ($Zoom + 2 \cdot 15$). “Qimmat” nomli mantiqiy metod yozing, fotoapparat narxi 250\$ dan oshsa rost(true) qiymat aks holda yolg‘on(false) qiymat qaytarsin. Bundan tashqari, obyekt haqida ma’lumotni ekranga chiqaruvchi “Print” nomli metod yozing: Model, Zoom, Marx va fotoapparat qimmat yoki yo‘qligi haqida habar chiqarsin.</p> <p>Bundan tashqari, “Sifrovoy” nomli avlod klass yarating. Qo‘sishimcha parametrlari – butun sonli megapiksellar soni. Qayta yuklangan “Narx” metodi odatiy fotoapparat narxidek hisoblanadi lekin unga megapiksellar sonini ko‘paytirish kerak bo‘ladi. Yangi “Modelni yangilash” nomli metod yozing, unda megapiksellar soni 4 ga oshirilsin. Bundan tashqari, obyekt haqida ma’lumotni ekranga chiqaruvchi “Print” nomli metod yozing: Model, Zoom, Megapiksellar soni, Marx va fotoapparat qimmat yoki yo‘qligi haqida habar chiqarsin.</p> <p>Asosiy dasturda Fotoapparat klassidan 4x optik zoomli ($Zoom = 4$) va plastik meterialli, shuningdek, Sifrovoy fotoapparat klassidan metall meterialli 8 megapikselli va 3x optik zoomli obyektlarni yarating. Fotoapparatlar haqida ma’lumotlarni ekranga chiqarng. Sifrovoy fotoapparatni modelini yangilab qaytadan ma’lumotlarni ekranga chiqaring.</p>
17.	<p>“Telefon” klassini yarating. Maydonlari: <i>Modeli, Kamera (Mp), Xotirasi, chiqqan yili</i>. “Yaroqlilik” virtual metodi, ishlab chiqarilganiga 3 yildan oshgan bo‘lsa, yaroqsiz aks holda yaroqli hisoblanadi. “Narx” metodi, yaroqli bo‘lsa narx = $kamerasi*5+ xotirasi * 10$ (\$ hisobida). Bundan tashqari, obyekt haqida ma’lumotni ekranga chiqaruvchi “Print” nomli metod yozing: Modeli, Kamerasi (Mp), xotirasi, chiqqan yili, yaroqliligi va narxi.</p> <p>Bundan tashqari, “Samsung” nomli avlod klass yarating. Qo‘sishimcha parametrlari – rangi. Qayta yuklangan “Narx” metodi odatiy fotoapparat narxidek hisoblanadi lekin rangi oq yoki qora bo‘lsa narxni 1.5 ga akas holda 2 ga ko‘paytirish kerak bo‘ladi. Bundan tashqari, obyekt haqida ma’lumotni ekranga chiqaruvchi “Print” nomli metod yozing: Modeli, Kamerasi (Mp), xotirasi, chiqqan yili, rangi, yaroqliligi va narxi.</p> <p>Asosiy dasturda Telefon klassidan 2 ta va Samsung klassidan 4 ta obyektlar massivi yarating. Ular haqida ma’lumotlarni ekranga chop qiling.</p>
18.	<p>“Taburetka” klassini yarating. Maydonlari: balandligi (h, sm), mahsulot sifati (past, o‘rtal, yuqori). Ikkita virtual metodni belgilang: “Yog‘och miqdori” metodi, taburetkaga</p>

	<p>ketgan yog‘och miqdorini aniqlaydi: $4 \cdot h + 12$ ga teng agar mahsulot sifati past bo‘lsa, agar sifat o‘rtacha yoki yuqori bo‘lsa $5 \cdot h + 14$ ga teng bo‘ladi. “Narx” metodi, past sifatlari bo‘lsa $d \cdot 2$ ga, o‘rta sifatlari bo‘lsa $d \cdot 3$ ga, yuqori sifatlari bo‘lsa, $d \cdot 4$ ga teng, bu yerda d - bu obyektga talab qilinadigan yog‘och miqdori. Shuningdek, obyekt haqida ma'lumotni chop qiluvchi “Axborot” metodini yozing: Balandligi, materiallarning sifati, yog‘och miqdori va narxi.</p> <p>Shuningdek, “Xontaxta” meros klassini yarating. Qo‘sishimcha maydoni: shakli. Qayta yuklangan “Yog‘och miqdori” metodida yog‘ochlar miqdori d ga agar shakli to‘g‘ri to‘rtburchak bo‘lsa 10 aks holda 15 ni qo‘sish kerak, d – Taburetka klassidagi “Yog‘och miqdori” metodidan olinadigan qiymat. “Narx” metodi agar xontaxta shakli to‘g‘ri to‘rtburchak bo‘lsa, $d \cdot 2$, oval bo‘lsa $d \cdot 3$ ga teng bo‘ladi. Shuningdek, obyekt haqida ma'lumotni chop qiluvchi “Axborot” metodini yozing: Balandligi, shakli, materiallarning sifati, yog‘och miqdori va narxi.</p> <p>Asosiy dasturda Taburetka va Xontaxta klasslaridan obyekt yarating, ular uchun “Yog‘och miqdori” va “Narx” metodlarini ishlating. So‘ngra ular haqida axborotlarni nashr eting.</p>
19.	<p>“To‘g‘ri to‘rtburchak” klassini yarating. Maydonlari: <i>ikkita tomoni (a va b)</i>, ikkita virtual metod yarating: "Perimet" va "Yuza". Shuningdek, “Illi marta oshirish” nomli virtual metod yozing, unda tomonlarini ikki martaga oshirish bajarilsin. “Nashrga” nomli metodda klass obyektlari haqida barcha ma'lumotlar chop etilsin: tomon uzunliklari, perimetr va yuzasi.</p> <p>Bundan tashqari, “Parallelogramm” nomli avlod klassini yarating. Qo‘sishimcha parametrlari – ikkita tomoni orasidagi burchak. Qayta yuklangan ikkita metod: "Perimet" va "Yuza" (Parallelogramm uchun). “Illi marta oshirish” metodi qayta yuklanmaydi, ajodod klassniki bilan bir xil ishlaydi. “Nashrga” nomli metodda klass obyektlari haqida barcha ma'lumotlar chop etilsin: tomon uzunliklari, orasidagi burchak, perimetr va yuzasi.</p> <p>Asosiy dasturda ikkita to‘rtburchak haqida ma'lumotlarni kriting va ma'lumotlarni chop qiling. To‘g‘ri to‘rtburchak va parallelogram obyektlarini o‘zgartirib, qayta ishlab va yangilangan ma'lumotlarni taqdim eting.</p>
20.	<p>“Avtomobil” klassini yarating. Maydonlari: <i>Nomi, maksimal tezligi(km/s)</i>, narx. Konstruktor orqali faqat nomi va maksimal tezligini kriting. Ikkita virtual metod yarating: “Narx” metodi – mashina narxini quyidagi formula bilan hisoblaydi: maksimal tezlik * 100 \$(AQSH dollari hisobida) va “Modelni yangilash” metodi maksimal tezlikni 10 km/s ga oshiradi. Bundan tashqari, obyekt haqida ma'lumotlarni chop qiluvchi “Axborot” metodini yarating: Nomi, maksimal tezlik va narx.</p> <p>Bundan tashqari, “Yuk tashish avtomobili” nomli avlod klass yarating. Qo‘sishimcha maydonlari – sig‘imi (kg da). Qayta yuklangan 2 ta metodi mavjud: “Narx” metodi – mashina narxini quyidagi formula bilan hisoblaydi: agar sig‘imi 2000 kg dan kam bo‘lsa, maksimal tezlik * 150 \$(AQSH dollari hisobida), aks holda maksimal tezlik * 200 \$. “Modelni yangilash” metodi mashina sig‘imini yangi kiritilgan qiymatga o‘zgartiradi.</p> <p>Asosiy dasturda Avtomobil klassidan 140 km/s maksimal tezlikka ega va Yuk tashish avtomobili avlod klassidan 160 km/s maksimal tezlikka ega bo‘lgan obyektlar yarating. Avtomobillar haqida ma'lumotlarni ekranga chiqaring. Avtomobillarni modellarini yangilang va qayta ma'lumotlarni chop qiling.</p>

18. OPERATORLARNI QAYTA YUKLASH

Ishdan maqsad: Operatorlarni qayta yuklash ko‘nikmalarini egallash.

Nazarliy qism.

C++ tilida o‘rnatilgan operatorlarni qayta yuklash imkoniyati mavjud. Operatorlar global ravishda yoki sinf chegarasida qayta yukla-nishi mumkin. Qayta yuklangan operatorlar operator kalit so‘zi yordamida funksiya ko‘rinishida amalga oshiriladi. Qayta yuklanuvchi funksiya *operator funksiya* nomlanadi va nomi operatorX ko‘rinishida bo‘lishi kerak, bu erda X – qayta yuklanuvchi operator. C++ tilida qayta yukla-nishi mumkin bo‘lgan operatorlar ro‘yxati 13.1-jadvalida keltirilgan. Masalan, qo‘sish operatorini qayta yuklash uchun operator+ nomli funksiyani aniqlash kerak bo‘ladi. Agar qo‘sish qiymat berish amali bilan kelgan holini qayta yuklash uchun operator+= ko‘rinishida funksiya aniqlash zarur bo‘ladi. Odatda kompilyator programma kodida qayta yuklangan operatorlar uchraganda ularni oshkormas ravishda qo’llaydi. Zarur bo‘lganda ularni oshkor chaqirish mumkin:

Nuqta nuqta1, nuqta2, nuqta3; // Qayta yuklangan qo‘sish operatorini oshkor chaqirish

nuqta3=nuqta1.operator+(nuqta2);

38-jadval

Operator	Tavsifi	Toifasi
,	Vergul	Binar
!	Mantiqiy inkor	Unar
!=	Teng emas	Binar
%	Bo‘lish qoldig‘i	Binar
%=	Modulli bo‘lish qiymat berish bilan	Binar
&	Razryadli VA	Binar
&	Adresni olish	Unar
&&	Mantiqiy VA	Binar
&=	Razryadli VA qiymat berish bilan	Binar
()	Funksiyani chaqirish	–
*	Ko‘paytirish	Binar
*	Vositali murojaat	Binar
*=	Ko‘paytirish qiymat berish bilan	Binar
+	Qo‘sish	Binar
+	Unar plus	Unar
++	Inkrement	Unar
+=	Qo‘sish qiymat berish bilan	Binar
-	Ayirish	Binar
-	Unar minus	Unar
--	Dekrement	Unar
-=	Ayirish qiymat berish bilan	Binar
->	Elementini tanlash	Binar
->*	Elementini ko‘rsatkich orqali tanlash	Binar
/	Bo‘lish	Binar
/=	Bo‘lish qiymat berish bilan	Binar
<	Kichik	Binar

<=	Kichik yoki teng	Binar
<<	Razryad bo'yicha chapga surish	Binar
<<=	CHapga surish qiymat berish bilan	Binar
=	Qiymat berish	Binar
==	Teng	Binar
>	Katta	Binar
>=	Katta yoki teng	Binar
>>	Razryad bo'yicha o'ngga surish	Binar
>>=	O'ngga surish qiymat berish bilan	Binar
[]	Massiv indeksi	-
^	Razryadli istisno qiluvchi YOKI	Binar
^=	Razryadli istisno kiluvchi YOKI qiymat berish bilan	Binar
	Razryadli YOKI	Binar
=	Razryadli YOKI qiymat berish bilan	Binar
	Mantiqiy YOKI	Binar
~	Bitli mantiqiy INKOR	Binar
delete	Dinamik ob'ektni yo'qotish	-
new	Dinamik ob'ektni yaratish	-

Keltirilgan operatorlar qayta yuklanmaydigan operatorlar hisoblanadi. Qayta yuklanmaydigan operatorlar

39-jadval

Operator	Tavsifi
.	A'zoni tanlash
::	Ko'rinish sohasiga ruxsat berish operatori
.*	Ko'rsatkich bo'yicha a'zoni tanlash
?:	SHart amali
#	Preprotessor belgilari
##	Preprotessor belgilari

Qayta yuklanadigan operatorlarning operator funksiyalari, new va delete operatorlaridan tashqari, quyidagi qoidalarga bo'y sunishi kerak:

1) operator funksiya sinfning nostatik funksiya-a'zosi bo'lishi kerak yoki operator funksiya sinf yoki sanab o'tiladigan turdag'i argument qabul qilishi kerak yoki

operator funksiya sinf yoki sanab o'tiladigan turga ko'rsatkich yoki murojaat bo'lgan argumentlarni qabul qilishi kerak.

Masalan,

class Nuqta{

public: //«kichik» operatori uchun operator funksiya-a'zoni e'lon qilish

Nuqta operator<(Point&);;

...

friend Nuqta operator+(Point&, int); // Qo'shish operatorlarini e'lon qilish
friend Nuqta operator+(int, Point&);};

Bu misolda «kichik» operatori sinfning funksiya-a'zosi sifatida e'lon qilingan, qo'shish operatori esa sinfning do'sti sifatida e'lon qilingan va u bitta operatorni qayta yuklashning bir nechta varianti bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi;

2) operator funksiya operatorning argumentlar (operandlar) sonini, ularning ustunligi va bajarilish tartibini o‘zgartira olmaydi;

3) sınıf funksiya a’zosi sifatida e’lon qilingan unar operatorning operator funksiyasi parametrga ega bo‘lmasligi kerak. Agar operator funksiya global funksiya bo‘lsa, u faqat bitta parametrga ega bo‘ladi;

4) sınıf funksiya a’zosi sifatida e’lon qilingan binar operatorning operator funksiyasi bitta parametrga ega bo‘lishi kerak. Agar operator funksiya global funksiya bo‘lsa, u faqat ikkita parametrga ega bo‘ladi;

5) operator funksiya kelishuv bo‘yicha parametrlerga ega bo‘lmasligi kerak;

6) sınıf funksiya a’zosi sifatida e’lon qilingan operator funksiyaning birinchi parametri (agar u bo‘lsa) sınıf turida bo‘lishi kerak. Chunki aynan shu sınıf ob’ekti uchun mazkur operator chaqiriladi. Birinchi argument ustida hech qanday turga keltirish amali bajaril-masligi kerak;

7) qiymat berish operatorining operator funksiyasidan tashqari barcha operator funksiyalar vorislik bilan o’tadi;

8) =, (), [] va -> operatorlarning operator funksiyalari sinfning nostatik funksiya a’zolari bo‘lishi kerak (va ular global funksiya bo‘la olmaydi).

Operatorlarni qayta yuklash orqali, sınıf chegarasida operatorning mohiyatini tubdan o‘zgartirib yuborish mumkin. Lekin bu ishni zarurat bo‘lgandagina amalga oshirgan ma’qul. Aks holda bajariladigan amal-larda mazmuniy xatolar yuzaga kelishi mumkin.

Binar operatorlarni qayta yuklash

Binar operatorning operator funksiyasi sinfning nostatik funksiya-a’zosi sifatida e’lon qilinganda u quyidagi sintaksisiga ega bo‘lishi kerak:

<qaytariladigan qiymat turi>operatorX(<parametr turi><parametr>);

Bu erda <qaytariladigan qiymat turi> – funksiya qaytariladigan qiymat turi, X – qayta yuklanadigan operator, <parametr turi> – parametr turi va <parametr> – funksiya parametri.

Funksiya parametriga operatorning o‘ng tomonidagi ob’ekt uzatiladi, operatorning chap tomonidagi ob’ekt esa nooshkor ravishda this ko‘rsatkichi bilan uzatiladi.

Agar operator funksiya global deb e’lon qilinsa, u quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi:
<qaytariladigan qiymat turi>operatorX(<parametr turi₁><parametr₁>, <parametr turi₂><parametr₂>);

Bu yerda funksiya parametrlarining kamida bittasi operator qayta yuklanayotgan sınıf turida bo‘lishi kerak.

Garchi operator funksiya qaytariladigan qiymat turiga hech qanday cheklov bo‘lmasa ham, u sınıf turida yoki sınıfga ko‘rsatkich bo‘ladi.

Operator funksiyalarni yozishning bir nechta misollarini keltiramiz. Bu misollar operatorlarni qayta yuklashning to‘liq imkoniyatlarini ochib bermasa ham, uning muhim qirralarini ko‘rsatadi.

Birinchi navbatda operator funksiyaning sinfning funksiya-a’zosi ko‘rinishida aniqlashni ko‘ramiz.

Quyidagi programmada Nuqta sınıfı uchun qo‘sish va ayirish operatorlarini qayta yuklash amalga oshirilgan.

```
#include <iostream.h>
```

```
class Nuqta{           int x,y;  
public:  
    Nuqta(){x=0; y=0;}  
    Nuqta(int _x,int _y){x=_x; y=_y;}
```

```

void Nuqta_Qiymati(int & _x,int & _y){_x=x; _y=y;}
Nuqta operator+(Nuqta& ob);
Nuqta operator-(Nuqta& ob); }
Nuqta Nuqta::operator+(<b>Nuqta& ob</b>){
    Nuqta OraliqOb;
    OraliqOb.x=x+ob.x;
    OraliqOb.y=y+ob.y;
    return OraliqOb; }
Nuqta Nuqta::operator-(<b>Nuqta& ob</b>){
    Nuqta OraliqOb;
    OraliqOb.x=x-ob.x;
    OraliqOb.y=y-ob.y;
    return OraliqOb; }
int main(){ int x,y;
    Nuqta A(100,200), B(50,100),C;
    C=A+B; // qayta yuklangan qo'shish operatori amal qiladi
    C.Nuqta_Qiymati(x,y);
    cout<<" C=A+B: "<<"C.x="<<x<<" C.y="<<y<<endl;
    A=A-B; // qayta yuklangan ayirish operatori amal qiladi
    A.Nuqta_Qiymati(x,y);
    cout<<" A=A-B: "<<"A.x="<<x<<" A.y="<<y<<endl;
    return 0; }

```

Programma ishlashi natijasida ekranga quyidagi ko'rinishidagi natijalar chop etiladi:

C=A+B amali natijasi: C.x=150 C.y=300

A=A-B amali natijasi: A.x=50 A.y=100

Programmada shu narsaga e'tibor berish kerakki, operator funksiya parametri sinf ob'ektga murojaat ko'rinishida aniqlangan. Umuman olganda argument sifatida ob'ektni o'zini ham chaqirish mumkin, lekin funksiyadan chiqishda bu ob'ekt destruktur yordamida yo'qotiladi. Funksiya parametri sinf ob'ektga murojaat ko'rinishida bo'lishining afzalligi shundaki, funksiya chaqirilganda unga ob'ekt emas, balki ob'ektga ko'rsatkich uzatiladi va sinf nusxasi uchun chaqiriladigan destruktorni ishlatilmaydi. Operator funksiyalarining qaytaruvchi qiymati ayni shu sinf turida va hol ob'ektlarni nisbatan murakkab ifodalarda qo'llash imkonini beradi. Masalan, quyidagi amallar programma uchun ruxsat etilgan til ko'rsatmasi hisoblanadi:

C=A+B-C;

Ikkinci tomondan, quyidagi ifoda ham o'rinni:

(A+B).Nuqta_Qiymati(x,y);

Bu ifodada qo'shish operatorining operator funksiyasidagi vaqtincha (OraliqOb) ob'ektning Nuqta_Qiymati() funksiyasi ishlatiladi.

Keyingi misol operator funksiya parametri sifatida sanab o'tiladigan turdag'i berilgan kelgan holatini namoyon qiladi. Bu berilgan operatorning o'ng tomonida kelishiga e'tibor berish kerak.

```

#include <iostream.h>
class Nuqta{ int x,y;
    public:
        Nuqta(){x=0; y=0;}
        Nuqta(int _x,int _y){x=_x; y=_y;}

```

```

void Nuqta_Qiymati(int & _x,int & _y){_x=x; _y=y;}
Nuqta operator+(Nuqta& ob);
Nuqta operator+(int n); }
Nuqta Nuqta::operator+(Nuqta& ob){
    Nuqta OraliqOb;
    OraliqOb.x=x+ob.x;
    OraliqOb.y=y+ob.y;
    return OraliqOb;}
Nuqta Nuqta::operator+(int n){
    Nuqta OraliqOb;
    OraliqOb.x=x+n;
    OraliqOb.y=y+n;
    return OraliqOb;}
int main(){ int x,y;
    Nuqta A(100,200), B(50,100),C;
    C=A+B; // parametri sinf turidagi ob'ekt bo'lgan
    C.Nuqta_Qiymati(x,y); // qayta yuklangan qo'shish operatori amal qiladi
    cout<<" C=A+B: "<<"C.x="<<x<<" C.y="<<y<<endl;
    C=A+30; // parametri sanab o'tiladigan turidagi ob'ekt
    C.Nuqta_Qiymati(x,y); // bo'lgan qayta yuklangan qo'shish operatori amal qiladi
    cout<<" C=A+30: "<<"C.x="<<x<<" C.y="<<y<<endl;
    return 0;}

```

Programma ishlashi natijasida ekranga quyidagi ko'rinishidagi natijalar chop etiladi:

C=A+B amali natijasi: C.x=150 C.y=300

C=A+30 amali natijasi: C.x=130 C.y=230

Operator funksiya parametri operatorning o'ng tomonidagi operand ekanligi sababli kompilyator quyidagi ko'rsatmalarni to'g'ri «tushunadi»:

C=A+30;

Lekin kompilyator

C=30+A;

ko'rsatmasini qabul qilmaydi.

Bu muammoni operator funksiyaning «ichki» imkoniyatlari bilan hal qilib bo'lmaydi. Muammoni do'st operator funksiyalardan foydalanish orqali echish mumkin. Ma'lumki, do'st funksiyalarga yashiringan this ko'rsatkichi uzatilmaydi. SHuning uchun binar operator funksiyasi ikkita argumentga ega bo'lishi kerak – birinchisi chap operand uchun, ikkinchisi o'ng operand uchun.

#include <iostream.h>

```

class Nuqta{ int x,y;
    public:
        Nuqta(){x=0; y=0;}
        Nuqta(int _x,int _y){x=_x; y=_y;}
        void Nuqta_Qiymati(int & _x,int & _y){_x=x; _y=y;}
        friend class Nuqta operator+(Nuqta& ob1, Nuqta& ob2);
        friend class Nuqta operator+(Nuqta& ob,int n);
        friend class Nuqta operator+(int n, Nuqta& ob); };
Nuqta operator+(Nuqta& ob1,Nuqta& ob2){
    Nuqta OraliqOb;

```

```

OraliqOb.x=ob1.x+ob2.x;
OraliqOb.y=ob1.y+ob2.y;
return OraliqOb; }
Nuqta operator+(Nuqta& ob,int n){
    Nuqta OraliqOb;
    OraliqOb.x=ob.x+n;
    OraliqOb.y=ob.y+n;
    return OraliqOb;}
Nuqta operator+(int n, Nuqta& ob){
    Nuqta OraliqOb;
    OraliqOb.x=ob.x+n;
    OraliqOb.y=ob.y+n;
    return OraliqOb; }
int main(){ int x,y;
    Nuqta A(100,200), B(50,100),C;
    C=A+B; C.Nuqta_Qiymati(x,y);
    cout<<" C=A+B: "<<x<<" C.y="<<y<<endl;
    C=A+30; C.Nuqta_Qiymati(x,y);
    cout<<" C=A+30: "<<x<<" C.y="<<y<<endl;
    C=30+A; C.Nuqta_Qiymati(x,y);
    cout<<" C=30+A: "<<x<<" C.y="<<y<<endl;
    return 0; }

```

Do'st funksiyalarni qayta yuklash hisobiga

C=A+30;

C=30+A;

til ko'rsatmalarini bajarish imkoniyati yuzaga keldi.

Mashg'ulotini bajarish bo'yicha topshiriqlar

40-jadval

1.	Kompleks sonlar ustida arifmetik amallar bajaradigan COMPLEX sinfi yaratilib, unda '+', '-·', '*' va '/' amallari qayta yuklansin. Sinf obyektlari ustida ko'rsatilgan amallar bajarilsin.
2.	Berilgan n ulchamli vektor ustida vektorlarni qo'shish, ayirish, skalyar ko'paytirish, hamda vektorni songa ko'paytirish amallarini qayta yuklash bajarilgan VECTOR sinfi aniqlansin. Sinf obyektlari ustida ko'rsatilgan amallar bajarilsin.
3.	Berilgan natural n va m o'lchamdagи haqiqiy elementlardan iborat matrisa uchun MATRISA sinfi yaratilsin va unda matrisani matisaga ko'shish, ayirish, ko'paytirish, hamda matrisani songa ko'paytirish amallari qayta yuklansin. Sinf obyektlari ustida ko'rsatilgan amallar bajarilsin.
4.	Vektor yordamida to'plamni xosil qilish amalinini bajaruvchi TOPLAM sinfi yaratilsin. To'plam ustida asosiy amallarni – to'plamga yangi element qo'shish va o'chirish, to'plamlar kesishmasini, birlashmasini, hamda ayirmasi amallari qayta yuklansin. Sinf obyektlari ustida ko'rsatilgan amallar bajarilsin.
5.	Vaktning sekunt, minut, soat qiymatlari ustida bajariladigan ko'shish, ayirish va taqqoslash amallarini qayta yuklaydigan VAKT sinfi aniqlansin. Sinf obyektlari ustida ko'rsatilgan amallar bajarilsin.
6.	Sananing kun, oy, yil qiymatlari ustida bajariladigan qo'shish, ayirish va taqqoslash amallarini qayta yaklaydigan SANA sinfi aniqlansin. Sinf obyektlari ustida ko'rsatilgan amallar bajarilsin.

7.	Ratsional sonlar ustida, yani surat va maxraj juftligi bilan berilgan sonlar ustida qo'shish, ayirish, ko'paytirish taqqoslash amallarini qayta yuklaydigan RATSIONAL sinfi aniqlansin. Sinf obyektlari ustida ko'rsatilgan amallar bajarilsin.																																																																																																																																																
8.	Dekart koordinatasida, tekislikda berilgan nuqta koordinatasini kutb koordinatasiga va aksincha, kutb koordinatasidan Dekart koordinatasiga o'tkazuvchi amallarni o'z ichiga olgan QUTB va DEKART sinflari aniqlansin. Sinflar obyektlari ustida ko'rsatilgan amallar bajarilsin.																																																																																																																																																
9.	AKSLANTIRISH_01 sinfi aniqlansin. Unda haqiqiy sonlar massivini $[0,1]$ segmentga akslantirish operator – funksiya ko'rinishida aniqlansin. Sinf obyektlari ustida ko'rsatilgan amallar bajarilsin.																																																																																																																																																
10.	SATR sinfi aniqlansin va unda nol terminalli satrlar ustida satrga satr qo'shish, satrdagi bir satr ostini ikkinchi satr bilan almashtirish amallari operator funksiya ko'rinishida aniqlansin. Sinf obyektlari ustida ko'rsatilgan amallar bajarilsin.																																																																																																																																																
11.	STEK sinfi aniqlansin. Unda stek ustidagi barcha amallar operator funksiya sifatida aniqlansin. Sinf obyektlari ustida ko'rsatilgan amallar bajarilsin.																																																																																																																																																
12.	INTERVAL sinfi aniqlansin. Unda '+', '-·, '*' va '/' amallari qayta yuklansin. Sinf obyektlari ustida ko'rsatilgan amallar bajarilsin.																																																																																																																																																
13.	Ikki xil ko'rinishdagi haqiqiy turdag'i matrisalar berilgan: to'g'ri burchakli va bosh diagonalga nisbatan simmetrik bo'lgan kvadrat matrisalar. Matrisalarni xotirada saqlashda kiymati nol bo'lgan elementlar saklanmasligi kerak. Kvadrat matrisa uchun yana ko'shimcha shart - fakat bosh diagonal va undan yuqorida joylashgan elementlar xotirada saqlanishi kerak. Matrisalar sinflar shajarasi ko'rinishida tavsiflansin. Bunda to'g'ri burchakli matrisa uchun TB_MATRISA sinfi va uning vorisi sifatida kvadrat matrisa sinfi KV_MATRISA aniqlansin. Matrisalar utsidagi qo'shish va ko'paytirish amallar qayta yuklanuvchi operator ko'rinishida amalg'a oshirilsin.																																																																																																																																																
16.	Katta sonlar ustida arifmetik amallarni bajarish. O'nlik sanok sitsemasidagi ikkita a va b butun sonlar satr ko'rinishida berilgan. $a+b$, $a-b$, a^b va a/b amallar qayta yuklanuvchi operator ko'rinishida aniqlangan UZUN SON sinfi aniqlansin.																																																																																																																																																
17.	Uzunligi oldindan noma'lum bulgan binar a va b sonlar ustida arifmetik amallar bajarilsin. Sonlar satr korinishida berilgan. $a+b$, $a-b$, $a>>n$ (a razryadlarini o'ngga n pozisyaga surish), $a<<n$ (a razryadlarini o'ngga n pozisyaga surish) va $a(b$ (itsisnoli qo'shish) amallari qayta yuklanuvchi operator ko'rinishida aniqlangan BINAR SON sinfi aniqlansin.																																																																																																																																																
18.	$0 <= a <= 11, 0 <= b <= 11$ butun sonlar ustida qo'shish amali jadvalda berilgan xuddi shunday ayirish amalini ham aniqlash mumkin, bunday amallarni matematikada modulyar arifmetika deyishadi. Xuddi shu amallar aniqlangan SOAT ARIFMETIKASI SINFI aniqlansin.																																																																																																																																																
	<table border="1"> <tr><td>0</td><td>1</td><td>2</td><td>3</td><td>4</td><td>5</td><td>6</td><td>7</td><td>8</td><td>9</td><td>10</td><td>11</td></tr> <tr><td>1</td><td>2</td><td>3</td><td>4</td><td>5</td><td>6</td><td>7</td><td>8</td><td>9</td><td>10</td><td>11</td><td>0</td></tr> <tr><td>2</td><td>3</td><td>4</td><td>5</td><td>6</td><td>7</td><td>8</td><td>9</td><td>10</td><td>11</td><td>0</td><td>1</td></tr> <tr><td>3</td><td>4</td><td>5</td><td>6</td><td>7</td><td>8</td><td>9</td><td>10</td><td>11</td><td>0</td><td>1</td><td>2</td></tr> <tr><td>4</td><td>5</td><td>6</td><td>7</td><td>8</td><td>9</td><td>10</td><td>11</td><td>0</td><td>1</td><td>2</td><td>3</td></tr> <tr><td>5</td><td>6</td><td>7</td><td>8</td><td>9</td><td>10</td><td>11</td><td>0</td><td>1</td><td>2</td><td>3</td><td>4</td></tr> <tr><td>6</td><td>7</td><td>8</td><td>9</td><td>10</td><td>11</td><td>0</td><td>1</td><td>2</td><td>3</td><td>4</td><td>5</td></tr> <tr><td>7</td><td>8</td><td>9</td><td>10</td><td>11</td><td>0</td><td>1</td><td>2</td><td>3</td><td>4</td><td>5</td><td>6</td></tr> <tr><td>8</td><td>9</td><td>10</td><td>11</td><td>0</td><td>1</td><td>2</td><td>3</td><td>4</td><td>5</td><td>6</td><td>7</td></tr> <tr><td>9</td><td>10</td><td>11</td><td>0</td><td>1</td><td>2</td><td>3</td><td>4</td><td>5</td><td>6</td><td>7</td><td>8</td></tr> <tr><td>10</td><td>11</td><td>0</td><td>1</td><td>2</td><td>3</td><td>4</td><td>5</td><td>6</td><td>7</td><td>8</td><td>9</td></tr> <tr><td>11</td><td>0</td><td>1</td><td>2</td><td>3</td><td>4</td><td>5</td><td>6</td><td>7</td><td>8</td><td>9</td><td>10</td></tr> </table>	0	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	0	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	0	1	3	4	5	6	7	8	9	10	11	0	1	2	4	5	6	7	8	9	10	11	0	1	2	3	5	6	7	8	9	10	11	0	1	2	3	4	6	7	8	9	10	11	0	1	2	3	4	5	7	8	9	10	11	0	1	2	3	4	5	6	8	9	10	11	0	1	2	3	4	5	6	7	9	10	11	0	1	2	3	4	5	6	7	8	10	11	0	1	2	3	4	5	6	7	8	9	11	0	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
0	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11																																																																																																																																						
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	0																																																																																																																																						
2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	0	1																																																																																																																																						
3	4	5	6	7	8	9	10	11	0	1	2																																																																																																																																						
4	5	6	7	8	9	10	11	0	1	2	3																																																																																																																																						
5	6	7	8	9	10	11	0	1	2	3	4																																																																																																																																						
6	7	8	9	10	11	0	1	2	3	4	5																																																																																																																																						
7	8	9	10	11	0	1	2	3	4	5	6																																																																																																																																						
8	9	10	11	0	1	2	3	4	5	6	7																																																																																																																																						
9	10	11	0	1	2	3	4	5	6	7	8																																																																																																																																						
10	11	0	1	2	3	4	5	6	7	8	9																																																																																																																																						
11	0	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10																																																																																																																																						
0	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11																																																																																																																																						
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	0																																																																																																																																						
2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	0	1																																																																																																																																						
3	4	5	6	7	8	9	10	11	0	1	2																																																																																																																																						
4	5	6	7	8	9	10	11	0	1	2	3																																																																																																																																						
5	6	7	8	9	10	11	0	1	2	3	4																																																																																																																																						
6	7	8	9	10	11	0	1	2	3	4	5																																																																																																																																						
7	8	9	10	11	0	1	2	3	4	5	6																																																																																																																																						
8	9	10	11	0	1	2	3	4	5	6	7																																																																																																																																						
9	10	11	0	1	2	3	4	5	6	7	8																																																																																																																																						
10	11	0	1	2	3	4	5	6	7	8	9																																																																																																																																						
11	0	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10																																																																																																																																						

19. SHABLONLAR BALAN ISHLASH

Ishning maqsadi: C++ dasturlash tilida shablon funksiya va ularni overload qilish ko‘nikmalarini shakllantirish.

Masalaning qo‘yilishi:

Tur xil to‘plamlarni qayta ishlovchi funksiya shablonlarini yaratish.

Masala: Har – xil turdagи to‘plamlar berilgan. Agar to‘plam **int** turida bo‘lsa, uning elementlarini max va min larini o‘rtasidagi elementlarni aniqlovchi, agar to‘plam **string** turida bo‘lsa, uning toq uzunlikdagi elementlarini o‘chiruvchi funksiya shablonini tuzing.

Masalani yechish g‘oyasi:

1 ta funksiya shabloni tuziladi. Standart turlar bilan Funksiyaga parameter sifatida kirib keledigan to‘plamni tur

Dastur matni:

```
#include<iostream>
#include<string.h>
#include<fstream>
using namespace std;
template<class T> void str_toq_erase(T *AA, int n){
string S[100];
try{ throw AA; }
catch(string *i) {
cout<<endl << "To‘plam string turida: " <<endl;
for(int j=0; j<n; j++){
S[j]=*i; i++;
cout<<S[j]<<" ";
cout<<endl<<endl<<"Toq uzunlikdagilari o‘chirilgandan keyin:"<<endl;
for(int i=0; i<n; i++){
int u=S[i].length();
if(u%2!=0){
S[i].erase(); }
else { cout<<S[i]<<" "; } }
catch(int *i) { cout<<endl << "To‘plam int turida: " <<endl;
int *A = i;
int max=A[0], min=A[0];
int Max=0, Min=0;
for(int i=0; i<n; i++){ cout<<A[i]<<" ";
if(A[i]>max){ max=A[i]; Max=i; }
if(A[i]<min){ min=A[i]; Min=i; } }
int m = Max;
